Social Media Marketing is a small square having wide-ranged opportunity, companies in different sectors of business run their work communicating with consumers by the help of social networks. Social networks creates an opportunity to set communication with users, organizing long-term relations with their consumers, supporting company`s position and branding, increasing sale, developing relations of business. On the pages of social networks companies publish different ideas and comments about service and product, allocate pictures, videos and presentation materials, carry regular communication with consumers.

The purpose of social media is to communicate with people sharing the same interests or activity. Mutual communication is fulfilled by inner e-mail address or system of exchanging messages.

Social networks, as other means of electronic marketing such as searching optimization, contextual and banner advertisements and traditional means of advertisements such as outer and television advertisements, have its advantages, such as:

1. Users have the tendency to share the information, which is interesting for them, with their close people. This is reflected in social networks. With correct approach to this feature it is possible to spread maximally.

2. In this mechanism so-called vires, which is spread rapidly, marketing is created, interest connected with the brand, users themselves disperse interactive supplements. Videos, info graphics and others can be considered as most used virus.

Social networks are based on the principle of “Wireless network”, there are 2 approaches:

First approach – mutual distribution, which means user sends information about the product to his/her surrounded people or pays attention to the content connected with this product.

Second approach – social distribution, which means user distributes the content interesting for him/her to his/her auditory with special mechanism of social network (on Facebook and vkontakte “Share”, on Tweeter “Retweet” commands).

From the point of view of marketing the second approach is much more efficient, because it includes more auditory. In such case the task of marketolog is to identify interests of auditory to distribute the information about product or company, to understand leading motivation and on this base to prepare quickly spreadable interesting text, pictures or videos.

Generally, apart from the fact of idea of virus marketing occupying mind of specialists, the active development of the Internet and, especially, on social networks this idea is admitted and popularized.

This case creates too important condition for online marketing virus, the news get spread quickly, it sets fast and indivisible communication among people and creates an opportunity to understand and get the media information.

Mobile marketing is accomplishing the marketing actions with wireless telephones, phone equipment, telecommunication technologies and systems.

As disadvantages of electronic marketing, the followings can be considered:

- Dependence on speediness of the Internet. If any company creates its web page in huge and complicated form, it takes too much time for users to download and get information from it and at the result, it passes to another web page.

- One of the factors is payment. Nowadays most users of the Internet do not believe in payment with electronic way and that is why they refuse to use it.

- Availability of cheating. The case of not delivering product or service to the consumer after paying for any product or service.

As a conclusion there are achievements of electronic marketing:

➤ Rising to the world market. Using of electronic marketing by companies gives an opportunity of endless expansion and rising to the degree of world marketing from native and inner market;

➤ Taking into consideration of Internet information, which means whether company runs its action or not, or for which product there are more demands, all these are created by the Internet;

➤ Saving money, this means not excess payment for advertisement. Speed of it with which not time-consuming to get necessary results;

➤ Speediness of exchanging information. Consumers can get important information about necessary product by Internet searching system or order needful product.

➤ Creates competition. Big or small companies manufacturing goods compete between themselves which is comfortable for consumer.

Electronic marketing activities shown above come out propose and reviews, today`s task is to employ opportunities of electronic marketing widely, which are come out opportunities of information technologies.

References:

1. Brian Hooligan, DkharmeshShakh. Marketing in the Internet: how to attract clients with the help of Google, social networks and blogs – M: “Dialectics” 2010

2. DamirKhalilov “Marketing in social networks”. Moscow, 2013 y.

3. Gusev B.C Analytics of web sites, - M.: “Dialectics”, “Williams” 2013 p.105-117

4. Research center of Boston Consulting Group, www.bcg.com

БАРКАМОЛ ШАХСНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАСИДИР

Баракаев О.О.,

Бухоро Банк коллежи

Баркамол шахсни ҳар томонлама камол топиши таълим муассасаларининг асосий вазифасидир. Республикамизда амалга оширилаётган таълим соҳасидаги ислохатлар, педагогика фани ва уни амалиёт билан боғлаб ўқитиш бўлажак мутахассисларга касбий маҳорат хусусиятларини шакллантиришда муҳим ўрин тутади. Янги талабларга жавоб берувчи замонавий педагогика, юксак билим ва касбий маҳоратга эга бўлишига талаб этади. Бугунги кун ўзбек педагогикаси миллат руҳиятига нозик жиҳатларини ҳисобга олган ва дунё педагогларнинг энг сўнги ютуқларга таянган ҳолда тараққий этмоқда. Замонавий ўзбек педагогикасида баркамол авлодни шакллантириш, расмий равишда бош мақсад

қилиб белгиланган.

Мустақилликнинг илк йилларидан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Президенти соврини учун Шахрисабзда Амир Темур, Термиз шаҳрида Ҳаким ат-Термизий хотирасига бағишлаб халқаро турнирлар ташкил этилди. 1992-1998 йилларда Жанубий Корея, Канада, Япония, Ҳиндистон, Америка, Россия каби мамлакатларда бўлиб ўтган йирик спорт анжуманларида ўзбек кураши кенг намоёни қилинди. Натижада 1998 йил 6 сентябрь куни Осиё, Европа ва Американинг 28 давлати вакиллари иштирокида ўтказилган таъсис конгрессида Кураш халқаро ассоциациясига (ИКА) асос солинди. Давлатимизнинг бевосита қўллаб-қувватлаши натижасида кураш халқаро спорт тури сифатида кенг эътироф этилди, “кураш”, “ҳалол”, “таъзим”, “тўхта” ва “ёнбош” каби атамалар эса халқаро спорт луғати таркибидан мустаҳкам ўрин эгаллади.

Биринчи Президентимиз Ислон Каримовнинг 1999 йил 1 май куни пойтахтимизда кураш бўйича биринчи жаҳон чемпионатининг тантанали очилиш маросимида «Мен ишонаман: дунёга машҳур паҳлавонларнинг бебаҳо хизматлари туфайли халқимиз маънавий турмуш тарзининг ажралмас қисмига айланган кураш бугундан эътиборан янги ҳаётини бошлайди, янада юксалади, жаҳон узра кенг тарқалиб, турли миллатларга мансуб миллионлаб кишиларнинг севимли машғулотиغا айланади», деган сўзлари ўз исботини топмоқда.

Кураш халқаро ассоциацияси бугунги кунда сайёрамизнинг бешта қитъасидаги 129 та миллий федерацияни бирлаштирган. Кураш бўйича жаҳон ва қитъа чемпионатлари, халқаро турнирлар юксак савияда ташкил этилаётир. Бу мусобақаларда дунёнинг барча қитъасидан номдор полвонлар камтарлик ва мардонаворлик билан таъзим қилиб, гиламга чиқмоқда, давра айланиб, кураш тушмоқда.

Бугунги кунга қадар дунёнинг кўплаб мамлакатларида кураш бўйича 500 дан ортиқ халқаро турнир ўтказилди. Юртдошларимиз орасидан 300 дан кўпроқ спортчи кураш бўйича жаҳон, Осиё чемпионатлари ва халқаро турнирларнинг ғолиб ва совриндорлари бўлди.

2017 йил май ойида Термиз шаҳрида ўтган кураш бўйича Ўзбекистон Республикаси Президенти соврини учун Ҳаким ат-Термизий хотирасига бағишланган XIII халқаро турнирда Жанубий Кореядан келган полвон Хан Су Ким шундай деган эди: “Кураш фалсафаси, моҳияти ва унинг жозибаси бутун дунёни лол қолдирмоқда. Халқингизнинг миллий спорт тури Жанубий Корея ёшлари орасида ҳам кенг оммалашган. Мени ҳам курашнинг мардлик, ҳалоллик, камтарлик каби эзгу фазилатлар билан йўғрилгани ўзига мафтун этган.”

2017 йил 20 сентябрда Ашхобод шаҳрида бўлиб ўтган Осиё Олимпия кенгашининг 36-Бош ассамблеясида кураш миллий спорт тури тарихда илк бор XVIII ёзги Осиё ўйинлари дастурига расман киритилди.

– Осиё олимпия кенгаши томонидан ҳар тўрт йилда ташкил этиладиган ва қитъа олимпиадаси сифатида эътироф этилган ёзги Осиё ўйинлари нуфузи ва аҳамияти жиҳатидан Олимпия ўйинларидан кейинги муҳим мусобақадир. Унда қитъамизнинг барча мамлакатларидан минглаб спортчилар иштирок этади. Шу боис мазкур ўйинлар дастуридан жаҳон миқёсида ўз ўрнига эга, барча қитъаларда ривожланиб бораётган спорт турлари жой олади, – деди Кураш

халқаро ассоциацияси матбуот котиби Жамшид Намозов. – Курашнинг XVIII ёзги Осиё ўйинлари дастурига расман киритилиши бу йўналишда залворли қадам қўйилганидан, унинг халқаро спорт ҳамжамияти томонидан кенг эътироф этилаётганидан далолатдир.

Президентимизнинг “Кураш” миллий спорт турини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги тарихий қарорида сўнгги йилларда эришилган натижалар билан бирга мазкур спорт турининг янада ривожланишига тўсқинлик қилаётган камчиликлар ва уларни бартараф этиш, курашни аҳоли, айниқса, вояга етмаганлар ва ёшлар ўртасида янада ривожлантириш ҳамда оммалаштириш, ўсиб келаётган авлодда миллий ифтихор ва ватанпарварлик туйғусини мустаҳкамлаш, шунингдек, жамиятда соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш ва жаҳон спорт майдонида юқори натижаларга эришишни таъминлаш бўйича қатор вазифалар белгилаб қўйилди.

Қарорда курашни оммалаштириш бўйича амалга оширилаётган ишлар замон талабларига жавоб бермаётгани, қобилятли курашчиларни аниқлаш ва саралаш ҳамда уларнинг машқ қилиши, шунингдек, мураббий ва ҳакамларни тайёрлашнинг самарали механизмларини жорий этиш имконини берадиган клуб ва секцияларнинг яхлит тизими шакллантирилмагани, халқаро мусобақалар ғолиблари ва совриндорларини рағбатлантиришнинг самарали тизими жорий этилмагани, зарур моддий-техник база ва спорт инфратузилмасининг етарли эмаслиги, спорт анжомларини ишлаб чиқиш йўлга қўйилмаганлиги спортчилар машғулотларини талаб даражасида ташкил этишга ҳамда кураш бўйича халқаро мусобақаларни ўтказишга тўсқинлик қилаётгани таъкидланган.

– Дарҳақиқат, курашни жаҳон миқёсида ривожлантириш ва оммалаштириш борасида кўплаб ишлар амалга оширилган ҳолда ушбу спорт турининг асл Ватани – мамлакатимизда ёшларни кураш билан шуғулланишга имконият яратиш, уларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш борасида жиддий камчиликларга йўл қўйилди, – дейди мураббий Ризомат Солиев. – Ҳудудларда секциялар фаолияти курашнинг фидойи жонкуярларининг сайи-ҳаракатлари билангина юриб турди. Ҳатто, кураш юртимизда жорий қилинган уч босқичли узлуксиз спорт ўйинлари дастуридан ҳам чиқарилди. Натижада кўплаб полвонлар Олимпия ўйинлари дастуридан жой олган спорт турларига ўтиб кетишга мажбур бўлди.

Қарорда белгиланган курашни янада ривожлантириш ва оммалаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастурини ишлаб чиқиш, Нукус шаҳри ва вилоят марказларида кураш миллий спорт тури марказлари, ҳар бир туман ва шаҳарда замонавий спорт клублари ва секцияларини ташкил этиш, кураш бўйича республика, халқаро мусобақа ва турнирларни доимий асосда ташкил этиш ва ўтказиш, ушбу спорт тури билан шуғулланувчи ёшларнинг олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларига қабул квоталарини ошириш, жаҳон стандартларига жавоб берадиган “яктак” спорт кийимлари ва “кураш гилам”ларини ишлаб чиқаришни ташкил этиш, курашни “Умид ниҳоллари”, “Баркамол авлод” ва Универсиада спорт ўйинлари дастурига киритиш сингари кўплаб вазифалар келгусида курашнинг янада раванқ топишига, унинг

ёшларимиз ҳаётида том маънода муҳим ўрин эгаллашига хизмат қилади.

NUMERIQUE ET APPRENTISSAGES EN FRANCE

*Daniel Moatti, François Bocquet,
UPMF (GRENOBLE)*

Le numérique permet-il d'apprendre et d'enseigner mieux ? La question reste posée. À côté des réels effets positifs du numérique, on observe certains « mésusages » des technologies numériques. Si le numérique ne peut à l'évidence résoudre tous les problèmes de l'apprentissage et de l'enseignement, comment permettre au système éducatif de tirer parti de ses avantages et de ses atouts ?

Il faut peut-être commencer par se demander ce que font les jeunes avec les tablettes, les ordinateurs et les « ordi-phones ». J'ai mené une enquête pendant huit ans au collège Bertone à Antibes, auprès d'un millier d'élèves, ainsi qu'une enquête de proximité¹ qui montre combien les mésusages sont importants et s'inscrivent dans ce que j'appellerais une « génétique du numérique adolescent et pré-adolescent ». Parmi les mésusages, il y a évidemment aussi le cyber-harcèlement, qui est étudié par Catherine Blaya – 40 % des élèves en sont victimes –, l'exposition de soi qui devient illimitée et permanente, avec un difficile droit à l'oubli, etc. Si les mésusages sont prédominants, pourquoi l'éducation nationale persiste-t-elle dans une approche « magique » du numérique ? On croit que le numérique va résoudre tous les problèmes. On a investi énormément d'un point de vue financier, technologique, humain, pour la formation des personnels, pour un résultat qui me paraît limité, comme le montrent les résultats des élèves français aux enquêtes PISA. On se heurte à un imaginaire directement issu de la science-fiction américaine, alors qu'aux États-Unis, on assiste actuellement à un retour de balancier peut-être excessif, du reste. Larry Cuban et Todd Oppenheimer ont démontré que les progrès constatés dans les apprentissages grâce à l'introduction du numérique ne dureraient pas. Après trois à six mois d'intérêt pour la nouveauté, les élèves retombaient dans une dépendance à un numérique plutôt ludique, et non un numérique de travail. Certains États, comme le Maine et la Virginie, qui étaient à la pointe du numérique, l'ont abandonné pour l'enseignement scolaire. Certaines écoles privées de la Silicon Valley interdisent les écrans, y compris au domicile. Les parents ingénieurs expliquent que leurs enfants auront ainsi la possibilité d'acquérir les outils conceptuels leur permettant de hiérarchiser et de maîtriser les informations qu'ils trouveront plus tard sur Internet.

L'opposition marquée entre l'utilisation des technologies par les adolescents, pour leur vie adolescente, et ce qu'on veut en faire en éducation est connue depuis très longtemps. Les technologies sont utilisées par les jeunes pour des raisons générationnelles, des constructions identitaires personnelles et collectives dans un rapport de consommation et d'immédiateté, le contraire des visées de l'école. Utiliser les mêmes technologies pour des objectifs aussi opposés est forcément très complexe. Je dis souvent que les technologies utilisées à l'école visent à ralentir le temps, alors que toute la vision adolescente est de rechercher un effet d'accélération du temps. C'est une responsabilité que doit assumer l'école. Les chercheurs américains, notamment Cuban, ont effectivement mené il y a déjà 25 ans des études très

intéressantes, mais qui portent essentiellement sur les technologies éducatives et qui n'abordent pas d'autres aspects importants comme la culture informatique, etc.

En ce qui concerne les mésusages, il me semble normal qu'ils existent. Le copier/coller est la base de toute éducation, puisqu'il faut reprendre et s'approprier ce que d'autres ont fait. Le mésusage, c'est de s'arrêter au copier/coller, de ne pas faire de réécriture. Qui en est responsable ? Certainement pas l'enfant, mais le système qui ne l'oblige pas à aller plus loin. Certainement pas la technologie, mais le système qui ne s'est pas encore donné les bons moyens de prendre en compte ces mésusages, de les faire évoluer. On ne peut pas apprendre sans détourner. Apprendre à détourner les technologies pour en faire autre chose, c'est souvent un élément fondamental de l'apprentissage. L'école doit peut-être aider les élèves à opérer un certain nombre de détournements dans des conditions un peu sécurisées, afin d'aller plus loin, de découvrir des activités différentes de celles qu'ils voient à l'extérieur de l'école.

Je voudrais enfin rappeler que le passage de la plume d'oie à la plume de fer, au XIX^e siècle, a permis qu'il y ait moins de technicité requise pour commencer l'écriture. Pour l'apprentissage de l'arithmétique, cela a changé l'ordre des activités menées durant la scolarité. On a pu commencer à faire des calculs écrits dès le début, et cela a révolutionné cet apprentissage. Ce changement n'apparaît pas au niveau des individus, mais à une échelle plus large et curriculaire, c'est-à-dire dans l'organisation et la succession des activités d'apprentissage.

Les mésusages qui ont été cités – plagiat, cyber-harcèlement, exposition de soi – sont le résultat de problèmes éducatifs. Pour les résoudre, il existe en gros deux solutions: la première est l'interdiction ou l'exclusion de toute technologie dans le périmètre d'un établissement scolaire ou dans les pratiques d'enseignement et d'apprentissage; la seconde est l'éducation des élèves. En France, la responsabilité du système éducatif à cet égard a été réaffirmée dans la Loi sur la refondation de l'école de juillet 2013, qui stipule expressément une éducation aux médias et à l'information dès l'école primaire, avec un renforcement au collège, pendant le début de l'adolescence, suivie d'une préparation encore plus importante au lycée, et enfin dans l'enseignement supérieur. La question qui se pose est de savoir si l'on apprend mieux avec le numérique ou si l'on doit organiser des dispositifs d'apprentissage dans une société qui est de plus en plus numérique. Selon l'angle retenu, les raisonnements sont tout à fait différents. Il est certes intéressant de repérer les mésusages et les problèmes, mais il importe tout autant d'y associer une réflexion sur la responsabilité du système éducatif à cet égard.

Avec ce terme « mésusage », il me semble que l'on confond support et contenu et tout ce qui résulte de l'apprentissage progressif. Un élève ou un enfant fait des découvertes par lui-même : il fait des erreurs, essaie de détourner le support, de se l'approprier par des moyens qui lui sont propres et pour une utilité qui lui est propre. Je prends l'exemple de la lecture. Un élève qui apprend à lire commence à déchiffrer, à s'approprier le support, puis il l'utilise et crée des mots en associant les sons. Son effort porte d'abord sur l'activité de lecture en tant que telle, il n'a pas forcément conscience du sens de ce qu'il lit. L'intérêt de l'école est de lui montrer que, au-delà du simple fait de lire, il existe de la connaissance, du savoir, des compétences qui vont l'amener, petit à petit, à élargir son champ de compétences. Il n'apprend pas à lire parce

qu'il faut lire, mais parce que la lecture lui permet de s'approprier d'autres connaissances. Il est important de considérer Internet et l'informatique comme des outils, ce qui replace l'école au centre de sa mission. Dans une société qui utilise et banalise l'informatique, l'école doit donner aux élèves, aux enfants, la possibilité de l'utiliser au mieux.

Selon une enquête réalisée en Italie sur des enfants âgés de 11 ou 12 ans, les garçons passent en dehors de l'école six à sept heures par jour devant un écran et les filles entre cinq et six heures. Il existe un monde médiatique, avec des valeurs qui ne sont pas celles de l'école et qui prédominent sur le message de l'école, qui est dispensé 27 heures par semaine.

12 De plus, l'introduction du numérique accentue un défaut de l'école, qui est de conceptualiser l'enseignement en oubliant complètement le corps, c'est-à-dire les sensations qui sont à l'origine des émotions. Or ce sont les émotions qui structurent la pensée. Avec le numérique, on accentue le fait qu'on utilise un seul sens, c'est-à-dire la vue. Le sens tactile, l'odorat ont complètement disparu des apprentissages.

13 Enfin, la France est devenue le deuxième producteur au monde de jeux vidéo. C'est un secteur qui rapporte trois milliards d'euros de bénéfices et qui a créé 60 000 emplois. Les Français sont en Europe, avec les Anglais, les premiers utilisateurs de jeux vidéo. L'école travaille dans cet environnement et ce contexte explique selon moi la difficulté de changer le regard des jeunes sur le numérique. Je rappelle qu'on espérait déjà une révolution pédagogique avec l'apparition de la télévision, il y a une quarantaine d'années.

ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК В СЕГОДНЯШНИМ МИРЕ

*Мухаммадиева Н.,
БухДУ*

В настоящее время, когда контакты с другими странами становятся всё теснее, знания иностранных языков играют важную роль. Современный человек должен хорошо знать, по меньшей мере, один иностранный язык, потому что взаимопонимание между народами имеет большое значение для мирного сотрудничества. Без знаний иностранных языков это сотрудничество почти невозможно. Сейчас развиваются различные формы международного общения: международные встречи, выставки, спортивные мероприятия, совместный бизнес. Обмен школьниками и студентами тоже сюда относится. Это хорошие предпосылки для изучения иностранных языков [1].

Нелегко в совершенстве овладеть иностранным языком, нужно усердно работать. Но кто хочет, тот добьётся. Люди изучают языки по разным причинам. Одним они нужны в работе, другим для путешествий за границу, третьи делают это из интереса. Но в любом случае знания языков обогащают нашу жизнь. Они делают возможным чтение иностранной литературы, общение с представителями других стран, знакомство с их культурой, экономикой, наукой и техникой. Есть много профессий, где нельзя обойтись без иностранных языков.

Это, конечно, переводчики, учителя иностранных языков, дипломаты, журналисты, учёные, экскурсоводы, но также и стюардессы, водители такси, водители грузовиков, таможенники. Продавщица в универмаге или официант в

ресторане должны обязательно владеть иностранным языком, чтобы понять иностранца. Закройщица, которая хорошо знает иностранный язык, может в своей работе пользоваться заграничными журналами мод. Также на предприятиях, где применяется заграничное оборудование, чтобы уметь прочесть инструкцию по эксплуатации и обслуживать это оборудование. Бизнесмены, спортсмены, артисты, которые часто бывают в командировках за границей, тоже не могут обойтись без иностранного языка. Иностранные языки расширяют наш мир, делают нас богаче. Иоганн Вольфганг Гёте сказал однажды: «Человек столько раз человек, сколько иностранных языков он знает».

В новом XXI веке, провозглашённом Юнеско веком полиглотов, весь цивилизованный мир стремится к открытости и взаимопониманию.

В связи с этим возрастает роль и значимость изучения иностранных языков. Важным становится воспитать личность, которая будет способна, и будет желать участвовать в межкультурной коммуникации на иностранном языке. Основой бытия и мышления нового XXI века является диалог различных культур. У иностранного языка, как учебного предмета, есть весьма эффективные средства в воспитании человека культуры. Важно использовать весь воспитательный потенциал иностранного языка, как межпредметной дисциплины, способствующей приобщению учащихся к мировой культуре и тем самым, к лучшему осознанию своей собственной культуры.

Немаловажную роль в формировании представлений о культуре страны изучаемого языка играют факторы родной социокультурной среды. Любая национальная культура - неотъемлемая часть мировой культуры.

Иностранный язык исторически является важнейшим предметом общеобразовательного обучения. Но его воспитывающие и развивающие резервы до сих пор не изучены. Представления о нем сводятся к тому, что изучение иностранного языка закладывает основы иноязычной речевой деятельности. Язык является дополнительным средством расширения кругозора. Совместно с изучением родного языка иностранный помогает лучше понять общечеловеческие способы речевого общения, способствует воспитанию нравственных качеств личности [2].

Одним из самых распространенных иностранных языков является английский язык. В современном мире английский язык занимает значимое место в жизни людей. Еще совсем недавно он был просто иностранным языком, сейчас же – это международный язык. Без преувеличения можно сказать, что английский язык порою определяет судьбы людей и даже спасает жизни. В чем же его ценность? Все просто: во всем мире изучению английского языка придается больше значение. Каждый взрослый человек мечтает овладеть английским языком хотя бы на разговорном уровне, а детей начинают обучать еще с младшего возраста. Что же нам дает знание английского языка?[3]

Во-первых, карьера. В нынешнее время для того, чтобы устроиться на престижную работу в крупную организацию необходимо свободное владение языком. Это связано с тем, что крупные организации имеют среди поставщиков и покупателей иностранные предприятия, а, соответственно, ведение переговоров, заключение сделок, подписание контрактов и т.д. осуществляется

именно на международном языке – английском. Зная английский язык, вы всегда сможете свободно общаться с деловыми партнерами, принимать участие в международных конференциях, читать международные журналы и газеты о бизнесе.

Во-вторых, поездки за границу. Всем известно, что современный человек, являющийся личностью разносторонней и любознательной, стремится в своей жизни посетить как можно больше различных стран и городов, познакомиться с культурой и обычаями других народов. А как это возможно без знания английского языка? В туристических странах, будь то Турция или Испания, каждый, кто работает с туристами, владеет английским языком. Это повышает качество обслуживания приезжающих, а, значит, привлекает все больше туристов. Да и сами туристы, будучи в чужой стране, чувствуют себя намного увереннее, зная, что, в случае чего, всегда смогут объясниться с местными жителями, спросить дорогу, уточнить местоположение чего-либо и т.д.

В-третьих, учеба. Знание английского языка дает возможность обучаться в престижных зарубежных университетах, поскольку является одним из важнейших критериев отбора при поступлении. Имея диплом, скажем, Лондонского университета выпускник получает возможность устроиться на работу по всему миру, ведь, как известно, диплом, выданный в Соединенном Королевстве, один из самых конвертируемых.

Далее, книги. Читая иностранные книги в оригинальном контексте, без перевода, можно получить намного большее удовольствие от прочтения, так как перевод, как правило, является не совсем точным, зависит от субъективного мнения и навыков переводчика, и не способен передать истинные мысли и эмоции, которые вложил автор. А техническая литература? Знание языка открывает большие возможности для изучения интересующей техники и оборудования. То же касается и компьютерных программ и приложений.

И наконец, владея английским языком, у вас всегда есть возможность беседовать с интересными людьми на различные темы на английском языке, заводить полезные знакомства и обретать новых друзей среди иностранцев.

Итак, о роли английского языка в мире можно говорить бесконечно. Несомненным является тот факт, что английский язык является важной составляющей в жизни современного человека, и каждый сможет найти для себя не одну причину для его изучения и совершенствования навыков.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Волков Ю.Ф. Введение в гостиничный и туристический бизнес: Учебное пособие. Ростов н/Д, 2009.,с 89
2. Лайко М.Ю., Родионов А.С. Еще раз о кадрах. Кто прав: отели или вузы? // Парад отелей. 2009.,с34
3. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Туризм как вид деятельности. М.: Финансы и статистика, 2011.,с 27
4. knowledge.allbest.ru/languages

SAYYOHLIK AGENTLIGI SAYTINI YARATILISHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI

*Ergashev A.A., Husenov M.Z.,
Buxoro davlat universiteti*

Hozirgi glabollashuv jarayonida hech bir sohani internet texnologiyalarisiz tasavvur qila olmaymiz. Axborotlashtirish va kompyuterizatsiyalash davrida sayyohlik sohasida axborotni sotish va uni uzatish bo'yicha yangicha yondoshuvlarga olib keldi.

Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan har bir turfirma uchun zamonaviy AKT vositalarini joriy etish va ularni nafaqat ichki balki tashqi bozorda sotish uchun muhim manbalardan biri desak adashmaymiz.

Aksariyat mahalliy sayyohlik tashkilotlari bugunga kelib o'z internet saytlariga ega, zero aynan internet saytlari turmahsulotni sotish uchun asosiy manba hisoblanadi.

Sayyohlik agentligi sayti yuqori sarmoyaga ega bo'lgan va yangi mijozlarning doimiy oqimini ta'minlaydigan samarali ish vositasidir. Boshqa tomondan, sayt orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish turizm faoliyatida o'rtacha vaqtni 2 soatgacha kamaytirish imkonini beradi. Agar turfirmalar tezda ko'plab mijozlarga ega bo'lishlari va daromadlarini oshirishni maqsad qilsalar eng avvalo ularni turistik sayt yaratish masalasi tashvishga solishi kerak.

Sayohat agentligi uchun saytda qanday funktsiyalar bo'lishi kerak?

Esda qolarli va individual. Bu erda birinchi navbatda dizayn haqida gap boradi. Tayyor shablonni qo'llash eng kamxarj variantidir. Albatta, hech qanday dizayner kichik xizmat haqiga yangi noyob dizaynni yaratishmaydi. Lekin oldindan tayyorlangan andozalar yordamida, biznes o'ziga xosligini ifodalash uchun mijozlar oqimini olib kelishi juda qiyin.

Ammo har qanday holatda, sayohat agentligi saytining dizayni axborot mazmuniga nisbatan ikkinchi darajali rol o'ynaydi.

Informativlik va foydalilik. Foydalanuvchilar ma'lumot uchun saytga tashrif buyurganda ularni imkon qadar ko'proq ma'lumot berishga harakat qiling.

Ekskursiyalar, tarixiy yodgorliklar haqida ma'lumotlar, mehmonxonalar, turli mamlakatlar haqidagi maqolalar, hudud haqidagi ma'lumotlar, urf odatlari, sayohatga oid maslahatlar, odatiy savollarga javoblar. Eng muhimi – ma'lumot berishda mas'uliyat bilan yondashish. Saytga eng kerakli ma'lumotlarni berish faqat foydalanuvchilar tomonidan turfirmaga ishonch darajasini oshiradi.

Shuningdek yaratilgan sayt qidiruv tizimlari(Google, Yandex, Bing, WWW.UZ) mexanizmlari tomonidan indekslanishi uchun foydalanuvchilarga unikal va foydali ma'lumotlarni berib borish kerak.

Turfirma saytida sayohatlar katalogida mehmonxonalar, valyuta kurslari, dam olish, ob-havo, Gismeteo plaginlari, rss va boshqalarni foydalanish mumkin.

TuShunarlilik. Sayt ko'p tilli qilinishi rejalashtirish juda katta foyda berishi mumkin. Saytning Facebook, Instagramm, Twitter va boshqa ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari sohadagi yangiliklar va zaruriy ma'lumotlarni tarqatishda muhim vositalaridan biri bo'lib xizmat qilishi kerak. Aynan ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar sayyohlik xizmatlarini dunyo bozoriga targ'ib qilish, turistlar oqimini yanada kengaytirish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Unda tashkillashtiriladigan

yangi bo'limlar, texnik jihatdan takomillashtirganligi sayt turistlarda ko'plab qo'layliklar yaratdi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, zamonaviy sayyohlar dam olish kunlarini zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Ushbu saytlarda turistlar uchun ushbu hududlar to'g'risidagi barcha ma'lumotlar, yo'l ko'rsatkichlar, mobil ilovalari, tarixiy obidalarning to'liq tasniflari turli tillarda berilishi lozim.

Qulaylik. Sayohat agentligi saytini loyihalashda maqsad mohiyati yangi sayohat maskanlarini izlash bo'lishi kerak, bu mantiqan, chunki ko'pchilik sayyohlar aynan Shuning uchun keladi. Ammo foydalanuvchilar uchun boshqa bo'limlarga va funktsiyalarga ham osonlik bilan kirishni ta'minlash muhimdir. Shuning uchun navigatsiya oddiy va tuShunarli bo'lishi kerak.

Ijtimoiylik. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar ajoyib resurs va reklama xarakteriga ega va web-saytni yaratishda foydalanmoqchi bo'lgan ko'plab yangi xususiyatlarni ochib beradi. Ijtimoiy tarmoqlar uchun "Like" tugmasining qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarmoqlar orqali avtorizatsiya funksiyasini yaratish foydalanish uchun qulaylik yaratadi.

"Like", "Share" va "Subscribe" tugmalari sizning original materiallaringizni ijtimoiy tarmoqlarda ommalashishga va takrorlanishiga yordam beradi.

Saytda e'lon qilinadigan barcha ma'lumotlarni smartfon va planshetlar orqali o'qishlari imkoniyatini yaratish mumkin. Bu kabi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi saytga kiruvchilar sonini sezilarli oshishiga sabab bo'ldi.

iOS va Android platformalarning mobil qo'rilmalari uchun axborot ta'minotlarning tashkil etilishi, mobil ilovalardagi, tarixiy obidalarning tarixi, ularning arxitekturasi o'ziga xosliklar, muzeylar, milliy taomlar tayyorlanish uslublari, turlar va sayyohlik kompaniyalarining yagona foto-galeriyalari to'g'risidagi ma'lumotlar App Store va Google Play Marketlarga joylashtirilishi mumkin.

Bugungi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha Vazirliklar bilan hamkorlikda davlat interfaol onlayn xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hukumat portalidagi sayyohlik bo'yicha ma'lumotlarni doimiy ravishda yangilab borish bo'yicha ham zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

AKTni takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar mamlakatimizda ushbu sohada ko'rsatilayotgan xizmatlarni sifatini oshirish bo'yicha xizmat qilib, mamlakat sayyohlik salohiyati to'g'risida jahon ahlining xabardorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Нилуфар Сафарова. Цепная реакция туризма // Журнал. Экономическое обозрение" [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://review.uz/ru/article/855>.
2. <http://www.28travel.com/turisticheskie-sauti-dlia-samostoyatelnix-pyteshestviy/>
3. Norchayev.A.N. "Xalqaro turizm rivojlantirishning iqtisodiy o'sishga ta'siri" . Nomzodlik dissertatsiyasi. TDIU 2010 y. 120 b
4. Fayziyeva Sh. R. "O'zbekistonda turizm rivojlanishining informatsion mexanizmini takomillashtirish". UzMU. Toshkent, 2016 y

5. Rochelle Turner. The Economic Impact of Travel & Tourism //UK. – 2013. –P.1.
6. UNWTO Tourism Highlights 2013 Edition, unwto.org/publication

ИННОВАЦИОН ФАОЛЛИК ВА ТУРИЗМНИНГ МУСТАКИЛ СОҲА СИФАТИДА РИВОЖЛАНИШИ

*Норова К.,
Бухоро Банк коллежи*

Дунеда интеграция жараёнининг такомиллашуви ва замонавий илмни кўп талаб қилувчи технологияларга асосланган ишлаб чиқаришнинг устувор ривожланиши ҳар қандай мамлакатнинг иқтисодий ўсиши ва турмуш сифати ошишининг зарурий шарти – инновацион фаолликдир. Инновацион фаоллик, ўз навбатида, давлатнинг иқтисодий ва илмий-техник имкониятлари, инновацияга оид сиёсати ва салоҳияти, жамиятнинг маънавий ҳолатига боғлиқ. Бу борада иқтисодиётни модернизациялаш шароитида туризм соҳасини инновацион ривожлантиришга алоҳида халқаро эътибор қаратилаётгани аҳамиятга молиқдир.

Туризмга алоҳида тармоқ сифатида қарайдиган бўлсак, уни ташкил этувчи корхоналар йиғиндиси қуйидаги асосий, ўзига хос хусусиятлар билан тавсифланади:

– туризм бир хил фаолият тури билан шуғулланувчи иқтисодий жиҳатдан мустақил корхоналар йиғиндиси;

– туризмнинг мустақил тармоқлиги миллий иқтисодиётнинг бошқа тармоқлари билан барқарор иқтисодий алоқаларни ўрнатиши билан тавсифланиши;

– туризм соҳаси ривожланиши сайёҳларни жойлаштириш, овқатлантириш, уларга хизмат кўрсатувчи транспорт соҳасини, дам олиш тизимларини яратиш, соғломлаштириш, зиёрат қилиш, спорт соҳаларини кенгайтириш масалаларини ҳал қилишга қаратилиши;

– мазкур соҳада фаолият юритадиган кадрлар малакасининг ўзига хослиги, улар бажарадиган ишларнинг бошқа тармоқларда такрорланмаслиги;

– хўжалик бошқаруви органи мавжудлиги, давлат ва нодавлат уюшмаларга бирлашганлиги.

Туризм соҳасининг инновацион ривожланишини таҳлил қилишда унинг иқтисодиёт таркибида қандай функцияларни бажаришини инобатга олиш лозим. Тадқиқотлар кўрсатишича, туризм иқтисодиётни модернизациялаш шароитида муайян бир функцияларни бажариш билан бирга, унга қуйидагича таъсир этади. Булар:

– туристик маҳсулотлар ишлаб чиқаради;

– аҳоли бандлигини таъминлайди;

– миллий даромадни яратишда иштирок этади;

– минтақалар ривожланишига таъсир кўрсатади;

– тўлов балансини барқарорлаштиришга ҳисса қўшади;

– ўрта синф шаклланишида аҳамият касб этади.

Туризмнинг миллий иқтисодиётга таъсир даражасини баҳолашда бажарадиган функциясининг нечоғлиқ самарали эканлиги ва мавжуд

эҳтиёжларга мослиги масалаларини аниқлаш тақозо қилинади. Шу туфайли уларнинг ҳар бирини қисқача кўриб чиқамиз.

Ишлаб чиқариш функцияси. Туристик ташкилотлар туристик маҳсулот ва хизматларни ишлаб чиқариш ва сотиш орқали мамлакат ЯИМни кўпайтиришга ҳисса қўшади. Туризмнинг ушбу хизмати мамлакат ЯИМда унинг улуши неча фоизни ташкил қилганлиги билан ўлчанади.

Аҳоли бандлигини таъминлаш функцияси. Туризмни ривожлантириш бевосита аҳолининг иш билан бандлигига боғлиқ. Чунки ушбу соҳада инсон иштироки муҳим аҳамиятга эга. Соҳада аҳолининг қанча қисми бандлиги ўша давлат иқтисодиёти қандай ҳолда ривожланганига, туристик салоҳиятига ва улардан қай даражада самарали фойдаланилаётганлигига боғлиқ. Ҳозирги пайтда ривожланган давлатларда меҳнатга лаёқатли аҳолининг беш фоизи туризм соҳасида фаолият кўрсатмоқда.

Мамлакатимиз туристик салоҳиятини таҳлил қиладиган бўлсак, мазкур соҳада бандлик йилдан-йилга ошиб бораётгани кузатилади. Туризм соҳасида фаолият кўрсатаётган ходимларни ҳисобга олишда бевосита бандлар билан бирга билвосита бандларни ҳам инобатга олиш лозим. Масалага шу жиҳатдан ёндашганда туризмда банд аҳолини қуйидаги тўртта тоифа бўйича ўрганиш мақсадга мувофиқ. Буларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

- туризм соҳасида бевосита бандлик;
- туризм соҳасида билвосита бандлик;
- туризмга ўз иш жойидан туриб хизмат қилувчи соҳаларда фаолият кўрсатувчи ходимлар бандлиги;
- туристик объектлар ва инфратузилмалар қурилишидаги бандлик.

Миллий даромад яратиш. Туризм соҳасида фаолият юритиш натижасида банд аҳолига ҳақ тўлаш, маҳаллий ҳамда давлат бюджетига солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларни тўлаш орқали миллий даромад яратилади. Айрим давлатлар бюджети шаклланишида туризмдан келиб тушадиган даромадлар салмоқли миқдорни ташкил этади. Бундан ташқари, хорижий сайёҳларга хизмат кўрсатиш эвазига валюта захиралари шакллантирилиб, катта ҳажмдаги ишларга йўл очилади. Туризм келажакда бизда ҳам иқтисодиётга катта фойда келтирадиган соҳага айланиши кўзда тутилмоқда.

Шу билан бирга, қишлоқ хўжалигини ривожлантиришда ҳам ўзига хослик мавжуд. Шу туфайли бундай жойларда экологик туризмни, агротуризмни, қишлоқ туризмни ривожлантириш мумкин. Сайёҳларга маҳаллий аҳолининг яшаш тарзи, миллий анъаналарини кўриш, табиат қўйнида дам олиш қизиқ, албатта. Бу эса, ўз навбатида, маҳаллий аҳоли турмуш тарзини яхшилашга олиб келади, яъни янги иш ўринлари яратилади, туризм инфратузилмаси ва сервис хизматлари ташкил этилади. Энг муҳими, хизмат соҳасидаги бандлик ҳисобига қишлоқда меҳнатнинг характери ҳам ўзгариб, такомиллашиб боради. Авваллари фақат аграр меҳнатга мослашган қишлоқ аҳолиси энди ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатишнинг илғор усуллари билан шуғулланиш имкониятига эга бўлади.

Инновацион жараёнлар туризм соҳасида глобаллашув тенденцияларини чуқурлаштириб, жаҳонда бизнеснинг янги фалсафасини – инновацион ривожланиш заруриятини келтириб чиқарди. Бугунги кунда туристик

ташкilotларнинг инновацион фаолиятига давлатнинг таъсир кўрсатиш механизмлари қаторига қуйидагилар киритилмоқда:

– инновацион жиҳатдан фаол бўлган ташкilotларга солиқ имтиёзларини тақдим этиш;

– махсус илмий-техникавий, солиқ ва молия-кредит сиёсатини амалга ошириш;

– туризм соҳасига маҳаллий ва хорижий инвестицияларни жалб қилиш учун қулай шарт-шароитларни яратиш;

– амортизация сиёсатини такомиллаштириш;

– туризм фанини ривожлантиришнинг устувор йўналишларини белгилаш.

Туризм соҳасини инновацион ривожлантириш туристик маҳсулотнинг янгисини яратиш ёки мавжуд маҳсулотни ўзгартиришга, транспорт, меҳмонхонага оид ва бошқа турдош хизматларни такомиллаштиришга, янги бозорларни ўзлаштиришга, илғор ахборот ва телекоммуникация технологияларини ҳамда ташкилий-бошқарув фаолиятининг замонавий шакллари амалиётга татбиқ этишга йўналтирилган бўлади.

Туризм соҳаси бир қанча ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, улардан тўғри фойдаланиши инновацион ривожлантириш учун қулай имкониятларни тақдим этади. Туризмнинг мақсади ва кўринишларини эътиборга олиб тақлиф қилинган модел тўртта асосий омилнинг алоҳида акс топишини тақозо қилади: сайёҳнинг ҳордиқ чиқариши ва янги таассуротларга эга бўлиши, соғломлаштирувчи ва рекреацион, саёҳат пайтидаги ижтимоий мулоқотлар, малакавий-бизнес.

Туризм соҳасини инновацион ривожлантириш омилларининг тақлиф этилган модели сайёҳларнинг талаб ва эҳтиёжини қондириш манбаси сифатида туризм хизматлар бозорини ривожлантиришга замин тайёрлайди ва айнан шу омиллар туризм соҳасини инновацион ривожлантиришда янги турлар, ғоя ва имкониятлар кашф этилишининг сабабчиси ҳисобланади.

Ўзбекистонда туристик-рекреацион ресурслардан самарали фойдаланиш асосида миллий туристик хизматлар бозорининг ҳудудий тузилмасини янада такомиллаштириш талаб қилади. Равшанки, Ўзбекистон минтақаларида туристик кластерлар шакллантирилиши туристик-рекреацион ресурслардан тўлиқ фойдаланиш замирида янги сайёҳлик фирмалари очилишига ва мавжудлари ишини янада фаоллаштиришга туртки беради ва янги турдаги туристик маҳсулотлар яратилишига асос бўлади. Туризм соҳасини инновацион ривожлантириш фаолияти зарурий омил ҳисобланиши ҳамда бугунги кунда ҳар қандай туристик фирманинг асосий мақсади рақобат шароитида истеъмолчини ўз хизмат турларига жалб қилишни тақозо этади.

Иқтисодийни модернизациялаш шароитида туризм соҳасини инновацион ривожлантиришда кластер иштирокчиларининг фаолиятини мувофиқлаштириш даражасини оширишга кенг имкониятлар мавжуд. Бу имкониятлардан самарали фойдаланиш мақсадида тадқиқотда туризм соҳаси субъектлари фаолиятини муайян мақсадга йўналтирилган ҳолда мувофиқлаштириш воситаларини кўрсатиб бериш мақсад қилиб олинган. Тақлиф этилаётган моделнинг моҳияти минтақадаги бетакрор туристик ресурслардан самарали фойдаланган ҳолда иқтисодийни модернизациялаш шароитида туризм соҳасини инновацион

ривожлантириш натижасида сайёҳлар сонини изчил равишда ошириб, мамлакатимиз иқтисодий ривожига катта ҳисса қўшишдан иборатдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони.

3. М.А.Мирзаев, М.Т.Алиева. Туризм асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2011 йил.

ИҚТИСОДИЁТДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ

*Набиева Ш.,
Бухоро Банк коллежи*

Иқтисодиётда туризм соҳасини инновацион ривожлантиришнинг истиқболдаги мақсади республиканинг миллий-маданий тикланиши, миллий иқтисодиётнинг устувор тармоқларидан бири сифатида туризмни ривожлантириш борасидаги ижтимоий-иқтисодий ва хўжалик масалаларини ҳал қилишдир. Туризм соҳаси олдида турган асосий вазифа Ўзбекистоннинг табиий иқлими, рекреацион ижтимоий-иқтисодий ва тарихий-маданий салоҳиятини ҳисобга олган ҳолда ички ва халқаро туризм эҳтиёжини қондиришга йўналтирилган юқори рентабелли туристик тармоқни яратишдан иборат.

Халқаро туризм бозоридан мустаҳкам ўрин олиши учун Ўзбекистонда сайёҳларга юқори даражадаги қулайлик яратилиши, уларга хизмат кўрсатишнинг барча турлари бўйича стандартлар тизими, хавфсизлигини таъминлаш кафолатлари юзага келтирилиши шарт. “Туризм тўғрисида”ги қонун, Ўзбекистон Республикаси Президенти фармонлари ва Вазирлар Маҳкамаси қарорларидан келиб чиққан ҳолда Ўзбекистонда туризмнинг асосий йўналишлари қуйидагилардан иборат:

– давлат манфаатлари ва Ўзбекистон Республикасининг тегишли қонунлари, халқаро туристик амалиёт меъёрларини ҳисобга олган ҳолда туристик тармоқнинг устувор ривожланишини таъминлаш;

– келгусида туризмнинг янада ривожланишига кўмаклашадиган қонун ҳужжатлари ва бошқа меъерий ҳужжатларни тайёрлаш;

– тармоқнинг ташкилий тузилишини, уни бошқариш ва фаолиятини тартибга солишни такомиллаштириш;

– туризмнинг ривожланган инфратузилмасини яратиш;

– туристик-рекреацион зоналар, ҳудудлар ва туристик марказларни ўзлаштириш;

– ахборот-реклама фаолияти йўналишларини белгилаш, маркетинг ва экскурсия-методик хизматларни ташкил қилиш;

– имтиёзли равишда маблағ билан таъминлаш ва кредит бериш йўли билан

туристик фаолиятни рағбатлантириш;

– тармоқни малакали кадрлар билан таъминлаш ва илмий потенциални шакллантириш;

– кадрлар тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини яратиш;

– табиатдан фойдаланиш ва атроф-муҳитни сақлаш самарасини таъминлаш заруратини ҳисобга олган ҳолда туристик фаолият юритиш тамойиллари ва механизмни ишлаб чиқиш.

Ўзбекистонда туристик фаолият юритишда қуйидаги устувор жиҳатларга катта эътибор берилиши назарда тутилган:

– туризм соҳаси фаолият кўрсатишини ҳуқуқий таъминлаш ва халқаро-ҳуқуқий фаолият;

– туризм соҳасини ривожлантиришнинг давлат томонидан рағбатлантирилиши;

– туризм фаолиятини бошқариш ва тартибга солиш тизимини такомиллаштириш;

– ички ва халқаро туризмни ривожлантириш бўйича туристик фаолият йўналиши;

– ахборот-реклама ва маркетинг фаолияти;

– туризмнинг моддий-техник базасини ривожлантириш;

– туризм соҳасида фаолият кўрсатаётган ходимларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш, уларнинг манфаатларини ҳимоя қилиш;

– атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, табиий ва тарихий-маданий ресурслардан фойдаланиш. Туризм соҳасини инновацион ривожлантиришни тезлаштириш жараёни бозор муносабатларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилиши керак. Халқаро тажриба шундан далолат берадики, айнан бозор туристик хўжалик фаолият кўрсатиши учун энг мақбул иқтисодий муҳит ҳисобланади. Ўз навбатида, туристик тармоқ корхоналари, бевосита истеъмолчига мўлжал ола туриб, бозор кенглиги шаклланишига фаол кўмаклашиши керак.

Туризм фаолиятининг самарадорлигини ошириш, туризм инфратузилмасининг мамлакатни иқтисодий-ижтимоий ва маданий ривожлантиришнинг бошқа устувор соҳалари билан ўзаро алоқасини мустаҳкамлашга имкон беради.

Туризм соҳаси айти пайтда чегарадош тармоқларга юқори талаблар қўяр экан, фақат технологияларни такомиллаштириш ва меҳнатни ташкил қилишни яхшилашгагина эмас, балки хўжалик юритишнинг энг самарали шакллари жорий қилишга, янги иш жойларини яратишга ҳам кўмаклашади.

Жамоа ва хусусий мулкчиликдаги кичик ва ўрта корхоналар сонининг кўпайиши катта марказлашган маблағларни жалб қилмаган ҳолда туризмни ривожлантиришга имкон беради. Айнан шундай ёндашув хорижий сармоялар кириб келишига, хорижий фирмалар томонидан 1-2 йил ичида сайёҳлик объектлари ва марказлари қурилишига, шунингдек, уларнинг тез муддат ичида (5-6 йил) ўзини қоплаб кетишига кўмаклашади.

Ўзгарувчан давлат солиқ сиёсати юритиш, туризм инфратузилмасини ривожлантиришга инвестицияларни жалб қилиш мамлакат бюджетига

тушумларнинг 3 баробар кўпайишига имкон беради.

Ўзбекистонда туризм соҳасини инновацион ривожлантириш мамлакат иқтисодиётини мустаҳкамлашга, бақувват туристик тармоқ яратишга, туризм инфратузилмасига давлат бошқаруви таъсири кучайтиришга, аҳоли турмуш даражасини оширишга, экологик хавфсизликни таъминлашга, тарихий ва маданий ёдгорликларни сақлаб қолишга, табиатни муҳофаза қилиш фаолияти даражасини, шунингдек, жамиятнинг маънавий салоҳиятини оширишга хизмат қилади.

Хизматлар соҳасини ривожлантириш ва бу борада аҳолининг иш билан бандлик даражаси ўсиб бориши саналади. Чунки мазкур соҳа ходимлари сайёҳларни кутиб олиш, хизмат кўрсатиш, бўш иш ўринлари яратиш, чет эл валютаси кириб келишини кўпайтириш, туристик хизмат кўрсатувчи тармоқларга даромадлар олиш бўйича бир қанча омилларни ҳаракатга келтиради.

Туристтик ресурслардан тўғри фойдаланиш ўша ҳудуд иқтисодиётининг ўнгланишига, пировардида турли солиқларни тўлаш орқали маҳаллий ва давлат бюджетини тўлдиришга ижобий таъсир кўрсатади. Ҳозирда муайян давлатни ривожланган мамлакатлар қаторига кўшишда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасининг мамлакатда яратилаётган ЯИМдаги улуши 65 фоиздан юқори бўлиши асосий мезон бўлиб қолмоқда. АҚШ иқтисодиётида яратилган ЯИМ таркибида хизмат кўрсатиш соҳаси улуши 78, Японияда 62 фоизни ташкил этади. Шу сабабли мамлакатимизда мазкур соҳани жадал ривожлантиришга алоҳида эътибор бериб келинмоқда. Ўзбекистон Президентининг “2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чоратадбирлар тўғрисида”ги қарори давлатимиз томонидан туризм соҳасида амалга оширилаётган сиёсатнинг мантиқий давоми бўлиб, туризм соҳасини жадал ривожлантириш учун қулай иқтисодий, маъмурий ва ҳуқуқий муҳитни яратган ҳолда, энг самарали тартибни жорий этиш, ҳудудларнинг иқтисодий салоҳияти ва даромадлари базасини кенгайтириш, янги иш ўринлари яратиш, юртимизга келадиган сайёҳлар оқимини кўпайтириш, шунингдек, миллий туризм маҳсулотларини жаҳон бозорида фаол ва комплекс илгари суришга қаратилган. Хусусан, Қашқадарё мисолида оладиган бўлсак, вилоятда 2018-2019 йилларда туризм инфратузилмаси объектларини барпо этиш режасида 167 та лойиҳани амалга ошириш кўзда тутилган. Уларда тарихий-маданий обидаларни таъмирлаш, сайёҳлар учун меҳмонхоналар, дам олиш ва кўнгилочар ҳудудлар ташкил этиш, сайёҳларга миллий маданиятни кенг намойиш қилиш асосий вазифа этиб белгиланган.

Аҳолининг саёҳат қилиши ва дам олишини таъминловчи оддий инфратузилма сифатида қаралган бўлса, айтиш пайтда у мамлакат иқтисодиётининг муҳим тармоғи сифатида шаклланиб, ривожланишига катта эътибор берилмоқда. Яқин-яқингача мазкур соҳага иқтисодиётга катта даромад келтирувчи тармоқ ўлароқ қаралган эмас эди. Туризмга нафақат дам олишни ташкил қилувчи ижтимоий соҳа, балки миллий иқтисодиётнинг катта даромад келтирувчи тармоғи сифатида муносабатда бўлина бошланди. Уни том маънода иқтисодиётнинг ижтимоий-иқтисодий тармоғи, деб ҳисоблаш мақсадга

мувофикдир. Зеро, туризм, биринчидан, аҳоли бандлигини ҳамда дам олишини таъминлайдиган, даволайдиган, тадбиркорларга ва давлатга даромад келтирадиган иқтисодиёт тармоғига айланди.

Мазкур сохани ижтимоий-иқтисодий соҳага киритишни асослашда унинг тармоқ сифатида ишлаб чиқаришдаги ўзига хос хусусиятларини, шаклланишидаги асосий омилларни, миллий иқтисодиётга қай даражада дахлдорлигини, асосий фаолияти қай жиҳатдан ўзига хослиги каби жиҳатларни инобатга олиш лозим бўлади. Туризм бошқа соҳа ва тармоқларда такрорланмайдиган ўзига хос вазифа ва функцияларни бажаради.

Минтақаларнинг барқарор ривожланишини таъминлаш. Мазкур функция аҳолиси кам ва саноати ривожланмаган ҳудудларда туризмни тараққий эттиришга ундайди. Чунки кўпгина чекка ҳудудлар аҳолиси, асосан, деҳқончилик, чорвачилик ва боғдорчилик билан шуғулланади. Булар кўпинча тоғ ва тоғолди ҳудудларидир. Бу жойларнинг ўзига хос анъана ва қадриятлари сақланиб қолган. Туризмга миллий иқтисодиёт нуқтаи назаридан қаралганда, унинг тўлиқ соҳа эканлигига гувоҳ бўламиз. Агар уни хизмат кўрсатиш соҳасининг бир йўналиши сифатида ўрганадиган бўлсак, у туризм тармоғини ташкил қилади. Мазкур масалани яхлит тадқиқ этадиган бўлсак, унга бир қанча тармоқларни бирлаштирадиган йирик субъект, яъни соҳа сифатида қараш мумкин.

Жаҳонда глобаллашув жараёнининг чуқурлашуви ва илмни кўп талаб қилувчи технологияларга асосланган ишлаб чиқаришнинг устувор ривожланиши ҳар қандай мамлакатнинг иқтисодий ўсиши ва турмуш сифати ошишининг зарурий шarti – инновацион фаоллик билан белгиланади. Инновацион фаоллик, ўз навбатида, давлатнинг иқтисодий ва илмий-техник имкониятлари, инновацияга оид сиёсати ва салоҳияти, жамиятнинг маънавий ҳолатига боғлиқ. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида туризм соҳасини инновацион ривожлантиришга алоҳида халқаро эътибор қаратилаётгани аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги қонуни. 1999 йил.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги фармони.
3. М.А.Мирзаев, М.Т.Алиева. Туризм асослари. Тошкент, 2011 йил.

BUXORO ZARDO`ZLIK SAN`ATI TURLARI, TIKISH USLUBLARI VA ISHLATILADIGAN XOM ASHYO, ASBOB USKUNALAR

*Ibadova. N.I., o`qituvchi,
Buxoro davlat universiteti*

Zardo`zlik hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri – zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi. U forscha zar (tilla), do`zi (tikmoq) so`zini anglatadi.

Zardo`zlik san`ati uzoq tarixga ega. Zardo`zlikning vatani Vavilon bo`lib, u Rim imperiyasiga harashli bo`lgach, zar, ipak va jun qo`shib tikilgan rang – barang kashtachiligi bilan butun dunyoga mashhur bo`lgan. Vizantiyada zardo`zi bilan kiyim – kechaklarni faqat imperator a`yonlari, aslzodalar kiyishgan. Vizantiya bilan

muntazam madaniyat hamda siyosiy hamkorlik qilishi tufayli zardo`zlik san`atining Eron podsholigi saroyida ham rivoj topgan. Eronda zardo`zlik san`atining rivojlanganligiga XV – XVII asrda ishlangan zardo`zlik namunalari misol bo`la oladi. Vizantiyadan Qadimgi Rusga ham zardo`zlik san`ati kirib keldi. Kichik Osiyo doirasida zardo`zlik 13 – 15 asrlarda ham rivojlandi. Xullas Vizantiya qayerda ta`sirini o`tkazgan bo`lsa o`sha yerda zardo`zlik rivojlangan. Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalardan ma`lumki, O`rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan 1 – 2 asrlarda zarbof kiyimlar, badiiy buyumlar keng tarqalgan. 1947 yili Toshkent viloyatining Vrevskiy qishlog`ida o`tkazilgan arxeologik topilmada ayol qabridan I – II asrlarga tegishli zarbof kiyimlar topilgan.

Abdurazzoq Samarqandiy “Hindiston safarnomasi” asarida 1442 yili Shoxruh zamonida Shimoliy Hindiston bilan Hirot o`rtasida turgan yili Ashtarxona maqbarasi haqidagi hujjatlarda zarbof kiyimlar haqida bayon etib o`tgan. Hirotida yashab ijod etgan Vusfiy o`zining risolalarida zarbof kiyimlar va zardo`zlik kasbi to`g`risida bayon etgan. XVII asrda yashagan samarqandlik shoir Fitratning asosiy kasbi zardo`zlik bo`lgan, u matolarga zardan ajoyib kashtalar tikkan. XIX – XX asr boshlarida zardo`zlikning o`ziga xos maktabi yaratilgan. O`zbekistinda, Buxoro, Samarqand, Farg`ona va boshqa joylarda zardo`zlik maktablari ochilgan.

Zardo`zlikda 70 xil klassik tikish usullari mavjud. Bu usullar o`ziga xos tomonlarining nomlari bilan bir – biridan farq qiladi. N. Aminov o`zining “Biz zardo`zlarimiz” risolasida zardo`zlik sirlari, zar tikish xillari va usullari to`g`risida batafsil to`xtab o`tgan. Birinchisi – zamindo`zi, ikkinchisi – guldo`zi.

Zamindo`zi bunda zar tikilayotgan kiyim yoki kiyim gul naqshining zamini yoppasiga zar bilan tikiladi. Zardo`zi siddi ustiga tikilib, siddi jaydari ipakdan tayyorlanadi. Birinchi navbatda ip 4 yoki 5 qavat qilib, keyin esa ikki qavat qilib eshiladi. Shu hosil bo`lgan ingichga ijurni zardo`zlikda siddi deb yuritiladi.

Zardo`zlikda tikish joyining yuzasi katta yoki kichikligiga qarab, o`lchamga moslab tikiladi. Stanokda siddilar sariq bo`z ustiga sakkiz, yigirma, yigirma to`rt qator qilib tortiladiyu aniq hisob bilan tikilib, soni mo`ljaldagidan ortiq bo`lmasligi kerak. Aks holda, mavj yoki nusxalar buziladi.

Zamindo`zidan mavji ikro`l va mavji ro`l qismlari bor.

Zamindo`zi qadimdan qimmatbaho to`nlarda ishlatilgan bo`lib hozir zardo`zi do`ppilarning jiyagidagina qo`llanib tikiladi.

Guldo`zi – bunda tikilayotgan naqshning tagi ochiq qolib faqat gul naqshlarining o`zi zar bilan tikiladi. Guldo`zi tikish usuli o`ziga xos bo`lib, bu quyidgi bosqichda bajariladi. Naqqosh tomonidan naqsh chiziladi. Naqsh nusxasi qalin qog`oz, karton yoki teridan qirqib andozasi tayyorlanadi. Sig`irga baxmal matog tikib chiqiladi yoki yelimlanadi. Karton nusxani zar ip bilan qoplab tikib chiqiladi. Biroz bo`rtma naqsh gul hosil bo`ladi.

Endi zardo`zlikda zar tikish xillari hamda usullari to`g`risida to`xtalib o`tamiz. Biz aytib o`tiladigan tikish xillarining ko`pchiligi zardo`zlikda qo`llanilayapti. Ayrimlari deyarli qo`llanilmaydi. Bu tikish xillari ham qo`llanilsada lekin uning ishlatilish sohasini topsa bo`ladi. Bu usullarning yo`q bo`lib unitilib ketayotgani kishini achintiradi. Qadimdan qo`llanilib qilingan tikish usullaridan yosh avlod foydalansa xalq yaratgan an`anaviy, nodir uslublarini asrab qolgan bo`lar edik.

Yak ra mavj, yak ra chashmi bulbul – bu tikish usulida mavji yak ro`l bilan tikish chashmi bulbul qo`shib tikilib, bir yo`li mavj bir yo`li chashmi bulbul hosil qilgani uchun unga shu nom berilgan. Bu usul zardo`zlarni shu san`atga ijodiy yondashi tufayli yuzaga kelgan.

Chashmi bulbul – bulbulning ko`zi degani. U shaxmat xonalariga o`xshab ketib to`rtburchak naqshlar ajoyib mavjlanib turadi. Naqshlar siddi bilan sanab tikiladi. Xuddi boshqa zamindo`zidagidek tikiladi. Tovus, xurshid kabi qadimgi buxorocha do`ppilar gir aylanasining tepa qismiga “obiponcha” ishlatilgan. U kartondan kesib, zamindo`zi ustiga to`rt qavat kumush zar bilan tikib chiqiladi.

Mavji du ro`ya – ikki tomonlama mavj, zamindo`zining qismlaridan biri bo`lib o`ziga xos tikiladi. Chunonchi siddi shaboda daryoning mavj urib turganligini eslatadi. Shuning uchun mavj du ro`l ataladi. Obi lo`la deb ataladigan ip ishlatiladi. U zardo`zlikda ip siddilardan yo`g`onroq bo`lib, jaydari ipdan 20 – 25 qavat qilib qattiq eshiladi. Chigora misol siddilarning har ikki chetiga tortiladi. Obi lo`la zamindo`zining chetlari chiroyli chiqishi uchun ishlatilib, zamindo`zi uning kichikligiga arab siddilar soni ko`paytiriladi. Lekin obi lo`la ikki qatorligicha qolaveradi.

Mavji yak ro`ya – bir tomonlama mavj zamindo`zligining qismlaridan biri bo`lib, u daryo mavjiga o`xshash bo`ladi. Shuning uchun mavj yak ro`l deb ataladi. Sochmado`zi – ikki qavat zar va bir qavat mayin ipak bilan birga qo`shib eshiladi, hamda lola, searga barcha gullar, shakarak kabilar tikiladi.

Zardo`zlikda mahalliy joydori va chetdan keltirilgan materiallar ishlatiladi. Erkaklar chaponini baxmal bershim degan barqurtlarning a`lo navi hisoblanib to`nlar uchun faqat shu barqutdan foydalanilgan. Rus barquti, ya`ni baxmal farangi ham keng qollanilgan. Bu barqurt Rossiya orqali G`arbiy Yevropadan keltirilgan. Odamlar sho`x gulli barqurtlarni ko`proq xarid qilganlar. Ayniqsa, binafsha, yashil va ko`k rangli barqurtlar odamlarga yoqqan. Binafsha va qizil rangdagi barqurtlar bolalar va ayollar kiyimi uchun juda mos bo`lgan. Silliqlik yarim ipak barqurt, ya`ni baxmali mum chopondan tashqari barcha buyumlar uchun keng qo`llanilgan.

Bundan tashqari Buxoro baxmali joydori baxmal bo`lib, u ko`p ishlatilgan. Uning to`q yashil hamda to`q qizillari jul poyafzal tikishdan tashqari surp, mavut, shoyi atlas, doka joydori, olacha hamda teridan foydalanilgan.

XVII asr boshlarigacha Rossiyaga sharqdan zar simlar keltirilgan. O`sha vaqtda kalabutun degan zar tola mashhur ip o`rnida qo`llanilardi. Tilla kalyobutini tayyorlashda sim ipga tilla suvi yurgizilgan. Kalabutinda 84 % li kumush qorishmasi qo`llanilgan. Uning asosini tashkil etuvchi ipak ipning rangi har xil bo`lgan.

XIX asrning 30 – 70 yillarida tikilgan buyumlarda kalabutinning asosi tovlanuvchan sariq tilla rang ip, 80 yillarda to`q sariq ip bilan, 90 yillarda esa to`q sariq tus shoyi ip bilan tilla rang ip qo`shib tikiladigan bo`lgan. 1900 yillardan so`ng alvon tusli ishni to`q jigarrang, och jigarrang iplar bilan qo`shib ishlatilgan.

XX asrning 10 yillarida yana to`q sariq tusdagi iplar ishlatila boshlandi. Bu ip bilan erkak va ayollarning bosh kiyimlari tikilgan. Kalabutun bilan sim buxorolik zardo`zlar uchun asosiy xom ashyo hisoblangan.

Responi pechak 40 – 70 g`altak ip XIX asrning 90-yillarida paydo bo`lgan bo`lib, zardo`zlikda keng ishlatiladigan xom ashyo. Uning rang tovlanishi xuddi

ipakdagi singari bo`lib, faqat unga qizil hamda to`q qizil ranglar ham qo`shilgan. Mana shu g`altak ip keyinchalik o`ta qimmatbaho zardo`zlik buyumlarida ishlatilgan.

Pulakcha – zardo`zlikda ishlatiladigan kichkina tangacha. Mayda oq, sariq, qizil va boshqa ranglarda bo`ladi. Buyumga qadash uchun o`rtasidan teshikcha qilingan metal pistoncha.

Olmos qubbalar – zardo`zlikda ishlatiladigan turli nav oltindan zardo`zlarning o`zlari yasagan zargarlik taqinchoqlarga o`xshab ketuvchi bo`rtma naqshlar hamda qimmatbaho toshlar.

Zarhal po`g`alar – mahalliy zargarlar ishlagan, odatda qora va feruza bilan bezatilgan, nafis gul naqshi tushirilgan bo`ladi.

Har bir kasbga o`ziga xos asbob uskunalar bo`ladi. Zardo`zlikda asbob – uskunalar uncha ko`p bo`lmasada o`ziga xos tomonlariga va tuzilishiga ega. Ularni bir – bir xarakterlab chiqamiz:

Kopcho`p – chambaark, ya`ni korcho`pning tun va mayda – chuyda buyumlar uchun mo`ljallangan uch turi mavjud. Ular tuzilishi jihatidan bir xil bo`lib, faqat hajmlarining katta kichikligi bilangina bir – biridan farq qiladi. Korcho`p uzunligi 80 – 320 smgacha bo`lgan ikki teng yonli silliq yog`och dastadan iboratdir.

Korcho`pning uchida joylashgan harakatlanuvchi shamshirak yordamida chambarakni istalgan katalikka keltirish mumkin bo`ladi. Chambarakka bo`zdan qilingan kerish tortilib, u tikib tayyor bo`lgan buyum bilan birga chiqarib olinadi. Korcho`pda chordona qurgan holda yerda o`tirib ishlanadi.

Patila – ipni dumaloqlash (o`rash) uchun qattiq yog`ochdan qilingan, uzunligi 20 smdan bo`lgan buyum. Ichiga qo`rg`oshin solib vazminlashtirilgan bunday patilalar ipni zich qilib o`rashni ta`minlaydi.

Angishvona – ish tikishda barmoq uchiga kiydiriladigan metal asbob. Angishvona qadimda charmdan ham qilingan. Uning usti yoki ignani keti qadaladigan joyi chuqurchalardan iborat bo`ladi. Zardo`zlikda ikki xil angishvonadan foydalaniladi. Birinchisi fabrika angishvonasi, ikkinchisi esa tagsiz, qalin charmdan yasaladi va u chap qo`lning o`rta barmog`iga taqib ishlanadi.

Qaychi ushturgardan – zardo`zlikda gul qirqishda ishlatiladigan “tuya bo`yin” qaychi.

Igna – tikuv quroli bo`lib, har xil hajm (uzun – kalta, ingichka – yo`g`on) da o`tkir uchli teshikli qilib yasalgan.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Bulatov S.S. O`zbek xalq amaliy bezak san`ati. T.: 1991.
2. Goncharova P.A. “Buxoro zardo`zlik san`ati”. Toshkent 1986 yil.
3. Jabborova.D. “Zardo`zlik texnologiyasi fanini o`qitish uslublari”
Маколанинг 78 %и кучирилган
4. <http://hozir.org/uzbekiston-xalq-talimi-vazirligi-m-z-murtozayev-g-m-axmedova-s.html?page=8>
5. <http://www.kompy.info/uzbekiston-xalq-talimi-vazirligi-m-z-murtozayev-g-m-axmedova-s.html?page=8>
6. <http://shaxnoz.zn.uz/2016/04/01/zardoqlik-sanati-tarixidan-dars-ishlanmasi/>

РАҚОБАТБАРДОШ КАДРЛАР ТАЪМИНОТИ - БУХОРО ВИЛОЯТИ ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ ТАРАҚҚИЁТИ ВА ИСТИҚБОЛИДИР

Бахтиёр Адизов,

Бухоро давлат университети таянч докторанти

Бугунги кунда барча соҳаларда амалга оширилаётган кенг кўламли ислохотлардан кўзланган пировард мақсад мамлакатимиз иқтисодиётини янада ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш билан халқимиз турмуш фаровонлигини юксалтиришга қаратилган.

Президент Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек, Туризм соҳаси – иқтисодиётнинг муҳим тармоқларидан бири. Мавжуд имкониятлардан самарали фойдаланган ҳолда, ушбу тармоқни янада такомиллаштириш зарур, буни даврнинг ўзи тақозо этмоқда.

Ўзбекистон ҳам саёҳат, ҳам зиёрат учун қулай мамлакат. Чунки она заминимизда бутун дунёга маълум ва машҳур бўлган аждодларимиз мангу қўним топган. Улар қолдирган бой маънавий-маданий меросга халқаро майдонда қизиқиш жуда катта.

Шунингдек, Ўзбекистонда туризмнинг янги истиқболлари очилиб, турли йўналишларда кенг қамровли лойиҳалар амалга оширилмоқда. Хусусан, кейинги йилларда альпинизм, отда, туяда, велосипедда саёҳат қилиш, off-road сайёҳатлари, балиқ ови, рафтинг, хелиски, геотуризм, таълим туризми, тиббий туризм каби янги сайёҳлик йўналишлари оммалашмоқда.

Мамлакатимизда мазкур йўланишда тизимли, изчил имлохотларни олиб бориш, соҳани янада ривожлантириш учун туризм меҳнат бозорида малакали мутахассисларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириб бориш, халқаро стандартлар даражасида хизмат кўрсатиш сифатини кўтариш бугунги асосий, долзарб вазифалардан биридир.

Сўнгги йилларда Бухоро вилоятида халқаро ва маҳаллий туризм оқимининг барқарор равишда ошиб бораётганлиги кузатилмоқдаки, бу ўз навбатида соҳага хизмат кўрсатадиган, замонавий сервис хизматлари бўйича етарли малакага эга бўлган мутахассисларга янада талабнинг кучайиши кутилади.

Мамлакатимизда соҳага доир олий маълумотли мутахассисларни тайёрлайдиган 5 та олий таълим муассасалари мавжуд бўлиб, улар Самарқанд иқтисодиёт ва хизмат кўрсатиш институти, Тошкент давлат иқтисодиёт университети, Бухоро давлат университети, Урганч давлат университети ва Тошкент шаҳридаги Сингапур менежментни ривожлантириш институтларидир.

Бухоро вилоятида туризм соҳаси учун асосан кадрлар Бухоро давлат университетининг “Туризм” факультети ва Бухоро Туризм коллежида тайёрланади. Охирги йилларда соҳа истиқболи учун олий маълумотли кадрларни тайёрлаш бўйича Бухоро давлат университетиде жуда кенг қамровли ишлар амалга оширилди. Вилоятда туризм ва унга хизмат кўрсатувчи соҳаларнинг истиқболдаги ривожланиш тенденцияларидан ҳамда бугунги кундаги малакали мутахассисларга бўлган, кечиктириб бўлмас эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда, таълим муассасасининг туризм факультети негизида янги бакалавриат таълим

йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари бўйича мутахассис тайёрлаш йўлга қўйилди. Масалан, дастлаб университетда туризм факультети ташкил этилмаган, Ижтимоий-иқтисодий факультети негизида фақат “сервис (туризм ва меҳмонхона хўжалиги)” таълим йўналиши бўйича мутахассислар тайёрланиб, мазкур таълим йўналишини 2012 йилда илк битириб чиқишган бўлса, 2010/2011 ўқув йилидан бошлаб “Меҳмонхона хўжалигини ташкил этиш ва бошқариш”, 2013/2014 ўқув йилидан “Туризм” ва “Хизматлар соҳаси” бакалавриат таълим йўналишлари ҳамда “Туроператорлик фаолиятини ташкил этиш” магистратура мутахассисликларига ҳам талабалар қабули амалга оширилиб келинмоқда. Университетда бу соҳада мутахассис тайёрлаш қамрови, сифати ҳамда заруратидан келиб чиқиб, Бухоро давлат университетида 2015 йил 1 майдан “Туризм” кафедраси ва 2016 йил 31 декабрдан эса “Туризм” факультети ташкил этилди.

Университет томонидан охириги йилларда соҳа учун зарур бўлган малакали кадрлар тайёрланиб, вилоят туризм соҳасида ўз меҳнат фаолиятларини амалга ошириб келмоқдалар.

Бухоро давлат университети томонидан таълим йўналишлари бўйича тайёрланган ёш мутахассислар, битирувчилар тўғрисидаги маълумотларга (1-жадвал) диққатни қаратмоқчимиз.

1-жадвал

2012-2017 йиллар давомида туризм соҳаси бўйича Бухоро давлат университетини тамомлаган битирувчилар сони (бакалавриат).

№	Таълим йўналишлари	2012 йил	2013 йил	2014 йил	2015 йил	2016 йил	2017 йил
1.	Сервис (туризм ва меҳмонхона хўжалиги бўйича)	20	24	24	-	-	-
2.	Меҳмонхона хўжалигини ташкил этиш ва бошқариш	-	-	-	22	27	31
3.	Хизматлар соҳаси (фаолият турлари ва йўналишлари бўйича)	-	-	-	-	-	17
4.	Туризм (фаолият йўналишлари бўйича)	-	-	-	-	-	21
	Жами	20	24	24	22	27	69

2012 йилда туризм соҳаси бўйича университетни “сервис (туризм ва меҳмонхона хўжалиги)” таълим йўналишида 20 нафар талаба ўқишни битирган


бўлса, 2017 йилга келиб эса, университетни 3 та таълим йўналишида “меҳмонхона хўжалигини ташкил этиш ва бошқариш” бўйича 31 нафар, “хизматлар соҳаси (фаолият турлари ва йўналишлари бўйича)” 17 нафар, “туризм (фаолият йўналишлари бўйича)” 21 нафар, жами бўлиб 69 нафар талаба ўқишни тамомлади. Бу битирувчиларнинг аксарияти вилоятдаги меҳмонхоналар, туроператорлик корхоналарида ҳамда бошқа туристик манзилларда ўзларининг фаолиятларини давом эттирмоқдалар. Маълумотлар таҳлил қилинганда Бухоро давлат университети томонидан 2012-2017 йиллар давомида туризм соҳаси учун 186 нафар малакали олий маълумотли мутахассисларни тайёрлаб берган.

Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, Бухоро давлат университетида ҳозирда, яъни 2017-2018 ўқув йили давомида туризм соҳаси бакалаврият таълим йўналишларида 408 нафар талаба таҳсил олаётган бўлиб, улар таълим йўналишлари ва курслар кесимида қуйидагича тақсимланганлигини кўриш мумкин (1-диаграмма).

Берилган маълумотлар ўрганилганда олийгоҳни 2017/2018 ўқув йилида мазкур йўналишларда, яъни хизматлар соҳаси (фаолият турлари ва йўналишлари бўйича) таълим йўналишида 15 нафар, туризм (фаолият йўналишлари бўйича) таълим йўналишида 18 нафар ва меҳмонхона хўжалигини ташкил этиш ва бошқариш таълим йўналишида 34 нафар, жами бўлиб 67 нафар битирувчи ўқишни тугатиб, вилоят туризм салоҳиятини кўтариш мақсадида ҳудуддаги корхона ва ташкилотларга (меҳмонхоналар, туроператорлик фирмаларига, сервис корхоналарига ва ҳоказоларга) ишга жойларига йўналтирилмоқда.

1-диаграмма

2017/2018 ўқув йилида Бухоро давлат университетида туризм соҳаси бакалаврият таълим йўналишларида таҳсил олаётган талабалар сони тўғрисида маълумот.



Манба: Бухоро давлат университети маркетинг бўлими ҳисоботлари


Диаграмма маълумотларини таҳлил қилар эканмиз, университетда туризм соҳаси йўналишларида қабул квоталарининг йилдан йилга ошириб борилаётганлиги кўзга ташланади. Жумладан, Бухоро давлат университетида 2014, 2015, 2016, 2017 йилларда (2а-диаграмма) хизматлар соҳаси таълим

йўналиши бўйича мос равишда 15,20,40,60 нафардан, туризм (хизматлар соҳаси) таълим йўналиши бўйича мос равишда 20,20,20,20 нафардан, меҳмонхона хўжалигини ташкил этиш ва бошқариш таълим йўналиши бўйича 30,30,40,60 нафардан талабалар қабули амалга оширилган бўлса, жорий 2018 йилда туризм таълим йўналишида 40 нафар, хизматлар соҳаси таълим йўналишида 60 нафар ва меҳмонхона хўжалигини ташкил этиш ва бошқариш таълим йўналишида 60 нафар талабаларни ўқишга қабул қилиш режалаштирилмоқда.

2а-диаграмма

2014-2018 йилларда Бухоро давлат университети туризм соҳаси бакалавриат таълим йўналишларида абитуриентлар қабули кўрсаткичлари тўғрисида маълумот.

(нафар)




Манба: Бухоро давлат университети маркетинг бўлими ҳисоботлари

Юқоридаги 2а-диаграмма маълумотларини умумлаштирганда 2014-2018 йилларда мазкур бакалавриат йўналишларида талабаларнинг қабули ўсиш тенденциясига эга бўлиб, мазкур 3 та таълим йўналишида 2014 йилда 65 нафар, 2015 йилда 70 нафар, 2016 йилда 100 нафар, 2017 йил 140 нафарни ташкил этган бўлса, 2018 йилда 160 нафар талабаларнинг қабули режалаштирилганини кўриш мумкин (2б-диаграмма).

Мазкур келтирилган маълумотлар таҳлили натижасида, демак соҳа рақобатбардош, етук профессионал кадрлар билан тўлиқ таъминланди деган фикрдан йироқмиз. Албатта, миқдор ва сифат кўрсаткичлари балансига ҳам алоҳида эътибор қаратиш жоиздир.

2014-2018 йилларда Бухоро давлат университети туризм соҳаси бакалавриат таълим йўналишларида абитуриентлар қабули кўрсаткичлари тўғрисида маълумот.



Манба: Бухоро давлат университети маркетинг бўлими ҳисоботлари

Туризм соҳасида етук профессионал кадрларни тайёрлаб боришда, республикамизнинг барча олий таълим муассасаларида, қолаверса, Бухоро давлат университетида таълим жараёнларида муҳим ўзгаришларни амалга ошириш, яъни, талабаларни мукамал таълим олишлари ва олинган билимларни амалий иш жараёнларида янада мустаҳкамлаш мақсадида корхона ва ташкилотларда тизимли амалиёт ўташ соатларини кўпайтириш ва амалиёт сифатини назорат қилиб бориш, ўқув жараёнида семинар (амалий) лаборатория машғулотларини яхши ташкил этилган замонавий лабораториялар (меҳмонхона ресепшни, лоббиси, ресторан ва бар ҳамда меҳмонхона номери намуналари кўринишидаги лаборатория хоналари ва ҳоказолар)да ўтказилишига эришиш ҳозирги кундаги асосий вазифаларимиздан биридир.

Биз Ўзбекистонга кўпроқ сайёҳлар ташриф буюришига эришишимиз, бизда мавжуд маданий, тарихий обидалар ва ўзига хос табиатга эга манзилгоҳларни оммалаштириш бўйича кўп ишларни амалга оширишимиз билан бирга, жаҳон стандартларига жавоб берадиган юқори даражадаги хизматларни кўрсатишни ташкил этишга ва кўрсатишга қодир бўлган малакали, рақобатбардош кадрларни уйғунликда тайёрлаб боришимиз лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг ПФ-4947-сонли Фармони. // Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль.
2. Мирзакаримова М., Раҳимова У. Таълим хизматлари бозори ва меҳнат бозорини мувофиқлаштириш ёшлар бандлиги омили сифатида.// “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. 2017. № 1.
3. Бухоро давлат университети маркетинг бўлими ҳисоботлари. 2015й. 2016й. 2017й. 2018й.

OPPORTUNITY OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT FOR TOURISM INDUSTRY

*Saidova F.K., Lecturer,
Bukhara State University*

The role of tourism has become recently more recognized as a potential industry that contributes to a country's revenue, economic growth, balance of payments, and foreign exchange earnings. Tourism has also proven to be a growing source of revenue to the private sectors as well as a major source of income to individuals, creating various employment opportunities and contributing to their individual welfare. This has given governments enough reasons to support and promote for tourism as a source of both revenue and FDI. (Foreign direct investment)

Tourism has become a major source of export earnings to many countries in the world. Tourism is the first or second source of export earnings in 20 of the 48 Least Developed Countries and has been generating a steady growth in at least 10 other countries. As such, tourism has become one of the main engines for stimulating economic activities in many countries in the world, especially the developing ones.

Tourism as an Industry:

Tourism is an Industry that consists of a group of firms involved in marketing of service related activities and tangible souvenirs to the end users, represented by international and domestic Consumers. Example of such services include hotel and hospitality rooms, restaurant meals, air tickets, therapy, guided tours, other recreational and medical services sold to tourists and medical tourists (patients tourists who travel for health therapy-medical reasons seeking diagnostics and hospital treatment). Tourism is an active and economically viable industry that requires the ability to continuously adjust to customer's changing needs and wants, as the customer's satisfaction, safety, and enjoyment are the main focus of the industry.

What Makes a Country a target of attraction for FDI (Foreign Direct Investment) in Tourism?

Foreign Direct Investment (FDI) may occur when a firm invests directly in new facilities to produce a product or service in a foreign country. Tourism has given many reasons to the developing countries, such as Jordan, Egypt, Israel, South Africa, Jamaica, Lebanon etc. to promote Foreign Direct Investment (FDI) inflow to their territories realizing the fact that, tourism generates major revenue to such countries that may not have access to revenue through other types of industries or natural assets like oil and gas.

FDI, including its facets of capital investment, transfer of technology and access to global markets, is one of the routes through which developing countries can carry out sustainable development.

For example, tourism industry it was revealed that the volume of FDI inflow to China has increased tremendously as a result of the expectation that China will be receiving 120 million tourists on annual basis by year 2020 favoring the inflow of FDI to the Tourism sector.

Given the importance of FDI in tourism in stimulating the economic activities in many countries around the world, we should discuss below some the major

determinants of FDI that can make a Country a potential place for attracting foreign direct investments:

- **Infrastructure:** Infrastructure plays a very important role when it comes to investing in the tourism sector in the host country because of its inherent cost implication on the investor. Infrastructure includes manufactured establishments such as domestic and international airports, roads, and boarder checking points in addition to transportation facilities and constructions like power stations, dams, bridges and so on.

- **Location:** Tourism mainly depends on strategic locations. For example, investors would look at whether the host country can be easily accessed by air travel, by land or by sea so that it would attract the largest number of tourists. Geographical location also includes the climate, landscape, and terrains.

- **Natural Resources and Historical Attractions:** The Natural attractions are God made, such as spring water, water falls, wildlife, mountains, land features and natural landscape. While the historical attractions are ancient man made that includes historical, archaeological and religious places. Many host countries are excellent in their historical background and their cultural heritage. For example, Egypt is famous for its pyramids, many tourists travel to Egypt for ancient site seeing purposes. In addition, we can find many natural and historical resources in Uzbekistan.

- **Economic Status Indicators:** The most important indicators are the employment rate and the per capita income since they are important for domestic tourism and indicate the ability of nationals to travel for leisure and the purchasing power to spend within the country.

- **Security:** In the wake of catastrophic natural disasters and rising threats of terrorism, the hotel industry has been hit hard by declining revenues and increasing competition. There are many factors that affect whether a country is a potential place for tourism, one of which is security. Security includes safety from natural disasters. It also includes the social stability and political stability status of the host. For example, the total number of international tourists who travel to Syria has decline tremendously in recent years due to the political and social instability in the country.

- **Regulatory Business Laws:** Important to the foreign investors such as the environmental laws, tax law, the minimum wage and maximum law & working hours law.

- **The Market size:** The larger the number of the population, the more economic activities available in the host country. Uzbekistan all good examples of this.

Types of FDI in The Tourism Industry:

Foreign investments in the tourism industry vary widely depending on the experience level and interest of the foreign investor and the host's potential status. The following are some of the different types foreign direct investments in tourism:

- **Travel Agencies:** Many international travel agencies operate as foreign investment outside their home countries to provide flight reservations, hotel bookings and tour operating services and other travelling related services;

- **Hotels:** World chain hotels are established in many host countries to provide room booking services and other recreational facilities to domestic and

international tourists. Hotels are also established to provide conference facilities such as conference rooms and meetings arrangements to business travelers. Examples of Multinational Hotel outfits include but not limited to the following: Marriot, Hiltons, Sheraton, Holiday Inn, Premier Inn, Hotel Western and so on;

- **Hospitals:** Large hospitals are established in host countries to provide room bookings and medical treatment facilities to domestic and international patients who come from different regions in the host country or from their home country for therapy purposes and medical treatments;

- **Restaurants:** Many franchise and chain restaurants, coffee shops and fast food operations are established in the host country to provide meal services to domestic and international tourists such as Starbucks, Fuddruckers and so on.

Tourism is An Aggregate Source of Revenue.

International tourism is considered as part of the export industry to the home country since it creates foreign currency revenue into the country's economy. This leads to a favorable balance of payments for the country. Such revenue inflow creates great benefits for business turnover, welfare of individuals, household income, employment, private revenue etc. and also increase in government revenue. Furthermore, part of this revenue is considered a secondary revenue since it is re-spent within the country creating more economic activities. For example, in some large countries such as USA and Brazil, these secondary and indirect revenues that are generated domestically sometimes exceed the benefits from the direct revenue bases.

In addition to being a major source of revenue for countries worldwide, tourism is also an industry where long-term growth prospects are good. For example, the growth rates in the tourism revenue have exceeded the growth rates made by most other service sectors. According to The World Travel and Tourism council forecasts, the annual growth rate in international tourists' arrivals in Uzbekistan is expected to reach 6.1% by year 2025. [3, 5p].

We should remember that tourism growth rates have not always been stable. Just like any other economic good or service, tourism has been affected by fluctuations in quantity of demand. For example, following the war and the crises that is taking place in Countries like Iraq, Syria, Lebanon etc. and the worldwide SARS infections and scare of Ebola fever, the rate of international tourists who travel to and from the USA has dropped considerably and as low as by 11% in some cases.

The following table reflects the variations in the international tourism arrivals and receipts from years 2014 to 2015 (according to UNWTO records). In table below, Europe generates more than half of the revenue made by international tourists. For example, Spain generates the largest revenue from international tourism among the European countries, while the USA attracts the highest revenue among all the countries of the World with France, Italy, China and Turkey not too far behind[4].

As discussed above, the tourism industry has given many reasons to countries especially the developing ones to promote tourism to maintain and improve their GDP levels and balance of trade, diversify their sources of revenue, offset losses attributable to other sectors, attracts Foreign Direct investments to themselves, and stimulates their economic growth. However, the tourism industry faces many challenges such as the challenges of managing and sustaining its growth and development so that, the host

countries would maximize the benefits from such industries another challenge for tourism is related to its impact on the social and natural environment of the host Countries. For example, Construction of recreational facilities such as hotels, game parks etc. will expose the natural land terrain to negative factors such as the depletion of the natural forests that are replaced by large establishments like resorts and so on.

REFERENCES:

1. Carl Bonham, Edwin Fujii, Eric IM and James Mark, (1992). The impact of the hotel room tax: an interrupted time series approach. The National Tax Journal, Vol. 45, no. 4, pp. 433-41.
2. FDI in Tourism: The Development Dimension (2007) United Nation Conference on Trade and Conference, New York, Geneva, 2007, retrieved November 2013. http://unctad.org/en/Docs/iteiia20075_en.pdf
3. Travel and Tourism council, "Tourism impact Uzbekistan 2016", 2016y

PEUT-ON PARLE DE CULTURE NUMERIQUE A ECOLE?

*François Bocquet
UPMF de ALPES*

En France, l'école est par tradition porteuse d'une culture humaniste. Comment situer la culture numérique, si tant est qu'elle existe, par rapport à la culture humaniste au xxi^e siècle ? Quelle est la place de la culture numérique à l'école ? Le numérique permet-il d'enrichir ou de réinventer la culture humaniste ? L'approche disciplinaire de l'école est-elle encore compatible avec une véritable culture humaniste à l'ère numérique ?

La culture, c'est un ensemble de comportements, de savoir-faire, de connaissances, de coutumes, d'usages qui permettent de définir une communauté, voire une civilisation. Cette terminologie est apparue à l'époque des humanistes, juste avant le développement massif du livre imprimé, puis elle a été renforcée par les encyclopédistes au xviii^e siècle. La culture telle que je viens de la définir peut-elle être numérique ? Quant au numérique, il est défini dans la plupart des dictionnaires comme un adjectif antonyme d'« analogique », c'est-à-dire qu'il y a une opposition entre ce qui est constitué de matière et ce qui est « numérisable », c'est-à-dire transformable en une suite de chiffres simples, des 0 et des 1, et par extension tout ce qu'on peut traiter par des automatismes, appelés algorithmes. On pourrait donc penser que la culture numérique est liée à la possibilité de numériser, qui existe depuis un peu plus de cinquante ans. Il se trouve que ce qui se numérise bien aujourd'hui, c'est ce que nos sens perçoivent facilement : ce qu'on lit, ce qu'on voit et ce qu'on entend. Le sens du toucher est concerné, avec les imprimantes 3D qui permettent de reconstruire des objets. On peut également aujourd'hui synthétiser des odeurs à partir de données numériques, et même restituer du geste.

16Le numérique amène donc un certain nombre de changements, que certains qualifient de civilisationnels. La numérisation permet d'accélérer les tâches, par exemple le traitement automatisé des données d'investissement dans les banques. Ce phénomène a pour conséquence la disparition des coûts ou tout au moins la distribution et la récupération d'information à des coûts marginaux partout dans le monde. Il induit la mise en relation entre elles d'un grand nombre de personnes, une augmentation du

capital de connaissances et de savoirs numérisables, sous une forme ou sous une autre. On assiste à une explosion de cette mise à disposition. Donc il y a bien aujourd'hui un dispositif de civilisation ou de société – ce qu'on pourrait appeler une culture – qui est soumis au numérique, à ses résultats et à ses conséquences. Dans la mesure où ce qui caractérise une culture, c'est également sa faculté à transmettre ses connaissances, ses savoirs, ses savoir-faire et ses coutumes, la question qui se pose est de savoir quel rôle joue l'école dans l'accompagnement des élèves et des étudiants pour qu'ils deviennent des citoyens responsables, autonomes, acteurs de la construction de cette société et de cette culture.

17À la Renaissance, des savants, en circulant en Europe, ont pu créer un courant d'échanges, capitaliser progressivement un certain nombre de connaissances et les confronter à d'autres. Cette culture humaniste est-elle détruite ou potentiellement renforcée par l'utilisation des technologies, des services, des savoir-faire et des compétences numériques ? L'hypothèse que je fais est que vraisemblablement, l'utilisation raisonnée du numérique permet d'améliorer, de développer, peut-être même de réinventer cette culture humaniste.

18Comment, concrètement, amener les élèves à s'approprier cette culture ? L'un des axes de la Loi sur la refondation de l'école, c'est l'introduction obligatoire au collège d'une éducation aux médias et à l'information orientée vers une approche des humanités : en histoire, en géographie, en lettres, en production d'écrits, en changeant les modes de lecture, les modes de compréhension et de critique des médias, on peut utiliser efficacement le numérique pour apprendre et pour enseigner. De plus, cette culture inclut également des savoir-faire techniques, technologiques et scientifiques dans lesquels on retrouve la compréhension des mécanismes, c'est-à-dire la grammaire et le langage utilisés, les raisonnements logiques et l'algorithmique qui font partie de cette culture humaniste, y compris scientifique et technologique.

19Éric Bruillard : Cette question est délicate. Il existe en effet une multiplicité de cultures, et ces cultures n'existent pas indépendamment des groupes humains qui les portent. Différents groupes, avec différentes cultures, existent à l'extérieur de l'école. Dès lors, comment construire une culture collective, la définir et lui donner un périmètre ? En ce qui concerne l'école, cette construction reste à faire. L'une des difficultés tient au fait que, depuis très longtemps, les cultures dominantes rejettent les cultures techniques, notamment en France. Or il n'existe pas de culture sans technicité partagée. Pour penser numérique/informatique, il faut tenir compte de ce besoin de mieux articuler les formes de culture générale avec les cultures techniques. Cette construction doit d'autant plus se faire au sein de l'école que les différentes cultures à l'extérieur de l'école portent des imaginaires de toute nature. Il faut peut-être aussi reconstruire des techniques et des imaginaires au sein de l'école.

ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИНГ БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЎРНИ

Зоиров С.,

Шофиркон иқтисодиёт коллежи

Педагогика жамиятнинг ривожланиш қонун-қоидаларга таянган ҳолда тараққий этади. Бугунги кунда эса мана шу жараён авж палласига кирди. Инсон

онги тараққий этмас экан ижтимоий ҳаёт жабхаларида ҳеч қандай ўзгариш сезилмайди. Замон жадал суръатда ўзгаришга, демак педагогика шу ўзгаришларга ҳамоҳанг бўлмоғи даркор.

Таълим тўғрисидаги қонун ҳамда Кадрлар тайёрлаш Миллий дастурида, ёш авлодни истиқлол мавқураси руҳида тайёрлаш, дарсликлар, ўқув методик қўлланмаларни яратиш масалалари кўрсатилган ва шу муаммоларни ҳал қилиш йўл-йўриқлари кўрсатилган.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан 2017 йил 7 февралда қабул қилинган «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги фармонида мамлакатимизда барча соҳалар қатори таълим-тарбия тизимини ислоҳ қилиш, ёшларга оид давлат сиёсатини янада такомиллаштириш бўйича муҳим вазифалар белгиланган. Эртамик эгаларининг пухта билим олиши, иқтидор ва истеъдодларини намоён этиши, спорт билан шуғулланиб, баркамол бўлиб вояга етиши учун кенг имкониятлар яратилмоқда. Натижада юртимиз ёшлари ҳар жабҳада дунёда ҳеч кимдан кам эмасликларини исботлаб келишмоқда. Жамият тараққиёт ва давлатнинг куч-қудратини юксакларга кўтариш, унинг шаънини дуёга таратишда спортнинг ўзига хос ўрни бор. Республикаимизда ушбу соҳани такомиллаштириш, ёшларни баркамол қилиб тарбиялаш ҳозир кунда устувор вазифалар қаторига киради. Шу билан боғлиқ ҳолда жисмоний тарбия ва спортни кенг тadbик этиш, ўсиб келаётган авлоднинг саломатлигини сақлаш ва мустаҳкамлаш муаммоси долзарб ҳисобланади.

Ёшлар жамият тараққиёт ва мамлакатимиз келажагини белгилаб берар экан, бизнинг вазифамиз уларнинг жисмоний ва руҳий тарбиясига, соғлом турмуш тарзи кечирishiга ва бўш мазмунли ўтказишига жиддий эътибор қаратишдир. Дастлаб “ТУРМУШ ТАРЗИ” тушунчасига қаратиладиган бўлсак, ушбу тушунча муаян жамиятдаги кишилар ҳаётининг ўзига хос хусусиятлари ва шарт-шароитлари, яшаш тарзи тавсифини ёритишга хизмат қилади. Турмуш тарзи фаолиятининг барча соҳаларини, жумладан, меҳнат ва унинг ижтимоий-тузилмавий шакллари, боғлиқ ҳаёт, бўш вақтни ташкил этиш шакллари, кишиларнинг ижтимоий фаолият жараёнидаги иштироки, моддий ва маънавий эҳтиёжларини қондириш шакллари, шунингдек, хулқ-атвор меъёрлари қамраб олади. Бир сўз билан айтганда, турмуш тарзи фақатгина иқтисодий муносабатларни ифодалаб қолмай, шу билан бирга инсонларининг, маданият ва жамият аъзоларининг дунёқарашини ҳам ифодалайди.

Ўзбекистон Республикасининг «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги қонунида ёшларга оид давлат сиёсати давлат томонидан амалга ошириладиган ҳамда ижтимоий жиҳатдан шакллантириш ва уларнинг интеллектуал ижодий ва бошқа йўналишдаги салоҳиятини камол топтириш учун шароитлар яратилишини назарда тутадиган ижтимоий-иқтисодий, ташкилий ва ҳуқуқий чора-тадбирлар тизимидан иборатлиги белгиланган. Бугун айна шу йўналишдаги фаолиятимизни янада мустаҳкамлаб, ёшларимизнинг дарс машғулотларидан кейинги бўш вақтини мазмунли, самарали ташкил этиш талаб этилмоқда. Эътибор қаратадиган бўлсак, ўқувчи куннинг маълум қисмидагина таълим-тарбия билан машғул бўлмоқда. Агар у қўшимча тўғарак машғулотларига жалб қилинмаса, ота-она ҳамда

жамоатчиликнинг назорати ва эътиборидан четда қолса, бўш вақтдан самарасиз фойдаланиш ёки бекорчилик салбий оқибатларга, яъни жинойтчилик ва ҳуқуқбузарликларга олиб келиши мумкин.

Дарҳақиқат, тўғарак машғулотилари Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни, Кадрлар тайёрлаш миллий дастури, ҳамда таълим-тарбияга оид қабул қилинган бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда ўз аксини топган. Шунинг учун машғулотдан кейин таълим муассасаларида фаолият олиб борадиган тўғарак машғулотилари орқали нафақат ёшларимизнинг бўш вақти самарали ташкил этилади, балки уларнинг интеллектуал салоҳияти, билими оширилиб, касб-ҳунар сирларини мукаммал ўрганишлари, спорт билан мунтазам шуғулланишлари учун имконият яратилади.

Жаҳон цивилизацияси ривожда муҳим ўрин тутган Абу Наср Фаробий, Имом Исмоил ал-Бухорий, Ҳаким ат-Термизий, Муҳаммад ал-Хоразмий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Бурҳониддин Марғинович, Аҳмад ал-Фарғоний, Маҳмуд аз-Замахшарий, Маҳмуд Кошғарий, Мирзо Улуғбек, Алишер Навоий сингари буюк боболаримизнинг ютуқлари қалбларимизни фахрифтхорга тўлдирди. Уларнинг илм-фан, ҳуқуқ, маданият ва маърифат ҳамда санъат соҳасидаги буюк ютуқлари бугун ҳам жаҳонда эътироф этилиб келинмоқда.

Таълим муассасаларида ташкил этилган фан, ҳунар ва спорт тўғараклари ҳам айнан фарзандларимизнинг порлоқ истиқболни белгилашнинг муҳим омили эканини яхши тушунишимиз керак. Ёшларнинг бўш вақти — душманларнинг иш вақти эканини яхши англаб етишимиз лозим.

Фан тўғаракларида талабалар дарс жараёнида олган билимларини мустаҳкамлайди, уларнинг ўзлаштириши яхшиланади, самарадорлик ошади. Бўш ўзлаштирувчи талабалар билан ўқитувчи якка тартибда шуғулланади. Фанга нисбатан ўша талабанинг қизиқишини оширади. Энг муҳими, фан тўғаракларида иқтидорли талабалар билан алоҳида ишлаш имконияти вужудга келади.

Ҳунар тўғаракларида ўғил болалар йигитларга хос, қизлар эса хотин-қизларга хос бўлган ҳунарларни ўрганишади. Зеро, «Ҳунарли киши хор бўлмас», деган ҳаётий ҳикмат бежиз айтилмаган. Бу нақлнинг моҳиятини ҳар бир ота-она, педагог ва маҳалла фаоли яхши билиши ҳамда ҳаётга татбиқ қилишлари мақсадга мувофиқдир. Маълумки, бугунги кунда ёшларимизни тадбиркорлик фаолиятига кенг жалб этиш бўйича тизимли ишлар олиб борилмоқда. Уларнинг тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш жараёнида ҳунар ўрганиши алоҳида аҳамият касб этади. Шу боис, ёшларимизни ҳунар тўғаракларига жалб этишимиз ва улар учун барча шароитларни яратиб беришимиз лозим.

Мамлакатни дунёга танитишда, шунингдек, ёш авлодни жисмонан ва маънан баркамол қилиб тарбиялашда спортнинг ўрни бекиёс эканлигини яхши биламиз. Спорт билан мунтазам шуғулланган болалар биринчидан, соғлом бўлиб ўсади, иккинчидан, бўш вақти самарали ўтади, учинчидан, жаҳон ареналарида ўзбекистонлик спортчилар сифатида улкан ютуқларни қўлга киритади. Шу боис, мамлакатимизда ёш авлоднинг спорт билан мунтазам шуғулланиши учун барча шароитлар яратилган.

Фарзанд таълим-тарбиясида оила-маҳалла-таълим муассасаси

ҳамкорлигини кенг қамровли амалга оширишимиз ва бу борада ҳар биримиз масъулиятни юракдан ҳис қилишимиз керак. Шунда фарзандларимизни мамлакатимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини таъминлайдиган авлод қилиб камолга етказамиз.

Пировард мақсадимиз, умумтаълим мактаблари, касб-ҳунар коллежлари академик лицейлари ва университетларда таълим олаётган ҳар бир ўқувчини фан, ҳунар ва спорт тўғарақларига жалб этиб, уларнинг онгидаги бўшлиқни билим ва маънавият билан тўлдиришимиз керак. Зеро, уларни ота-она, эл-юрт, Ватан манфаати учун хизмат қиладиган инсонлар қилиб тарбиялаш бугунги куннинг талабидир.

O‘ZBEKISTON EKOTURIZMI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

*Nazarova S.M.,
Doktorant*

Ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik o‘zgarishlar jarayonida mamlakatda ekoturizmning rivojlanishi muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasining ko‘pgina mintaqalaridagi tajribaning ko‘rsatishicha, ekoturizm — bu ishchi o‘rinlar sonini ko‘paytirishga, tabiiy ekotizimlarni tiklash va saqlashga ko‘maklashuvchi ijobiy ekobiznesdir, bu esa o‘z navbatida ekoturizmni Markaziy Osiyoda keng tarqatish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilarni e‘tiborga olgan holda ko‘pgina sayyohlik tashkilotlari O‘zbekiston bo‘ylab ekologik turlarni ishlab chiqishdi, Shuningdek, mamlakatda bevosita ekoturizm bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar tuzildi.

Ana Shunday tashkilotlardan biri «O‘zbekturizm» Milliy kompaniyasi, Fridrix Ebert nomli Fond(GFR) va Xalqaro «Ekosan» fondi rahbarligida o‘tkazilgan «Ekoturizm va Buyuk Ipak Yo‘li» 1-Xalqaro Konferentsiya tavsiyalariga ko‘ra tuzilgan «Ekosan-tur» Markazidir. Markaz faoliyatining rivojlanishiga sayyohlik sohasining mutaxassislari, O‘zbekistonning va boshqa Markaziy Osiyo davlatlarining tabiatni asrash tashkilotlari, maslahatchilar jalb qilingan. Mintaqalardagi ekoturizm ob‘yektlarida faoliyat yurituvchi biznes tuzilmalar va mahalliy hokimiyat organlari, Shuningdek, joylardagi o‘z-o‘zini boshqarish organlari ham jalb etildi.

Markaz faoliyatining rivojlanishiga 1999 yili O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti tomonidan tasdiqlangan «2005 yilgacha bo‘lgan davr mobaynida O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish Dasturi» ham yordam berdi. Ushbu Dasturga jahon madaniyati va tarixining merosiga kiruvchi tabiiy yodgorliklarini, qo‘riqxonalarini saqlash va aniq maqsadlarda foydalanish bo‘yicha marketing chora-tadbirlari kiritildi.

Ushbu aspektda o‘z faoliyatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining tabiatni asrash qonunchiligi, Shuningdek, atrof-muhit va mustahkam rivojlanish sohasida xalqaro kelishuvlarda qabul qilingan normalar Markazning o‘z maqsadiga yetishishida ijobiy yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasida ekoturizmning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina muammolar bor, jumladan, mahalliy aholini ekoturistik faoliyatga jalb qilish, malakali mutaxassislarning yetishmasligi, ko‘pgina mamlakatlardagi potentsial

sayyohlarning Markaziy Osiyo mintaqasining ekoturistik noyob tabiiy-landshaft imkoniyatlaridan bexabarligidir. Ushbu va boshqa masalalarni yechish maqsadida ekoturizmning mustahkamligi va ustunligi to'g'risida mahalliy aholi(mahalla) bilan uchrashuvlar o'tkazilyapti, Iqtisodiyot univyersityetida va «O'zbyekturizm» MKda kadrlarni o'qitish boshlandi.

Mintaqaning ekoturistik imkoniyatlari to'g'risida xorijiy jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida chet ellik turistik markazlar, turfirmalar bilan maslahat uchrashuvlari olib borilmoqda. Bu ishda xorijiy davlatlardagi O'zbekiston elchixonasi va «Ekosan» fondining chet eldagi bo'limlari ish olib borishyapti. Markaz tomonidan tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy aspektlarda loyihaning amalga oshirilishi to'xtovsiz ravishda kuzatilmoqda, ularning o'zaro aloqasi ekoturizmning mustahkamligi ko'rsatkichidir.

Quyidagi holatlar monitoring indikatorining ahvalidir:

Tabiiy ekotizim, biogeotsenoz, biologik har xillikni saqlash va tiklash. Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, suv ta'minoti, sanitar-gigiyenik sharoitlar, mehnat sharoitlarini yaxshilash. Iqtisodiy ko'rsatkichlar, mahalliy aholi daromadlarining o'sishi, aholi punktlarining obodligi. Ekologik madaniyat, madaniyat darajasining o'sishi. Ekoturistlarning tashrifi natijasiga ko'ra(dipkorpus missiyasi va 50 mamlakatdagi xalqaro tashkilot vakillari hamda 20 dan ortiq xalqaro tashkilotlar) Orolbo'yi mintaqasiga yiliga 20 mln. AQSh dollari miqdorida yordam ko'rsatildi. Suv bilan ta'minlash tarmog'i, ijtimoiy infratuzilmalar bunyod etildi, aholi punktlarining sanitar-gigiyenik sharoitlari yaxshilandi. Ekoturistik faoliyatning natijalarini hisobga olib, ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda turizmning mustahkam rivojlanishida ekoturizm muhim faktor bo'lib hisoblanadi. Ekoturizm tabiatni asrash zarurligi, o'rmonlarni kesishni qisqartirish, buzilgan tabiiy ekotizimlarni tiklashda qatnashish borasida mahalliy aholi ongida burilish yasaydi. Ekoturizmning o'tkazayotgan tadbirlari aholining ekologik ma'lumotlarini sezilarli darajada kengaytirishga yordam beryapti va mintaqa aholisining ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga olib keladi.

Bugungi kunda ilmiy va ommabop adabiyotlar, Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida ekoturizmning o'rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan ko'plab qarashlar olg'a surilmoqda. Shu o'rinda, "O'zbekiston Respublikasida ekoturizmni rivojlantirishning ahamiyati nimalardan iborat?" degan savol tug'iladi. Buning bir necha asoslari bor:

Kommunikatsiya yo'llari majmuasining har bir unsuriga o'ziga xos usullari va yo'llari mos keladi. Ammo ular hammasiga bitta maqsadni - marketing tamoyilini amalga oshirishga mansub bo'lgan uzoq va qisqa muddatli masalalarni oqilona yechishga ko'maklashishni ko'zlaydi.

TARJIMA TURLI MILLATLARNI BIRLASHTIRUVCHI SAN'ATDIR

*Norova Mexri, o'qituvchi,
Buxoro davlat universiteti*

Tarjima san'ati turli millat va elatlarni birlashtiruvchi san'at turlaridan biri bo'lib, chet el xalqi adabiyotini millatimizga va aksincha, millat adabiyotini xorij millatlaridagi xalqqa qalbning, ilmning, ma'naviyatning tub cho'qqilarini namoyish eta olish kuch-qudratiga egadir. O'zbek adabiyoti ulkan tarix va ma'naviyatga boy bo'lib, qadimdan va hozirgi kunlarda ham chet el adabiyotshunoslari unga katta qiziqish bilan qarab kelmoqdalar. Agar biz O'zbekistonni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uning avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa – millat yashaydi.¹²

Mustaqillik davrida tarjimaShunoslikka katta e'tibor berildi va berilyapti. Yuzlab asarlar tarjimonlarimiz tomonidan tarjima qilinyapti. Bu esa albatta turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shulardan biri tarjimon Fathulla Namozov tomonidan ingliz yozuvchisi D.X.Cheyz asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, kitobxonlarga tanishtirilyapti.

Djeyms Xedli Cheyz britaniyalik detektiv asarlar yozuvchisi bo'lib, 1906-yili Londonda tug'ilgan. 1939-1984 yillar ichida 93 ta detektiv asarlarini yozgan bo'lib, uning asarlari ayniqsa Yevropa, Osiyo, Afrikada juda mashhur. Dunyoning ko'plab tillariga, Shuningdek o'zbek tiliga ham tarjima qilinyapti. Uning "Gonkongdan kelgan tobut" detektiv sarguzasht romanidagi leksik transformatsiyalarni tahlil qilamiz.

Tarjima san'ati eng nozik va nafis san'at turlaridan biri bo'lib, so'z o'rnining mukammal, puxta qo'llanilishini talab etadi. So'zlar Shunday tanlanishi kerakki, tarjima hammaga tuShunarli bo'lishi, asl jumlada ifoda etilgan ma'no tarjimada berilgan ma'no bilan muvofiq bo'lishi zarur. Bunday muvofiqlikni yuzaga keltirish uchun tarjima qilinayotgan gaplar so'zma-so'z, to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydi. Agar Shunday bo'lganida edi, tarjimadan osonroq ishning o'zi bo'lmagan bo'lar edi. Tarjima san'atining o'ziga xosligi, nozikligi, sirlari ham ana Shunda namoyon bo'ladi.

Tarjimaning murakkab va muhim omillaridan biri so'zlarning transformatsiyaga uchrashidir.

"Transformatsiya"-(lotincha) o'zgartirish, almashtirish degan ma'nolarni ifodalaydi, tarjimada ularning leksik, stilistik va Grammatik turlarini uchratamiz.

Leksika so'zlardan, so'zlar majmuidan iborat bo'lib, unga tilning asosiy til birligi, til va nutqning eng muhim omillaridan biri, tilning eng kichik asosiy birligi deb ta'rif berilgan. Ammo so'z til birligi sifatida juda murakkab xususiyatga ega va har bir so'z qandaydir ma'no-mazmun kasb etadi. Tarjimadagi leksik birliklarga L.S.Barxudarov quyidagicha ta'rif bergan: "Tilda mavjud bo'lgan barcha birliklar, ya'ni fonema, morfema, so'z, so'z birikmasi va gap tarjima birligi bo'lishi mumkin".

Tarjimon esa tarjima jarayonida o'z mahoratini ishga solib leksik transformatsiyalarni to'g'ri qo'llay olishi zarur va tarjima qilayotga tili leksikasi va ona tili leksikasini mukammal bilishi zarur.¹³

Ma'lumki, tarjima jarayonida bitta tuShunchaga aynan bitta tuShunchaning to'g'ri kelishi juda kam uchraydi. Tarjimada bir so'zga bitta so'z, so'z birikmasi yoki

¹² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. B-140.

¹³ Бархударов Л.С. Язык и перевод. М.,1978.

gap to'g'ri kelishi mumkin. Demak leksik birlik ham so'z, ham so'z birikmasi, ham gap bo'lishi mumkinligi so'zlarning tarjimada transformatsiyaga uchrashiga sabab bo'ladi.

Tarjimadagi leksik birliklarda so'zlar bir-biriga qisman yoki to'la mos kelishi yoki umuman mos kelmasligi mumkin. Shunga ko'ra leksik birliklar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. To'liq mos keladigan leksika;
2. Qisman mos keladigan leksika;
3. Umuman mos kelmaydigan yoki o'xshashi yo'q leksika.

To'liq mos keladigan leksikaga asliyatdagi so'zda tarjima tilida bitta so'z to'g'ri kelsa, to'liq mos keladigan leksikaga kiradi va ularga geografik joy nomlari, atoqli otlar, ilmiy-texnik atamalar, sanoq va tartib sonlar va kun hafta, oy nomlari, korxonalar, tashkilot, idora, muassasa, mehmonxona, kema nomlari kiradi. Tarjima jarayonida bunday so'zlar hech qanday qiyinchiliklar tug'dirmaydi, ular ko'pincha monosemantik bo'ladi, to'g'ridan-tog'ri tarjima qilinadi, lug'aviy ma'nolari har bir tilga mos keladi.

Qisman mos keladigan leksikaga asliyatdagi bitta so'z tarjima jarayonida qisman mos keladi va ularni quyidagi holatlarda uchratamiz:

1. Bir tilda boshqa tilga to'g'ri keladigan ekvivalentdan tashqari qolganlari boshqa ma'no ham ifodalashi mumkin. Masalan, Ingliz tilida "close" so'zi o'zbek tilida "yopmoq", "berkitmoq" deb tarjima qilinishidan tashqari "yaqin", "yonma-yon", "yonida" degan ma'nolarni ham ifodalaydi. "Slip" so'zi tarjimada "qattiq uxlamoq", "biror ishni tez bajarmoq", "yomon tarafga bormoq", "qog'oz parchasi", "kichik xato", "biror narsadan qochmoq" ma'nolarini ifodalaydi. Ya'ni ular polisemantik bo'lib, ko'p ma'nolarni ifodalashi mumkin, Shuni ta'kidlash o'rinliki, ingliz tilida bitta so'z maksimal 23 ta ma'noni berar ekan. Tarjimon o'z mahoratini qo'llab kontekstdan kelib chiqqan holda kerakli, mos so'z tarjimasini qo'llashi kerak. Tarjima jarayonida ko'p ma'noli so'zlar bir tilda bir ma'noda berilsa, ikkinchi tilda boshqa ma'nolarda ham keladi.

2. Qisman mos leksikaga ma'no kesishish hodisasini ham uchratamiz. Bunda ikki tildagi berilgan so'z bir xil ma'no yoki ma'nolarni ifodalashidan tashqari, ayni paytda ularning bir-biriga to'g'ri kelmaydigan ma'nolari ham bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "ball" so'zi omonim so'z bo'lib, "koptok" va "bal raqsi" deb tarjima qilinadi. O'zbek tilida "ball" deyilganda faqat "raqs kechasi ma'nosi" tuShuniladi.

3. Shuningdek, tarjimada shunday leksik birliklarni uchratamizki, mos ekvivalentni tanlash juda qiyin bo'ladi. Masalan, Ingliz tilida "hand", "arm" so'zlari bitta so'z bilan o'zbekchaga "qo'l" deb tarjima qilinadi, "guy", "boy" so'zlari ham bitta ma'no bilan "o'gil bola" deb tarjima qilinadi.

4. Qisman mos ekvivalentlikda so'zlarning sinonimik qatorini, ma'no bo'yoqdorligini o'rganish zarur. Masalan, "her pretty face" so'z birikmasi "uning go'zal afti, basharasi" kabi salbiy ma'no bo'yoqdorligini ifodalovchi so'zlar bilan emas, balki ijobiy ma'no ifodalovchi so'zlar bilan, ya'ni uning "go'zal yuzi, chehrasi" kabi tarjima qilinishi, tarjimon esa sinonimik qatordagi dominant so'zlarni bilishi zarur.

5. Shunday so'zlar borki tarjimada aynan bitta ma'nosini berish orqali

kifoyalanish zarur. Masalan, “edge of table”, “the rim of the moon” soʻz birikmalarida edge va rim soʻzlari cheti, qirrasini deb ekvivalentsiz tarjima qilinadi. Har bir soʻz oʻz oʻrnida ishlatilmasa boshqa maʼnolarni ifodalashi mumkin.

6. Shuningdek, soʻzlar farqlangan va farqlanmagan, yaʼni differensiyalashgan yoki differensiyalashmagan boʻlishi mumkin. Qaysidir soʻzlar insonlarga xos boʻlsa, boshqalari jonsiz narsalarga, uchun umumiy ishlatiladigan soʻzlarga oid boʻlishi mumkin.

Masalan, “to swim” soʻzi suzmoq deb tarjima qilinadi va odamlarga xosdir. “To sail” esa transportga xos suzish maʼnosini ifodalaydi. “To float” jonsiz narsalar, obyektlar uchun ishlatiladi. “Travel” soʻzi umumiy “safari” deb tarjima qilinsa, uning sinonimlari “trip” qisqa sayohat uchun, “voyage” va “journey” dengiz sayohati uchun farqlangan holda qoʻllaniladi.

Endi soʻzlarning tarjimada qaysi holatlarda transformatsiyaga uchrashini tahlil qilamiz.

Leksik Transformatsiyalar.

Tarjima jarayonida tarjimaning hammaga tuShunarli boʻlishi, nooʻrin soʻzlardan qochib, yorqin tarjimini amalga oshirish uchun leksik transformatsiyalardan foydalaniladi. Ular soʻzlarni kontekstda almashtirish deb ham yuritiladi. Tarjima jarayonida ularning beshta turini uchratamiz:

1. Leksik transformatsiyaning birinchi turi qiyin boʻlgan soʻzlarni tarjima jarayonida maʼnosini aniqlashda qoʻllaniladi. Bunday holatni feʼl soʻz turkumi doirasida koʻp qoʻllaniladi. Chunki ingliz tilidagi feʼllar oʻzbek tilidagi feʼllar kabi konkret, aniq emas, masalan “to have” feʼlini tahlil qilsak, aksariyat hollarda transformatsiyaga uchraydi. “Ega boʻlmoq”, “bor” maʼnolarini ifodalaydi. Shuningdek, jumlada asosiy feʼl, modal feʼli va boshqa qator zamon feʼllarida ishtirok etadi.

- A drink or perhaps lunch?
- “I’ll have a Cook and rum,” I said.
- Biror narsa ichasizmi yoki ovqat olib kelaymi?
- Menga rom va “koka-kola” keltirsangiz- dedim men.

Bunday koʻp maʼnoli feʼllar ingliz tilida koʻp uchraydi.

Shuningdek iboralar turgʻun birikmalar sifatida soʻzma-soʻz aynan tarjima qilinmaydi, ularning tarjima qilinayotgan tildagi mos keladigan iboralar tanlanib tarjima qilinadi. Masalan:

- To be in someone’s shoes-biror kishiga laganbardorlik qilmoq;
- To kill two birds with one stone- bitta oʻq bilan ikki quyovni urmoq;
- A hard nut to crack-baland dorga osilmoq;
- One’s hair stands on end-tepa sochi tik boʻlmoq.

Shuningdek, Oʻzbek tili ham boshqa tillarda uchramaydigan oʻz oʻlchov birliklariga ega: qadam, musht, qarich, kaft kabilar.

Tarjima nazariyasida xos soʻzlar realiyalar deb atalib, ular biror bir xalqqa, millatga oid udumlar, taomlar, narsalar boʻlishi mumkin. Masalan, ingliz xalqi uchun “muffin” tovada pishirilgan qalin qaymoqsimon non maʼnosida, “lobby” koridor, qabulxona maʼnolarini anglatadi va ilar realiyalardir. Oʻzbek xalqi uchun toʻy marosimlaridagi qiz uzatish, yor-yorlar, beshik, tandir, palovlar ham realiyalar boʻlib,

boshqa bir xalq uchun izohsiz notanish soʻzlar boʻlib tuyulishi mumkin.

- A number of pretty Chinese girls wearing cheongsams, slit either side to show off their shapely legs.

- Yoni kesik “chungazama” kiyib olgan ajoyib xitoylik qizlarning xushbichim, tekis oyoqlari koʻrinib turar edi.

2. Ikkinchi tur umumlashtirish boʻlib, asl jumladagi ortiqcha hisoblangan aniqliklar umumlashtiriladi.

Masalan, asliyatda atoqli otlar informativ xususiyatga ega boʻlsa, tarjimada u xususiyatga ega boʻlmasligi, uni tushirib qoldirib, jumlalarda xususiyatini aks ettirib tarjima qilish yaxshiroqdir.

-A door farther up the passage opened and a fat little man who could be either Italian or French came out.

-Eshiklardan biri ochildi va semiz, past boʻyli odam yoʻlakka chiqdi. Ushbu misolda past boʻyli odamning fransiyalik yoki italiyalikligi ortiqcha aniqlik boʻlib tarjimada ifodalanmagan.

-As I rolled off the road, there came another rifle shot and the dust was kicked up about two yards from me.

-Ana shu on ikkinchi oʻq uzildi. Men undan ikki yard narida edim.

Quyidagi misolda “as I rolled off the road” (yoʻl chetida), “the dust was kicked up”(chang koʻtarildi) soʻz birikmalari ortiqcha informative xususiyatga egaligi uchun tarjimada berilmagan.

3. Uchinchi tur asliyat va tarjima matnlar orasidagi mantiqiy aloqaga asoslanadi. Agar asliyatda berilgan jumlaning biror qismini tarjima qilmasdan adekvatligi taʼminlansa, jumlaning oʻsha qismi tushirib qoldirib tarjima qilinadi va sabab natija bilan almashtiriladi.

- “Well, here we are – Hong Kong”, he said over his shoulder. “Looks pretty good. They say there’s no place quite like it on earth. Could be they are right.

- Mana, Gonkongga ham uchib keldik, - dedi u. – Qanchalar goʻzal! Aytishlaricha yer yuzida boshqa bunday joy yoʻq emish. (Ular haq boʻlishlari mumkin-jumlasi hech qanday kerakli informativligi oʻqligi uchun tarjima qilinmay tushirib qoldirilgan.

- I looked around and found a flat, heavy stone larger than my hand.

- Ogʻir, yalpoq toshni ham qoʻlimga oldim.

Aslida (atrofga qaradim va qoʻlimdan katta boʻlgan ogʻir, yalpoq toshni topdim) tarzida boʻlishi kerak).

4. Toʻrtinchi tur antonimik transformatsiya boʻlib, baʼzan soʻzlarda inkor qoʻshimchalar tushirib qoldiriladi.

- I could hear just a murmur of distant traffic, but nothing else.

- Mehmonxona tinch, faqat koʻchadagi qatnov ovozlari eshitilib qolardi.

Aslida (Faqat koʻchadagi qatnov ovozlari boshqa hech narsa eshitilmas edi deb inkor shaklda kesim berilgan) -Without raising my head, I could see nothing.

- Eshitish uchun boshni boroz koʻtarish kerak.

Aslida tarjima gap inkor shaklda (boshimni koʻtmasdan hech narsani koʻrolmasdim) boʻlishi kerak.

- I felt sore and hot, but I was lucky it was no worse.

- Yelkam qattiq jarohatlangan bo'lsada, umuman mening omadim kelgan, hammasi muvaffaqiyatli yakunlangan edi.

Jumlaning oxirgi qismi bo'lishsiz shaklda berilishi kerak (hammasi yomon yakunlanmagan edi).

5. So'nggi tur gapning tushirib qoldirilgan qismini to'ldirish yoki kompensatsiya deb yuritiladi. Matnning to'laqonli bo'lishini ta'minlash uchun bir stilistik vosita o'rniga uning o'rnini bosuvchi boshqa stilistik vositalar qo'llaniladi. Jumlada qo'llanilgan fonetik, stilistik, Grammatik vositalar tushirib qoldirilib, mazmun muvozanatini saqlash uchun to'ldiriladi, ya'ni kompensatsiya qilinadi.

-I leaned on the rail of the first-class deck of the ferry-boat and watched the third class passengers fight their way up the gangplank onto the lower deck.

-Men yo'lovchilarni orolga tashiydigan kema sahnida turib, pastki palubada joylashayotgan odamlarni kuzatardim. Shundan so'ng birinchi toifa yo'lovchilarning ko'tarilayotganini ko'rish uchun burilib qaradim: ular orasida Stella yo'q edi.

Ushbu misollardan kelib chiqqan holda Shuni aytishimiz mumkinki, tarjima san'ati hozirgi zamon uchun eng muhim san'at turi va masalalaridan biri bo'lib, lug'at boyligi, mahorat, sabr va mukammal bilim manbaini talab etadi, bundan tashqari tarjimon ikki tilni chog'ishtirish jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan transformatsiyalarni puxta o'zlashtirishi lozim. Bular esa tarjimaning adekvatligiga, tarjima asarlarning ko'payishiga, abiyotimizning boyishiga va o'zga xalq va millatni tanishimizga va o'zimizni tanitishimizga, turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. T.: 2005.Fan-352b.
2. Salomov G'. Til va tarjima. T.: 1966.Fan-382b.
3. G'ofurov I., Mo'minov O. Tarjima nazariyasi. T.:2012.Fan-216b.

ZARDO'ZLIK SAN'ATI VA MATOGA ZAR TIKISH TARIXI VA TARAQQIYOTINING USTUVOR YO'NALISHLARI

*Haydarova M.D.,
BuxDU*

Zardo'zlik xalq amaliy san'ati va xalq hunarmand-chiligining juda qadimiy turlaridan bo'lib, zar iplar bilan qo'l choklari yordamida gul tikish kasbidir.

«Zardo'zlik» so'zi forscha «zar» — tilla, «do'zi» — tikmoq, ya'ni zar iplar bilan gul, kashta tikmoq, degan ma'noni anglatadi. Zardo'zlik hunar sifatida zardo'zlik usullari va ularni qo'llash amaliyotlarini o'z ichiga oladi. ,

Zardo'zlikning vatani qadimgi Yunoniston bo'lib, bu yerda zodagonlar zar, ipak va jun ip qo'shib to'qilgan kashtali naqshlar tushirilgan kiyimlar kiyishgan. Demak, zar, ipak va jun ip qo'shib to'qilgan kashta — zardo'zlikning ibtidoiy ko'rinishlaridan biri bo'lgan.

Keyinchalik Rim imperiyasi tomonidan bosib olingan qadimgi Misr hamda Bobilda ham zardo'zlik rivojlana boshlaydi. Ayniqsa, Qadimgi Bobil (Vavilion) o'zining kashtali qimmatbaho matolari bilan dunyoga mashhur bo'lgan.

Keyinroq zardo'zlik Qadimgi Bobil bilan yaqin aloqada bo'lgan Eron podsholigi saroyida ham rivojlana boshlaydi. Eron shohlari hamda asilzodalarining kiyimlari ham oltin iplar bilan tikilgan bezaklar va qimmatbaho toshlar bilan naqshlana boshlagan.

Asilzodalar hayotida muhim o'rin egallay boshlagan zardo'zlik Eron orqali asta-sekin Afg'oniston, Hindiston, Xitoy va ularga qo'shni bo'lgan O'rta Osiyo mamlakatlariga tarqala boshlaydi. Harbir mamlakatda u o'ziga xos tarzda shakllanadi va taraqqiy etadi.

Zardo'zlik buyumlari tarixiy taraqqiyotda ma'lum vazifalarni bajarganligini ko'ramiz. Tarixiy shart-sharoit va jamiyat tuzumlarining o'zgarishi uning tarixiy vazifalarining ham o'zgarib turishiga olib kelgan. Ana shu o'zgarishlarga qarab biz zardo'zlikning O'rta Osiyodagi, asosan, mamlakatimiz hududidagi tarixiy taraqqiyotini quyidagi bosqichlarga ajratib o'rganishimiz mumkin:

1. XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davr. Bu davrning o'ziga xos xususiyati Shundaki, zardo'zlik shakllanganidan boshlab O'rta Osiyo oikalarida ham podsho va saroy a'yonlarini oddiy xalqdan ajratib turishga, shu bilan ana shu oddiy xalq go'zal g'oyalar bulog'i ekanligini eslatib turishga xizmat qilgan.

2. XX asrning 20-yillaridan — XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan davr. Bu davrda zardo'zlik xalqni mustamlakachilardan ajratib ko'rsatishga va uning yuksak madaniyati mavjudligini eslatib turishga xizmat qilgan.

3. XX asrning 90-yillaridan keyingi davr. Bu davr zardo'zligi mustaqil o'zbek xalqining o'ziga xosligini jahonga tanitishda katta hissa qo'shdi va qo'shmoqda.

Arxeologlar ajdodlarimizning yer qatlamlari ostida qolib ketgan qadimiy yashash manzillarini va qabrlarini o'rganib, ular I, II asrlardayoq zarbof kiyimlar va zardo'zi buyumlardan foydalanishganligini aniqlashgan. O'sha davrlarda zar iplar, bezaklar faqat qimmatbaho sof metall va toshlardan tayyorlangan. Ularning kimyoviy turg'unligi sabab, ular bilan tikilgan guTlar chirib ketgan matolar ustida ham o'z ko'rinishini yo'qotmagan. Bu qabrlar, shubhasiz, shohlar, saroy ahllari hamda badavlat kishilarga tegishli bo'lgan..Ular bunday libos va buyumlardan o'z boyliklari, kuch-qudratlari hamda shon-shuhratlarini namoyish etish, oddiy xalqdan o'zlarini ustun qo'yish uchun foydalanish-gan. Shuning uchun bu davrda zardo'zlik ustaxonalari faqatgina podsho saroylarida joylashgan. Masalan, zardo'zlik juda taraqqiy etgan Buxoro xonligida xon saroyida 1860—1885-yillarda bitta, 1885-1900 yillarda esa atigi uchta ustaxona bo'lgan.

Zardo'zlik ustaxonalarining podsho saroylarida joylashganligi o'sha davrlarda uning podsholik poytaxti bo'lgan shaharlardagina taraqqiy etishiga olib kelgan. Masalan, zardo'zlik Somoniylar va G'aznaviylar davrida Buxoroda, Temuriylar davrida Samarqand va Hirotda gullab-yashnagan, Mang'it amirlari davrida yana Buxoroga ko'chgim. Xiva va Farg'ona shaharlarida ham birmuncha rivoj topgan. Ayniqsa, XVIII asr oxirida Buxoro xoni Amir Abdullaxon tomonidan zardo'zlik xususiy ustaxonalari ochishga ruxsat berilishi boshqa shaharlarga qaraganda Buxoroda zardo'zlikning gullab-yashnashiga sabab bo'ldi. Natijada 25 ta zardo'zlik ustaxonasi ochilib, ularda ishlaydigan zardo'zlar soni 350 taga yetgan.

Xususiy ustaxonalarda ishning taqsimlanishi va borishi podsho ustaxonalaridagidan farq qilgan. Podsho ustaxonalarda ish ishlab chiqarish bosqichlariga qarab taqsimlangan bo'lsa, xususiy ustaxonalarda ustaxona egasi hamma ishlarni o'zi

bajargan yoki 2 - 3 ta zardo'z ustalarni yollagan. Unga, albatta, shogirdlari ham yordam berishgan. Shogirdlarga zardo'zlik juda yoshligidan va uzoq muddat 4, 7, hatto 10 yillar mobaynida o'rgatilgan. Uste shogirdiga oq fotiha berib, «Shohimardon bobom haqqiga? belingga belbog' bog'ladim», deb beliga oq belbog bog'lasagina u «Usta» deb tan olingan va mustaqil ishlash huquqiga ega bo'lgan. Barcha xususiy ustaxonalar birlashib, maxsu uyushmaga uyushgan, eng hurmatli va tajribali usta bi uyushmaning oqsoqoli hisoblangan. Bu uyushmaning uning har bir a'zosi amai qilishi lozim bo'lgan rasm rusmlari yozib qo'yilgan risolasi bo'lgan. Unda zardo'zlikning kelib chiqishi to'g'risidagi rivoyat ham kelti rilgan. Bu rivoyatda aytilishicha, eng birinchi usto zardo' payg'arnbarimiz Yusuf alayhissalom bo'lgan ekanlar. Hazrati Yusuf husda va axloqda tengi yo'q yigit bo'lib, hu sababli tuhmatga qolib, zindonga tashlashadi. 'ayg'ambarimiz zindonda zerikkanlaridan quyoshning :arrin nurlariga o'xshash soch tolalaridan kashta tikib o'tirganlar. Ana shu voqeadan so'ng zardo'zlik kasbi paydo bo'lgan, deb ta'kidlanadi risolada. Risolani boshdan - oxirigacha yod olgan kishilar bo'lib, ularni «pirzoda»lar deb atashgan. Pirzodalar har payshanba va yakshanba kunlari zardo'zlik ustaxonalarini aylanib yurib, zardo'zlar qiroatxonlik majlislariga yig'ilganda, ularga risolada ko'rsatilgan zardo'zlik bilan shug'ullanish qonun-qoidalarini tuShuntirib berganlar

Keyinchalik, zardo'zlik sexlari birlashtirilib, Buxoro zardo'zlik fabrikasiga aylantirildi. Bu fabrika O'rta Osiyo hududida yagona bo'lib, qadimiy zardo'zligimizni asrab qolish va rivojlantirishda muhim roi o'ynadi. Zardo'zligi-mizning keyingi bir asrlik tarixi aynan ana shu fabrika tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu yerda zardo'zlik hunarmandchiligi sirlarini bobolaridan puxta o'zlashtirgan va uni kelgusi avlodlarga yetkazishda katta xizmatlar ko'rsatgan N. Aminov, N. Sultonov, R. Qoidosheva, M. Ahmedova, M. G'aybullayeva kabi usta zardo'zlarimiz yetishib chiqdi. Ular yoshlarga zardo'zlik sirlarini o'rgatish bilan birga o'zlari yaratgan bebaho zardo'zi buyumlari bilan bir necha marta sobiq ittifoq hamda jahon ko'rgazmalarida sovrinli o'rinlarni olib, zardo'zligimiz dovrug'ini butun dunyoga taratishga muvaffaq bo'lgan edilar. O'sha davrda fabrikada davlat buyurtmasi bilangina ko'rgazmalar, muzeylar, teatrlar uchun namoyon, so'zana, darparda, zarbof kiyim-bosh va uy-ro'zg'or buyumlari tikilgan. Bunday zardo'zi buyumlarga xalq ehtiyoji katta boisa-da, ular hisobga olinmagan, xalq hunarmandlariga ham bu ehtiyojlarni qondirishga yoi berilmagan.

Mustaqillikka erishgan kunimizdan boshlab davlati-mizning butun siyosati o'zligimizni qayta tiklash va mustahkamlashga qaratildi. Ayniqsa, mamlakatimiz ertasi bolgan yoshlarimizda bunday muqaddas his-tuyg'u hamda g'ururni shakllantirishda ona tilimiz, an'analarimiz va urf - odatlarimiz bilan birga milliy hunarmandchiligimiz ham muhim o'rin tutdi. Chunki davrlar silsilasida san'at darajasiga ko'tarila oigan milliy hunarmandchiligimiz namunalari o'zida ajdodlarimiz aql-zakovatini, mahoratini va mehr-muhabbatini aks ettirgan. Shu boisdan, qizil imperiya hukmronligi yillarida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ishlab chiqarish dastgohlarini sindirib tashlashga, ulardan meros bo'lib kelayotgan hunarmandchilik sirlarini unutishga, ular ijodi va mehnati samarasi bo'lgan durdona asarlarni o'tda kuydirishga majbur etishdi. Natijada bu sohada deyarli tadqiqot ishlari olib borilmadi, boz ustiga ko'pgina nodir namunalar'yo'qolib ketdi.

Mustaqillik barcha jabhalarda bo`lgani kabi milliy hunarmandchiligimiz rivojiga ham keng yol ochib berdi. Ajdodlardan meros bo`lib kelayotgan hunarmandchilik an'analari rivojlantirila boshladi.

Mustaqillikdan so'ng boshlanib ketgan ajdodlarimiz merosini, jumladan, xalq hunarmandchiligi turlarini qayta tiklash jarayonida yoshlarimizning faol ishtirokini ta'minlash. Ikkinchidan, har bir yosh hayotga qadam qo'yar ekan, avvalo o'zining halol yashash manbaiga ega bo`lishi va shu orqali iqtidoriga yarasha jamiyat rivojiga hissa qo'shishi lozim. Shunday ekan, yoshlar bilim olish bilan birga o'zlariga yoqqan biror kasb-hunarni puxta egallashlari kerak. Ota-bobolari shug'ullanib kelgan va jahonni lol qoldirgan xalq hunarmandchiligini o'rganish yoshlarimizga ana Shunday imkoniyatlar yaratadi.

EKOTURIZM VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI

*Tolibova Z.H.,
Buxoro*

Tabiat turizmi va ekologik turizm, turizmning oddiy turidandan nimasi bilan farqlanadi? Birinchidan, eng avvalo, ekoturizm—butun dunyoda tavsiya qilingan, yaxshi ahvolda saqlangan tabiat go`shalari (milliy va tabiiy bog`lar; rezervatlar va qo`riqlanadigan boshqa tabiiy hududlar) ga sayyohat qilish va u yerlarga tashrif buyurishdir. Ikkinchidan, ekoturizm muayyan, ancha qat'iy axloq qoidalariga rioya qilishni ko`zda tutadi. Bu qoidalarga rioya qilish shu soha rivojlanishidagi eng muhim shart hisoblanadi. Uchinchidan, ekoturizm tabiiy muhitga juda kuchsiz salbiy ta'sir ko`rsatadi, ya'ni, deyarli zarar qilmaydi. Shuning uchun uni ba'zan -yumshoq turizm deb ham atashadi.

Aynan shu sabab bilan ham u qo`riqlanadigan hududlarda tabiiy resurslardan foydalanuvchi yagona turizm bo`lib qoldi. To`rtinchidan, ekoturizm qoidalarida ko`zda tutilishicha, mahalliy aholi faqat xizmat ko`rsatuvchi xodimlargina bo`lib qolmay, balki, shu qo`riqlandigan hududda yashayveradi, oldingi hayot tarzini davom ettiradi, tabiatga zarar yetkazmagan holda o`z an'anaviy xoo`jalik faoliyatini yuritaveradi. Tabiiyki, bu hol mahalliy aholiga muayyan daromad keltiradi, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yordam beradi.

Beshinchidan, ekoturizm-sayohatchilar uchun hordiq chiqarishni, ko`ngil ochishni va ekologik bilimlarni oshirishni uyg`unlashtirgan turizmdir.

Shunday qilib, ekoturizm barqaror turizmga monand bo`lishi lozim. U uzoq muddatli davrni, ya'ni, hozirgi va kelajak avlodni ko`zda tutib, aniq etnik va madaniy xususiyatlarga moslashishi, ijtimoiy adolat talabalariga javob berishi, ekologik jihatdan beziyon, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq va foydali bo`lishi lozim.

Ekoturizmni faqat foyda keltiradigan soha deb hisoblash mumkin emas. Bu faoliyat turi agar maqsadga muvofiq doirada amalga oshirilmasa, uning qoidalari va talabalriga rioya qilinmasa, tabiatga jiddiy salbiy ta'sir qilishi va noxush oqibatlariga olib kelishi tabiiy. Uning salbiy oqibat va natijalari nimalardan iborat bo`lishi mumkin? Eng avvalo, o`simliklar nobud bo`ladi, payxon qilinadi, yer o`piriladi va tuproq zichlashib ketadi, hayvonlar bezovtalanadi, qochishga tushadi, bola ochishga xalaqit beriladi, ov natijasida yo`q qilinadi, ovqatlanish tarzi o`zgaradi, turlari ayniydi, ular notabiiy to`planadi, suvda yashaydiganlarining hayot tarzi o`zgaradi, suv

o`simliklariga ziyon yetadi, biotipning buzilishi, oziq moddalarning yemirilishi va yo`qolishiga olib keladi (togo`ldi joylarda, o`rmon yong`ini xavfi), suvning ifloslanishi va evtrofikatsiya yuz beradi, noyob turlar kamayadi, hayvonlarning hayot tarzi o`zgaradi, qoyalar yemiriladi, tashqi qiyofa xunuklashadi, marjon qoyalar shikastlanadi, baliqlar turi kamayadi, suv havzalari qirg`oqlaridagi o`simliklar payxon bo`ladi, qirg`oqdagi tuproq o`piriladi, zichlashadi, o`simliklar nobud bo`ladi, tasodifan hayvonlar shikastlanadi, hayvonlar turmush tarzi o`zgaradi.

Demak, ekoturizm doimo davlat, jamoat tashkilotlari nazoratida bo`lishi, unga doir qonunchilikka og`ishmay amal qilinishi lozim. Ekoturizmning barcha turlarini ikki asosiy guruhga tasniflash mumkin:

Mutaxassislar fikricha, Markaziy Osiyo hududida ekoturizmni amalga oshirishning keng imkoniyatlari mavjud. Bu mintaqada alohida qo`riqlanadigan tabiiy hududlar bor, ekosistemalar va landshaftli joylar turli-tuman va estetik jihatdan juda chiroyli, Shuningdek, ekologik va bioiqlimiy jihatdan maqsadga muvofiq, transport uchun qulay va infratuzilma mavjud, hududlar va yo`nalish (marshrut) lar ma`lum va mashhur.

Ekoturizmning maqsadlaridan biri noyob fauna va florani asrab-avaylash, kelgusi avlod uchun saqlashdan iborat. Yo`qolib borayotgan hayvon turlari, qushlar, reptiliyalar, baliqlar, oo`simliklar va hatto, hasharotlarga bo`lgan talab, tabiiyki, taklifning shakllanishiga olib keldi.

Shunday qilib, tabiat turizmi va ekologik turizm noyob va yo`qolib borayotgan turlarni muhofaza qilish bilan uzviy bog`liq, chunki ularning ko`pchiligi ekzotik hisoblanadi va ekoturizmning ob`ektlariga aylanadi. Bu faqat hayvon va oo`simliklargagina emas, balki, umuman, ekosistemalar va tabiiy komplekslarga ham taalluqlidir. Boshqa tomondan, notoo`go`ri rejalashtirish tufayli turistik yukning oshib ketishi, yovvoyi tabiat -sovg`alarining o`ziga xosligi va qimmatbaholigi ba`zi turlar muvozanati yo`qolishi va tabiat omillari buzilishiga sabab bo`lmoqda. Hududlarning noyob turlari va ekotuzilmani mahalliy jamoalar uchun hayotiy resurs deb qarash lozim. Shu bois ularning muhofazasi mahalliy madaniyatni himoya qilish bilan uzviy bog`liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Turizm to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Qonuni.1992-yil 9-dekabr.
2. "O`simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida" O`z.Res.qonunlari 1997-yil 26-dekabr.

РОЛЬ ТУРИЗМА В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА

Исомов Б.С.,

Бухарский Банковский колледж

В Узбекистане туристская деятельность относится к приоритетным секторам экономики, ее развитие способствует динамичному созданию рабочих мест, росту предпринимательской и инвестиционной активности, развитию инфраструктуры сервиса и гостеприимства, бережному природопользованию, повышению уровня качества жизни населения, расширению международного сотрудничества. Более чем в 60 субъектах разработаны и действуют программы

развития туризма, с успешной реализацией которых связано решение важнейших задач социально-экономического развития регионов [1].

Туризм как социально-экономическое явление оказывает определенное влияние не только на регион, в котором развивается, но и на материальную и духовную сферы деятельности человека и общества. Как экономическое явление - туризм связан с предпринимательской деятельностью, производством и предоставлением услуг, а как социальное - туризм неотделим от спроса на услуги и их потребление, неразрывно связан с потребностями людей, их отдыхом, доходами, образом жизни.

Существование и функционирование туризма напрямую зависит от уровня развития региона. Во-первых, для развития туризма в регионе, необходимо наличие туристских рекреационных ресурсов. Рекреационные ресурсы – это природные и антропогенные геосистемы, тела и явления природы, которые обладают комфортными свойствами и потребительской стоимостью для рекреационной деятельности и могут быть использованы для организации отдыха и оздоровления определенного контингента людей в фиксированное время с помощью существующей технологии и имеющихся материальных возможностей [1, 42]. Во-вторых, должна быть хорошо развита региональная инфраструктура рынка туристских услуг, сформирован свой туристский комплекс.

Рассматривая региональный туристский комплекс как систему, можно выделить подсистему предложения, состоящую из объектов туризма и из дополняющей их инфраструктуры. Для взаимосвязи этих двух элементов необходима организационная составляющая услуги, или организационные элементы туристского комплекса. Помимо подсистемы предложения существует так же подсистема спроса. Она включает в себя туристские агентства и организаторов поездок.

Таким образом, региональный туристский комплекс можно охарактеризовать как совокупность природных, культурных, исторических особенностей региона, элементов инфраструктуры, организационной составляющей, характеризующихся наличием стойкого массового потребительского рынка со структурно дифференцированным спросом.

Туристский комплекс как хозяйственная система обладает своим набором факторов производства, ресурсной базы и инфраструктуры от территориальной дислокации и связанных с ней природных факторов.

Выделяют три подхода к развитию туризма в регионах [2, 15].

Первый подход: региональная политика в некоторых секторах экономики, включая и туризм, не проводится индивидуально, а интегрируется в другие сектора. Необходимость решения проблем туризма в общем контексте социально-экономического развития региона обуславливается рядом причин:

Туристский комплекс – неотъемлемая часть хозяйственной и социальной системы территориального образования. На развитие экономики туризма оказывает заметное влияние кредитно-денежная система, развитие смежных отраслей, сфера услуг и т.д.

Развитие туристской индустрии требует значительную материальную базу, а так же

наличие большого количества участников, как на начальной инвестиционной стадии, строительства, реконструкции, так и на стадии функционирования предприятия.

Развитая сопутствующая инфраструктура, специализация на всех стадиях производства и реализации туристических услуг обеспечит окупаемость вложенного капитала, создание качественного конкурентоспособного продукта.

Второй подход: разработка самостоятельной региональной стратегии туризма. Данный подход подходит территориям с высокой туристической привлекательностью и развитым туристским сектором. Конечная цель – повышение конкурентоспособности территории.

Третий подход: сотрудничество с соседними административными единицами. Предусматривает общую техническую базу, координацию действий местной власти с государственной администрацией на региональном уровне и выше [2, 17].

Туризм в современном мире рассматривается как социально-экономическое явление, оказывающее прямое и опосредованное влияние на развитие всей связанной с ним инфраструктуры. Современный туризм базируется на высоком уровне развития транспорта, социальной сферы и сферы услуг, что, в конечном счете, превращает его в высокодоходную отрасль экономики.

Серьезнейшая проблема в развитии российского внутреннего туризма – несоответствие цен на предлагаемые услуги качеству этих услуг, особенно в части условий размещения, питания и перевозок, то есть в важнейших компонентах туристского сервиса. Историко-культурное наследие страны является важнейшим конкурентным преимуществом нашей страны. На поездки с культурно-познавательными целями приходится около 20% внутреннего туристского потока.

Оздоровительный туризм традиционно пользуется большим спросом, так как является наиболее значимым для сохранения здоровья, повышения уровня и качества жизни граждан. Уникальные природно-климатические ресурсы в ряде регионов, позволяют применять традиционные оздоровительные методики на курортах. Перспективным для развития данного направления является так же и Ташкентская область.

Растущий спрос на активный отдых позволяет прогнозировать интенсивное развитие горнолыжного и других видов активного туризма. В настоящее время некоторые регионы Чимкентского, Зоминского и Самаркандских регионов уже являются крупными горнолыжными курортами.

Доля экологического туризма в Узбекистана в общей структуре рынка около 1% [3,32]. Столь незначительный процент обусловлен тем, что многие экосистемы нашей страны высокочувствительны к антропогенным воздействиям. Основные регионы развития экологического туризма сосредоточены в Ферганской долине, благодаря богатому природному наследию, разнообразию флоры и фауны. Относительно новым и перспективным направлением, позволяющим приобщиться к традиционному укладу жизни населения, является сельский туризм. Суть данного вида туризма заключается в

отдыхе в сельской местности, где все организационное обеспечение проживания туристов берет на себя принимающая семья. Отличительными и привлекательными чертами являются чистый воздух, домашняя атмосфера, нетронутая природа, натуральные продукты, тишина. Важность данного направления заключается в том, что такой вид туризма может стать существенным источником, как основного, так и дополнительного дохода населения, особенно в депрессивных регионах.

Для того чтобы туристическая индустрия приносила немалый доход в бюджет региона, необходимо инвестирование как на государственном уровне (долгосрочные программы развития), так и региональном (инвестиции местных предприятий и органов власти). Поскольку туризм во всем мире является очень прибыльной сферой, инвестирование в него связано с наименьшими рисками. При разумной инвестиционной политике в регионе возможно привлечение и иностранных инвестиций. Однако капиталовложения в сферу туризма не приносят прямого дохода, туризм не обеспечивает возврата вложенных инвестиций в краткосрочном периоде, поэтому трудно определить источники финансирования и принадлежность инвестиций.

Бюджетные поступления предполагаются за счет увеличения налоговых поступлений от развития и создания объектов туристской инфраструктуры и работы организаций сферы туризма. В связи с повышением занятости населения улучшится экономическое развитие регионов, что приведет к бюджетной экономии.

Безусловно, занятость населения решает и социальную проблему. Создание дополнительных рабочих мест и развитие инфраструктуры отдыха и туризма приводит к улучшению качества жизни граждан, а так же удовлетворяет потребности в активном и полноценном отдыхе, укреплении здоровья, приобщении к культурным ценностям, патриотическим воспитанием молодого поколения страны.

В отличие от других отраслей экономики туризм не приводит к истощению природных ресурсов, а наоборот прививает бережное отношение граждан к природе, флоре и фауне страны. Таким образом, исходя из вышеизложенного, получен вывод, что прямое, косвенное и опосредованное влияние индустрии туризма на социально-экономическое развитие регионов Узбекистана неоспоримо. В настоящее время наша страна обладает огромным потенциалом для развития мощного туристического рынка внутри страны, главное научиться грамотно и рационально использовать туристическо-рекреационные ресурсы. Создание качественной туристической инфраструктуры, лояльная кредитная политика для инвесторов, качественная подготовка кадров – приведут к повышению конкурентоспособности страны на рынке туризма. Придерживаясь стратегии развития, внутри каждого региона можно создать индивидуальный туристический кластер, который поможет вывести экономики регионов на новые уровни, удовлетворить нужды и потребности граждан в качественном отдыхе, создать благоприятный туристический имидж страны на внутреннем и мировом рынках.

На сегодняшний день, важнейшей задачей является создание

качественного и привлекательного туристского продукта, а обладая практически неисчерпаемыми рекреационными ресурсами, - это возможно. Достаточно грамотно распорядится потенциалом страны, продуктивно работать над созданием качественной туристской инфраструктуры, решить проблемы инвестирования отрасли и подготовки кадров. Наиболее верным решением, в развитии туризма будет кластерный подход. Каждый из многочисленных регионов нашей страны уникален по-своему, именно на эти особенности необходимо делать акцент. Индивидуальный подход к развитию не только повысит имидж и конкурентоспособность страны на внутреннем и мировом рынках, но и поможет вывести экономики регионов на совершенно новый уровень, а так же удовлетворить нужды и потребности граждан в качественном отдыхе.

Список литературы:

1. Биржаков М. Б. Введение в туризм – Издание 9-е, – Т., 2007 г. 54 с.
2. Менеджмент туризма: Туризм и отраслевые системы: учебник. – М.: Финансы и статистика, 2001 г. 342 с.
3. Овчаров, А.О. Туристический комплекс: тенденции, риски, перспективы / А.О. Овчаров. – М.: Инфра - М, 2008 г. 215 с.
4. Туризм Узбекистана. Статистический сборник. – Т.: 2014 г. 62 с.

СОВРЕМЕННЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ

*Кадирова М.М.,
БухГУ*

В современной экономике туризм является одной из важных сфер, поскольку туризм — это, в первую очередь доход, образование рабочих мест, а также, стимул для развития всех регионов страны. Туристическая отрасль является лидером среди других отраслей по степени мультипликативного влияния на экономику. На текущий момент существуют разные формы, виды и разновидности туризма. Наряду с огромным разнообразием видов путешествий существует большое разнообразие туристических услуг, которое определяется тем, что туристы совершают путешествия с разными целями, выдвигают неодинаковые требования к туристическим услугам, готовы и способны заплатить за них разную цену. Для повышения конкурентоспособности узбекского туристского рынка, удовлетворяющего потребности узбекских и иностранных граждан в качественных туристских услугах.

В настоящее время для продвижения туризма возникает необходимость использования современных информационных технологий, предоставляющих доступ к информационно-виртуальным ресурсам: познавательным, вспомогательным и организационным ресурсам. Сегодня применение информационных и интернет-технологий рассматриваются чуть ли не основным инструментом повышения эффективности туристического бизнеса. В условиях растущей конкуренции вопросы дополнительных средств повышения рентабельности бизнеса стоят наиболее остро. Познавательные ресурсы подразумевают собой специализированные порталы, виртуальные туры, сайты

туроператоров и туристических агентств. Порталы, как и сайты, дают возможность туристическим фирмам заявить о себе, а конечному потребителю — узнать о предлагаемых услугах, турах и возможностях конкретной турфирмы.

К вспомогательным ресурсам относится интернет-картографирование, под которым понимается, отрасль картографии, суть заключается в информационно-картографическом моделировании геосистем. На сегодняшний день в туризме активно применяются, такие инновационные технологии, как интернет-карты, которые служат справочным пособием и путеводителем для общего обзора, знакомства с районом путешествия, ориентирования на местности, получения необходимой информации о размещении достопримечательностей. Интернет-карты классифицируются следующим образом:

- статичные карты;
- интерактивные карты;
- электронные справочные карты и атласы.

Статичные карты позволяют лишь констатировать факт наличия определенной информации о картографируемых объектах. Все больше появляется карт второй группы, так называемых интерактивных карт, на сайтах различных организаций, деятельность которых так или иначе связана с пространственной привязкой. Такие карты позволяют пользователю отключать или подключать тематические слои, интересующие пользователя. Третья группа интернет-карт представляет собой геоинформационные справочные системы, которые в основном размещаются на CD-ROM. Такие карты дают пользователю наиболее полную информацию об интересующих объектах и в большей степени используются для исследований. Организационные ресурсы включают электронные средства резервирования и электронные средства оплаты. Взаимодействие туроператора с информационными системами бронирования создает возможности: расширения рынка сбыта туристской продукции; формирования списка потребителей; оперативного управления своей деятельностью; анализа спроса на туристскую продукцию; планирования маркетинговой деятельности и многое другое. Для турагентств системы бронирования являются незаменимым инструментом, позволяющим предоставлять клиентам услуги высокого класса.

Информационные технологии, безусловно, благоприятно влияют на развитие индустрии туризма, в частности его экономической составляющей. Преимущества при использовании информационных технологий в туризме следующие:

- развитие информационных технологий в сфере туризма будут способствовать повышению популярности туристского спроса;
- популяризация и упрощение доступа к информации о туристских маршрутах;
- обоснование благоприятности условий для инвестиций в средства размещения туристов и иную туристскую инфраструктуру;
- популяризация и продвижение перспективных проектов в области туризма.

Таким образом, без информационных технологий невозможно представить деятельность современной туристской отрасли, она стала одним из динамично

развивающихся сфер услуг. Инновации используются во всех основных бизнес-процессах внутри туристической компании, начиная от поиска и привлечения клиентов в качестве коммуникационного и маркетингового инструмента и заканчивая формированием туристского продукта.

Следующее направление использования инновационных информационных технологий — это объединение усилий одновременно туристической фирмы, страхователя, транспортной компании, экскурсионного бюро, отелей, заведений питания для создания информационных туристических продуктов, которые позволят через Интернет потребителю выбирать услугу, а для участников формировать конкурентоспособную товарную, ценовую, инвестиционную и сбытовую политику.

Одновременно, информационные технологии в туристические области, которые будут использоваться для организации гостинично-ресторанного бизнеса, по нашему мнению, лучше отнести к организационно-управленческим.

В последние годы получает распространение при организации гостиничного бизнеса использование технологий «умный дом», что позволяет более рационально использовать все имеющиеся ресурсы (воду, электроэнергию, теплоэнергию и т. п.), ведь всем известно, что именно гостиницы являются одними из крупнейших потребителей этих ресурсов. Поэтому, в 2010 году в США впервые был проведен конкурс Sustainable Suite Design Competition, организованный U. S. Green Building Council и ASID (Американской ассоциацией дизайнеров интерьеров). Конкурсным заданием для дизайнеров интерьеров стало создание проектов гостиничного номера, что соответствует современным понятиям об ответственности по отношению к окружающей среде, которые одновременно стали бы новым позитивным опытом для клиентов. Делался акцент на потребление воды, окружающая среда, энергоэффективность, материалы, внутреннюю среду. По нашему мнению, такая технология позволяет повысить эффективность и производительность системы управления гостиничным бизнесом и создает предпосылки для его конкурентоспособности, ведь позволяет совместить безопасность, комфорт и технические возможности.

Следующее направление — это использование современных автоматизированных систем для организации безопасности в гостиницах и ресторанах, управления инженерной инфраструктурой, складским хозяйством и тому подобное, что позволяет не только упорядочить процесс управления, но и рационально использовать все имеющиеся ресурсы.

К техническим инновационным технологиям следует отнести внедрение человекоподобных роботов, которые создали японские ученые для уменьшения влияния человеческих чувств на качество организации работы отелей и ресторанов. Данные работы создаются для решения проблем с массовым скоплением людей, что позволит продуктивно организовывать работу. В 2009 году для улучшения работы с обслуживающим персоналом гостиниц компанией MTech было предложено приложение REX Room Expeditor для мобильных средств Apple iPhone/iPod. Сюда можно также отнести использование WI-FI — технологий в гостиницах и ресторанах, DVD-плееры и телевизоры с

плазменными панелями. В частности, если вы проснулись среди ночи в «Royal Suite» и хотите пойти в ванную, вам не придется блуждать в темноте. На краю кровати есть маленькая кнопка. Нажимая на нее, тропа в ванну начинает неярко светиться под ногами. Причем нигде нет никаких проводов — они надежно спрятаны под пол и в ножки мебели. Следующая технология — это использование терминалов для бронирования мест и разных отелей. Портал Prohotel.ru — это не только социальная сеть для специалистов сегмента Noreca, но и удобная площадка бронирования. Площадка бронирования портала «Prohotel.ru» содержит большой, регулярно обновляемый каталог отелей всего мира, благодаря чему у пользователя не возникает проблем с выбором гостиничного объекта. Забронировать апартаменты можно прямо на сайте портала. Для этого достаточно перейти в раздел «Гостиницы» (Prohotel Reservation Service). Система бронирования просит пользователя ввести название страны и города, а потом выдает все варианты. Ориентируясь на описание и фотографии гостиничных апартаментов, пользователь может забронировать понравившиеся ему апартаменты.

Таким образом, инновационные технологии в туристической отрасли являются требованием времени, что позволяют не только повышать качество услуг, но и рационально использовать все имеющиеся ресурсы как для туристов, так и для владельцев туристического бизнеса. Инновационные технологии в туристической отрасли, которые позволяют открывать новые возможности для инноваторов и делают туризм доступным для разных категорий населения.

Литература:

1. Дербенов Ч. Ю. Информационные системы и информационно-коммуникационные технологии в бизнесе: Учебное пособие. — Ростов-на-Дону: Медиаграф, 2016. — 152 с.
2. Раклов В. П. Картография и ГИС: Учебное пособие. — 2 изд.— М.: Академический проект, 2014. — 224 с.
3. Чудновский А. Д., Жукова М. А. Информационные технологии управления в туризме: Учебное пособие. — 4 изд., стер. — М.: Кнорус, 2016. — 102 с.

O'ZBEKISTON MEHMONXONA XIZMATLARINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

*Axmedov Behzod, talaba
Toxirov J.R., ilmiy rahbar
Buxoro davlat universiteti*

Hozirgi vaqtda mehmonxona korporatsiyalari mehmonxona xizmati bozorida mustahkam o'rnashib olgan. Butun dunyodagi katta shaharlarida ulkan mehmonxona zanjirlariga tegishli mehmonxonalar mavjud. O'zbekiston ham bunda orqada emas. Hozirgi kunda dunyo mehmonxona zanjirlari O'zbekistonning mehmonxona bozorini aktiv holatda egallamoqda. Ko'pgina shaharlarda asosan poytaxtda dunyoning ulkan mehmonxona zanjirlari nomi paydo bo'lyapti. Mehmonxona zanjiri bu bir xil dizayndagi, bir xil darajadagi xizmatlar turi, bir xil xizmatlar, mijozga bir muomala, munosabat, qarash yo'lining o'xshashligini o'z ichiga oladigan mehmonxonalarning

birlashgan holatdagi jamlanmasidir. Odatda mehmonxona zanjirigi tegishli bir mehmonxona boshqa mehmonxonaning qandayligi haqida guvoh bo'lishi mumkin. Shunday qilib, mehmonxona zanjirlariga tegishli mehmonxonalar material-texnikaviy va xizmatlarning bir xilligiga qattiq rioya qilishadi. Mehmonxona zanjirlari bir davlatda yoki bir necha davlatlarda faoliyat yuritishadi ya'ni milliy yoki xalqaro bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtda dunyoda 100 dan ortiq mehmonxona zanjirlari mavjud bo'lib, jami nomerlar fondi 2 000 000 dan ortiq.

Eng katta mehmonxona zanjirlariga quyidagilar kiradi:

1. Holiday INN;
2. Best Western;
3. Sheraton;
4. Ramada INN;
5. Accor;
6. Hilton Corporation;
7. Club Med;
8. Novhotels;
9. Marriot International;
10. HFS Ink va h.k.

Mehmonxona zanjirlarining bilimi qanchaligi ularning dunyo bozoriga qay darajada kirib borishiga va u yerda o'z mavqeiga ega bo'lishiga yordam beradi. Ko'pgina mehmonxonalar zanjirlarining boshqarmasi AQSHda joylashgan. Lekin asosiy foyda boshqa davlatlardan olinadi.

Mehmonxona zanjirlarining turizmdagi roli shu bilan birga iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uchun hech shubhasiz asosiylardan hisoblanadi.

Mehmonxona zanjirlari ishlab chiqarish darajasining ko'tarilishiga va turistlarga xizmatning yaxshilanishiga olib keladi. Mehmonxona zanjirlarida yaratilgan dizayn, xizmat va boshqalar bo'yicha aniq ko'rinishni boshqa davlatlarda uchratgan turistlar, shu zanjirning boshqa davlatdagi mehmonxonalarida uchratib, shu o'xshash qulayliklarda o'zlarini uydagidek his etadilar.

1950 - yillardan boshlab dunyo mehmonxona industriyasida mehmonxonalar ishini tashkil etishning xilma – xil modellari o'rnatildi.

Маълумки, ҳар бир ҳудуд иқтисодиётининг бирор-бир йўналишда ихтисослашуви ундаги мавжуд ресурсларнинг нисбий, баъзан эса абсолют устунлигидан келиб чиқиши лозим. Халқаро амалиётда қабул қилинган ушбу тамойил, ҳар бир ҳудудда ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг самарали параметрларига эга миллий хўжаликларни яратиш имконини берувчи ресурслар дастаги мавжудлигини эътироф этади. Фикримизча, Бухоро вилоятида шундай кучли дастаклардан бири туризм ва мавжуд туристик ресурслар ҳисобланади.

Туризм жаҳон иқтисодиётининг барқарор ривожланиб бораётган тармоқларидан бири ҳисобланиб, ушбу соҳа мутахассислари томонидан “келажак индустрияси” сифатида эътироф этилмоқда. БТТнинг “Халқаро туризм Барометри” кўрсаткичларига асосан 2014 йилда халқаро кирувчи туристик оқимнинг ўсиш даражаси 2013 йилга нисбатан 4,3 фоизни ташкил этган. Агар ушбу тенденция сақланиб қолса, 2030 йилда дунё бўйича халқаро туристлар сони 1,8 млрд. кишига етади [1]. Шу сабабли, туризм соҳаси жаҳон иқтисодиётининг кейинги юз йилликдаги ривожланишини белгилаб берувчи тармоқлар қаторига киритилган. Бу борада таниқли америкалик футуролог Дж. Нэйсбитнинг фикрича, ривожланишнинг кейинги босқичларида туризм ўз кўламига кўра фақатгина телекоммуникациялар ва ахборот технологиялари соҳасидан кейинги ўринни эгаллайди.

Туризм нафақат ривожланган, балки, ривожланаётган, ҳаттоки, нисбатан кам ривожланган мамлакатлар ва ҳудудлар ижтимоий-иқтисодий тараққиётининг қудратли катализатори ҳисобланади. Халқаро меҳнат ташкилотининг маълумотларига кўра, бугунги кунда халқаро туризм тизимида дунёни меҳнатга лаёқатли аҳолисининг 276845 минг кишиси банддир[2]. Шунингдек, бу тармоқда яратилган битта янги иш ўрни саноат тармоғига нисбатан 20 баробар арзонга тушади [3]. Бирор-бир мамлакатга ташриф буюрувчи ҳар 30 та турист бевосита битта ёки билвосита иккита янги иш ўринларини барпо қилишга имконият яратади [4]. Демак, хулоса қилиш мумкинки, ҳудудий иқтисодиётининг бошқа тармоқларга нисбатан туризм соҳаси камроқ сарфхаражатлар эвазига кўпроқ иш ўринларини яратиши ва валюта тушумларини таъминлаши мумкин. Шунини алоҳида таъкидлаш лозимки, туризмнинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти унинг мультипликатив самарасига асосланади. Таниқли польшалик олим Ирена Енджейчик таъкидлашича: «мультипликатив самара туфайли туризмда яратилган янги битта иш ўрни туризм билан боғлиқ бошқа тармоқ ва соҳаларда янги еттига иш ўрнини яратади» [5]. Айнан ана шу куч туфайли туризм катта рекреацион имкониятларга эга бўлган мамлакат ва ҳудудларда ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг янги босқичини бошлаб бериши мумкин. Демак, Бухоро вилоятида мавжуд туристик

салоҳият, бой тарихиймаданий мерос, қулай табиий-иқлим шароитларидан самаралироқ фойдаланган тақдирдагина, ҳудуд иқтисодиётини янада юксалтирувчи шундай кучга эга бўлиши мумкин.

Аммо, бугунги кунда Бухоро вилоятида туризм тармоғининг ривожланиши ўзининг тўлиқ имкониятлари даражасига етгани йўқ. Ҳудуд миқёсида туризм тармоғининг иқтисодиётга таъсирини аниқлаб берувчи кўрсаткичлардан бири ушбу соҳада яратилган қўшилган қийматнинг ялпи ҳудудий маҳсулотдаги улуши ҳисобланиб, 2014 йилда у 0,6 %га (туристик экскурсион ва меҳмонхона хизматлари) яқин кўрсаткични ташкил этиб, республика миқёсидаги мос кўрсаткичидан (ушбу даврда туристик-экскурсион ва меҳмонхона хизматларининг мамлакатимиз ЯИМдаги улуши 0,25 фоизга яқин) юқори бўлишига қарамай, туризмни ҳудуд иқтисодиётининг етакчи тармоқларидан бири сифатида ривожлантирувчи баъзи мамлакатлар ва ҳудудларга нисбатан анча пастдир (мисол учун, 2014 йилда туризм тармоғининг мамлакат ЯИМдаги улуши Мальтада –25,5 %, Кипрда –20,6 %, Юнонистонда – 16,3 %, Испанияда – 15,7 %, Португалияда 15,6 %, Туркияда 12,6 %ни ташкил этган [2]). Бундан ташқари, Бухоро вилоятида туристик хизматлар умумий ҳажмининг жами товар ва хизматлар экспорти ҳажмидаги улуши 2014 йилда 6%ни ташкил этди. Бу эса, ўз навбатида, туризм тармоғининг ҳудудий иқтисодиётнинг асосий экспорт қилувчи тармоғи сифатидаги истиқболлини белгилаб беради.

Америкалик иқтисодчи-олим М.Портер дунё миқёсида турли тармоқлар доирасида фаолият юритувчи юқори рақобатбардошлик ўринларни эгаллаган ташкилотларнинг фаолиятини ўрганиш юзасидан илмий изланишлар олиб борган. У ўз тадқиқотлари натижасида, халқаро миқёсда битта тармоқдоирасидаги ўзаро рақобатбардош ташкилотларнинг географик жойлашуви жиҳатидан тизимсиз равишда турли хил давлатларда сочилиб кетмасдан, балки айнан битта давлат, ҳаттоки битта ҳудуд доирасида концентрациялашув хусусиятига эга эканлигини аниқлаган. Ушбу ҳолатнинг юзага келиши тасодиқий эмас. Халқаро бозорда бир ёки бир гуруҳ ташкилотлар рақобатбардошликка эришгач, ҳудудий жиҳатдан ўзларига географик жиҳатдан яқин жойлашган хомашё етказиб берувчи ташкилотлар, рақобатчи ташкилотлар ва бир қатор бошқа ҳамкор ташкилотларнинг иқтисодий фаолияти ва ҳолатига таъсир эта бошлайдилар. Шу билан биргаликда, уларнинг ютуқлари мазкур ташкилотлар рақобатбардошлигининг ошишига ижобий таъсир этади. Бунинг оқибатида “кластер”, яъни бир-бири билан узвий боғланган, ҳамда рақобатбардошлигини ўсишига ўзаро қўмаклашувчи ташкилотлар уюшмаси вужудга келади. М.Портер, ҳудуд рақобатбардошлигини оширишнинг асосий ҳаракатлантирувчи кучи бўлмиш кластерлар: “ташкилотлар, давлат тузилмалари ва бошқа ҳамкорлик ташкилотлари (университетлар) ўртасида ўзаро мулоқот ўтиши мумкин (ҳаттоки зарур) бўлган майдонни ташкил этади”, - деб таъкидлайди [6].

Бухоро вилоятида мамлакатимизнинг бир қатор бошқа ҳудудларига нисбатан кенроқ доирадаги туристик ресурслар мажмуасининг мавжудлиги, унинг ҳудудида нисбатан юқори натижаларни намоён этувчи миллий туристик ташкилотларнинг сон жиҳатдан нисбий устунлиги мавжудлиги борасидаги

тахминни келтириб чиқаради. Бунда миллий туристик ташкилотларнинг битта ҳудуд доирасида нисбий концентрациялашуви, ҳудуд рақобатбардошлигини оширишда кластерли услубдан фойдаланиш имконини келтириб чиқаради.

Шундай қилиб, Бухоро вилоятида ҳудудий туристик кластерни шаклланиш жараёнини таҳлил қилиш мақсадида “интеграл локализация коэффиценти”дан фойдаландик. Бугунги кунда “ҳудудий иқтисодиёт”, “минтақавий иқтисодиёт”, “иқтисодий география” йўналишида олиб бориладиган илмий изланишларда, ҳамда ушбу йўналишда яратилган илмий асарларда муаллифлар томонидан бирор-бир ҳудуднинг маълум бир ишлаб чиқариш соҳасига ихтисослашувчи даражасини аниқлашда локализация коэффицентида фойдаланилади.

Фикримизча, мазкур кўрсаткичдан ҳудуднинг туризмга ихтисослашуви даражасини, ҳамда ҳудудий туристик кластернинг шаклланиши имкониятларини аниқлаш учун ҳам фойдаланиш мумкин. Ҳудуднинг туризм соҳасига ихтисослашуви даражасини аниқлашда қуйидаги таклифни ишлаб чиқдик: мамлакат ва ҳудуд миқёсида туризм инфратузилмасининг ривожланганлиги акс эттирувчи бир қатор индикаторлар ёрдамида локализация коэффицентлари миллий ва ҳудуд даражалари учун алоҳида-алоҳида аниқланади, ҳамда уларни таққослама таҳлил қилиш орқали тегишли хулосалар қилинади.

Бундан ташқари интеграл локализация коэффиценти статистик маълумотлардан келиб чиққан ҳолда бутун вилоят учун ҳисобланди. Ваҳоланки, ҳудуд чегаралари қисқартирилиб, унинг туризм соҳасига ихтисослашганлик даражаси юқори бўлган алоҳида ҳудудлари бўйича ҳисобланганда (масалан, Бухоро шаҳри бўйича), локализация коэффиценти оптимал даражадаги қийматни қабул қилган бўлар эди. Ушбу ҳолат эса, Бухоро вилоятида ҳудудий туристик кластерни шаклланиши ва ривожланиши учун тўлиқ даражада асос бўла олади.

ИЖТИМОЙ ТУРИЗМ ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТУВЧИ БОЛАЛАР ОРОМГОҲЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

*Умарова С.М., ўқитувчи,
БухДУ*

Ҳозирги даврда туризм мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришга катта таъсир кўрсатадиган, бюджет даромадларига катта хисса қўшадиган соҳалардан бири ҳисобланади. Бу соҳанинг ривожланиши мамлакатнинг жаҳон иқтисодиётига интеграциясига, ички иқтисодий тузилмаларнинг такомиллашишига, туризм билан боғлиқ равишда фаолият олиб борувчи соҳаларнинг ривожланишига ижобий таъсир қилади. Аммо саёҳат қилиш, доимий яшаш жойидан ўзга жойда дам олиш, янги ҳудудларни қуриш ёки шифобахш ҳудудларда саломатлигини тиклаш учун молиявий маблағлар талаб этилади. Бу маблағлар керакли манзилга етиб бориш, тунаш ва жойлашиш, овқатланиш ва шу каби турли хизматлардан фойдаланганлиги учун тўловларга сарфланади. Саёҳатнинг яқин ёки узоқлиги ушбу маблағлар сарфланишининг кўп ёки камлигини белгилайди. Демак саёҳат қилиш имкониятига фақат молиявий таъминланган аҳолигина эга бўлади. У ҳолда ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли қатламлари бу ҳуқуқдан фойдалана олмайдими? Дам олиш ёки соғломлаштириш

учун улар маблағни қаердан ва кимдан олишлари керак? Бу муаммони ҳал қилишда ҳам мамлакатда олиб бориладиган ижтимоий ҳимоя сиёсати ёрдам беради.

Собиқ Иттифоқ даврида тенг даромад, тенг ҳуқуқлилиқ тамойили ҳуқумронлиқ сурган вақтда ишчи хизматчилар, нафақахўр ва ногиронлар, болалар ва ўсмирларнинг дам олиш ва саломатлигини тиклашлари учун инфратузилмалар яратилган бўлиб, бу фаолият турли иқтисодий тармоқлар таркибидаги соғломлаштириш масканлари, болалар оромгоҳлари орқали амалга оширилган. Собиқ Иттифоқ парчаланганидан сўнг бу тизим бироз издан чиқди десак муболаға бўлмас. Чунки иқтисодиёт тармоқларига тегишли бўлган дам олиш масканлари ва болалар оромгоҳлари турли мамлакат ҳудудларида қолиб кетишди, марказлашган тизим парчалангандан сўнг улар ўз фаолиятларини вақтинчалиқ тўхтатишди ёки тўлиқ хўжалиқ тизимига ўтишди. Ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли қатламларининг саёҳат қилиш, дам олиш ва саломатлиқларини тиклашга бўлган ҳуқуқларини таъминлашга Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш бошқармаси, Касаба уюшмалари бошқармаси, Соғлиқни сақлаш вазирлиги ва Халқ таълими бошқармалари зиммасида қолдирилди.

Кам таъминланган фуқароларга ижтимоий туризм хизматларини ташкиллаштириш бўйича фаолият ўзининг тарихий асослари билан XIX асрга бориб тақалади. Бу даврда Европа мамлакатларида ёзги лагерлар (1875 йил) ва оилавий пансионатлар (1890 йил) ташкил этила бошланди. Ўша даврда туристлар контингенти асосан нафақахўрлар, ногиронлар, ўсмирлар, кўп фарзандли оилалар ҳисобидан шаклланган ҳамда ассоциацияли ҳаракат шаклини олган, шу билан биргаликда ижтимоий туризм манфаатларига мос келган: ўзларининг тўловга қобилиятининг пастлиги замирида дам олишни ташкиллаштириш муаммосини ҳал қилиши мумкин бўлган истеъмолчилар ҳамда бу фаолият мавсумий ўзгаришлар натижасидаги талабнинг ўзгаришини текислашга, жойлаштириш, транспорт, овқатланиш объектлари қувватининг тўлиқ ишлатилишини таъминлашга ҳаракат қилувчи туристик хизматларни етказувчилар.

Туризмга, хусусан ички туризмни ривожлантиришга эътиборнинг кучайишини қабул қилинган турли меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда кўриш мумкин. Ўзбекистоннинг барча вилоятларида туризм инфратузилмасини ривожлантириш, сайёҳларга кўрсатилаётган хизматлар сифатини ошириш, соҳада малакали кадрларни тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш, ички ва халқаро туризмни янада ривожлантириш мақсадида вилоят ҳокимлари, шаҳар ва туман ҳокимликлари, Вилоят ҳокимлиги Халқ таълими бошқармаси ва Ўрта махсус касб-хунар таълими бошқармаси, «Нуроний» жамғармаси вилоят бўлимлари, Оқсоқоллар кенгаши ва «Маҳалла» хайрия жамғармаси вилоят бўлимлари, Касаба уюшмалари вилоят кенгашлари, «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракати вилоят кенгашлари, Туризмни ривожлантириш Давлат қўмитаси билан биргаликда Ўзбекистон фуқароларининг, айниқса ёшларнинг маданий-маърифий савиясини ошириш ва ички туризмни янада ривожлантириш мақсадида Республика бўйлаб саёҳатларни ташкил этиши бўйича амалий

ишларни ташкил этиб бормоқдалар. Ушбу тадбирларга турли манбалар маблағлари ҳисобига турли аҳоли қатламлари учун Тошкент, Бухоро, Хива, Самарқанд, Шаҳрисабз шаҳарлари ва Фарғона водийсига саёҳат қилиш учун махсус турларни ташкил этиш, ички туризмни янада ривожлантириш мақсадида мамлакат аҳолиси учун комплекс тарзда тарихий обидалар, маданий-маиший объектлар, ўқув муассасалари ва театрларга экскурсиялар ташкил қилиш кабилар киритилган.

Ҳозирги кунда Ўзбекистонда ижтимоий туризм хизматлари болалар ва ёшлар оромгоҳлари, санаторийлар ва дам олиш уйлари томонидан ижтимоий ҳимоя тизими орқали имтиёзли йўлланмалар эгаларига кўрсатиладиган хизматлар ҳисобланади. Ушбу хизматларни Касаба Уюшмалари Федерацияси, Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги, “Ёшлар иттифоқи” ва бошқа ташкилотлар балансида турган болалар ва ёшлар оромгоҳлари, санаторийлар ва дам олиш уйлари орқали истеъмолчиларга етказилади.

Ўзбекистонда болалар ёзги дам олишни ташкил этишнинг ўзига хос томонларини ажратиш имконини берди. Ҳозирги кунда болалар туризми Ўзбекистон Касаба уюшмаси томонидан ташкил этилади. Ўзбекистон Касаба уюшмалари Федерацияси Кенгаши раёсати томонидан 1996 йил 15 мартда 6-22 сонли қарори билан тасдиқланган «Болаларни соғломлаштириш оромгоҳи тўғрисидаги Низом»да болалар ёзги оромгоҳларини ташкил этиш бўйича мезонлар алоҳида эътироф этилган: болалар соғломлаштириш оромгоҳлари 7 ёшдан 14 ёшгача бўлган ўқувчиларга мўлжалланган; болалар оромгоҳлари корхона, ташкилот, ўқув юрти балансида бўлиб, касаба уюшмалари улардан бепул фойдаланади; таътил вақтига қараб болалар соғломлаштириш оромгоҳларига: ёзги таътилда 18-21 кун, кузда 7-8 кун, қишда 8-10 кун, баҳорда 10-12 кунга йўлланмалар берилиши мумкин; давлат бюджети ва турли нодавлат жамғармалари, корхоналар ва ота-оналар ҳисобидан молиялаштирилади. Молиялаштириш манбаларига қуйидагиларни киритиш мумкин: ижтимоий суғурта маблағлари (ягона ижтимоий йиғимнинг 0,1 % (1-илова) [1]), касаба уюшмалари маблағлари (1 %лик бадаллар ҳисобидан), хўжалик маблағлари (давлат корхоналаридан ташқари) ва ота-оналар маблағлари. Давлат бюджети ҳисобидан оромгоҳ ташкил қилинаётганда маблағ билан таъминлаш манбалари қуйидагича шаклланади: 75 %гача – ижтимоий суғурта, 20 %гача - касаба уюшмалари, 5 %гача ота-оналар бадаллари ҳисобидан. Бошқа манбалар ҳисобидан оромгоҳ ташкил қилинса, маблағ билан қуйидагича таъминланади: 50 %гача – ижтимоий суғурта, 20 %гача - касаба уюшмалари, 25%гача хўжалик субъектларидан ва 5 %гача ота-оналар бадалларидан [2]. Аммо, хўжалик субъектлари балансида турган болалар ёзги оромгоҳларига йўлланмаларнинг намунавий калькуляциясига биноан йўлланмаларнинг тўлиқ қийматининг 35,5%ини ижтимоий суғурта маблағларидан, 17%ини касаба уюшмалари маблағларидан, 25 %и хўжалик ташкилотлари маблағлари ва 22,5 %ини ота-оналар маблағлари ҳисобидан қопланади. Йўлланмаларнинг 77-78 %ини овқатланишга, 20-22 %ини ходимлар иш ҳақларига, 1 %и маданий тадбирларга ҳамда фақат санатория типигаги оромгоҳларда 1 %и соғломлаштириш муолажаларига сарфланади.

Ижтимоий туризм соҳасининг халқаро тажрибасида хизмат кўрсатувчи объектлар қуйидаги хусусиятларга эга:

- Францияда амал қилувчи таътил чеклари тизими барча турдаги социал туризм объектларини ўзида мужассамлайди, яъни ушбу тизимни назорат қилувчи ташкилот истеъмолчилар ва хизмат кўрсатувчиларнинг ягона бозорини ташкил этишга хизмат қилади;

- бир турдаги социал туризм хизматларини кўрсатувчи объектлар хизматлар сифатини ва рақобатбардошлигини ошириш мақсадида уюшмалар ёки ассоциацияларга бирлашмоқда (Халқаро социал туризм бюроси, Болалар оромгоҳлари халқаро ассоциацияси, Ёшлар ва талабалар туризми ассоциацияси ва ҳоказо);

- кўрсатиладиган хизматлар сифатини ва рақобатбардошлигини ошириш мақсадида ташкил этилган бирлашмалар доирасида фаолият кўрсатиш ва хизматлар сифатини белгиловчи стандартлар, лицензиялаш тартиби белгилаб олинади;

- ташкил этилган бирлашмалар социал туризм хизматлари истеъмолини халқаро туризм даражасида олиб боришга асосий восита ҳисобланади;

- халқаро миқёсда фаолият кўрсатувчи айрим ассоциацияларга аъзо бўлиш, кўрсатиладиган хизматларнинг сифатини белгилаб олиш билан ажралиб туради ҳамда юқори даражаси реклама-тарғибот воситаси сифатида қўлланилиши мақсадга мувофиқ.

Ўзбекистонда ижтимоий туризм хизматларини кўрсатувчи объектлар, жумладан болалар ва ёшлар оромгоҳлари юқорида эътироф этилган ташкилотларга аъзо эмас. Асосий муаммо шундаки, ассоциацияларга аъзо бўлиш учун уларнинг белгиланган стандартларга мос келиш талаб этилади. Аммо олиб борилган тадқиқотлар қуйидагиларни аниқлашга ёрдам берди:

- болалар оромгоҳлари кўрсатилган хизматлар умумий меъёрларга солинмаган. Оромгоҳларнинг фаолиятида фақат овқатланиш хизматлари, тиббий хизматлар ва шу каби алоҳида фаолият турларига стандартлар ишлаб чиқилган ва амалиётда қўлланилиб келинмоқда. Аммо болалар оромгоҳлари кўрсатувчи хизматларнинг умумий мажмуасига стандартлар ишлаб чиқилмаган. Шу сабабли оромгоҳларда кўрсатиладиган хизматлар маълум меъёрларга бирлашмаган, шу билан бирга оромгоҳ балансида турувчи ташкилотлар унда кўрсатиладиган хизматларга талабни алоҳида белгилаб олиши мумкин;

Болалар ва ёшлар туризмини Ўзбекистонда ривожлантириш ва халқаро туризм даражасига кўратиш мақсадида болалар ва ёшлар оромгоҳлари хизматлари учун стандартлар ишлаб чиқиш долзарб ҳисобланади ҳамда уларни ишлаб чиқиш вақтида кўрсатиладиган хизматлар сифатига баҳо бериш ва бу жараёни меъёрлаштириш орқали таснифлаш амалга оширилиши шарт. Таснифлаш маълум бир ажратиб олиш белгиси билан белгиланади. Белгилар сони хизмат кўрсатиш даражасининг ортиши билан боғлиқ бўлади. Оромгоҳларининг юқори тоифаси 3та белги бўлиб, паст даражаси 1та белгини ифодалайди. Оромгоҳлари таснифи маълум бир тоифага мансублигини белгиловчи минимал даражадаги талабларни ўзида акс эттиради. Барча тоифадаги оромгоҳлар керакли йўл белгилари мавжуд бўлган қулай транспорт

йўлларига яхши жойлашган ва ёритилган ҳудудга, корхоналарнинг номи ва тоифаси аниқ кўрсатилган пештахта ёзувига эга бўлиши керак.

Оромгоҳларда болалар ва ёшлар дам олишларини инобатга олган ҳолда, улар қулай экологик шароитларда жойлашиши, жойлашиш вақтида меҳмонларнинг ҳаёти ва соғлиғига ҳамда уларнинг мулки хавфсизлиги таъминланиши, ҳам одатий, ҳам фавқулотда вазиятларда меҳмонларнинг бемалол ҳаракатланишини таъминлайдиган ахборотли кўрсаткичлар, авария ҳолатидаги ҳаракатланиш йўлаклари яхши жиҳозланган бўлиши, ёнғинга қарши ҳимоя тизимлари, ёнғин хавфсизлиги қоидаларида кўрсатилган ҳимоя қилиш ва огоҳлантириш воситалари билан жиҳозланиш керак.

Оромгоҳда хоналар тозаллиги, сантехник ускуналар ишлаши, чиқиндиларни чиқариш ва ҳашаротлардан самарали ҳимоя қилиш соҳасида санитар-эпидемиологик назорат органлари томонидан белгиланган санитар-гигиеник меъёр ва қоидаларга риоя қилиши керак. Барча электрик, газ, сув ва оқова ускуналари “Меҳмонхоналар ва уларнинг ускуналарини техник эксплуатация қилиш қоидалари”га мувофиқ ўрнатилиши ва ишлатилиши керак. Оромгоҳлар куйидаги муҳандислик тизимлари ва ускуналари билан жиҳозланиши шарт. Совуқ ва иссиқ сув таъминоти (кун давомида); сув таъминотида узилишлар бўладиган ҳудудларда бир кунга етадиган минимал даражадаги сув захираси учун идиш бўлиши керак; канализация (оқова сув чиқиш йўллари); хоналарда 18.5 С дан паст бўлмаган ҳароратни таъминловчи иситиш воситаси; ҳавонинг меъёрий айланишини таъминлайдиган ва хоналарга бегона ҳидларнинг киришини олдини оловчи вентиляция (табiiй, сунъий); радио ва телекўрсатувлар таъминоти; телефон алоқаси (ҳам ички, ҳам ташқи); хоналарда ёритиш воситалари: табiiй ва нотабiiй; йўлакларда – кун давомида табiiй ва нотабiiй ёритиш.

Оромгоҳларда ногиронларни қабул қилиш ва жойлаштириш, овқатланиш вақтида қулай шарт-шароитлар яратишни инобатга олиш керак. Қизлар хонаси билан ўғил болалар хонаси алоҳида бўлиши, шу билан бирга турли қаватларда ёки корпусларда бўлиши керак.

Ҳар бир хона қуйидагилар билан жиҳозланиши шарт: ортопедик матрасли кроватлар, шахсий буюмлар турувчи жавонлар бўлиши; оина; кийимларни илиш ва тахлаб қуйиш мумкин бўлган шкафларнинг бўлиши; хонада жойлашадиган болалар сонига нисбатан тенг келувчи стул ва стол бўлиши; ювиш мумкин бўлган гиламлар бўлиши; деразада пашшаларга қарши тўсиқнинг бўлиши шарт. Барча жиҳозлар болаларга лат етказмайдиган, ўткир бурчакларсиз бўлиши керак.

Болалар хоналари қуйидагилар билан жиҳозланиши тавсия этилади: ҳар бир кроват ёнида ёриткич бўлиши; устки кийимлар учун шкаф бўлиши; оёқ кийимлар учун шкаф бўлиши; икки ярусли кроватлар бўлиши; ёйиладиган кийим қуритгич бўлиши; деразада жалюзи бўлиши; эшикда гуруҳнинг номи ёзилган пештахта илиниши; ҳаво тозалагич ва ҳаво намлантиргичнинг бўлиши; қизиқарли расмлар тушурилган чойшаблар ва суратлар бўлиши.

Оромгоҳларда болалар дам олишларини инобатга олиб, уларга назоратчилар тайинланиши табiiй ҳолатдир. Бу барча оромгоҳларда қўлланилаётган тажриба ҳисобланади. Аммо болаларни назорат қилувчи

тарбиячилар ва назоратчилар ўзларига ажратилган алоҳида хонада жойлашадилар. Назоратни кучайтириш ва хавфсизликни таъминлаш мақсадида кичик гуруҳларни бир неча хонали хоналарга жойлаштириш ҳамда битта хонада етакчининг жойлашиши мақсадга мувофиқ. Яъни етакчиларнинг максимал даражада тарбияланувчиларга яқинлаштириш мақсадга мувофиқ.

Болалар ва ёшлар оромгоҳларда 12-21 кун бўлишларини инобатга олиб, санитария-гигиена талабларига ҳам алоҳида эътибор қаратиш мақсадга мувофиқдир. Дам олувчилар жойлашадиган хоналар ичида ҳожатхона ва душ хоналар бўлиши, ёки корпусда бир неча хоналарга умумий ҳожатхона, албатта қизлар ва ўғил болаларга алоҳида ташкил этиш керак. Душхоналар совуқ ва иссиқ сув билан таъминланган ҳамда улардаги барча буюмлар ўткир бурчакларга эга бўлмаслиги керак. Ҳожатхона ва душхоналар, ойна, совун учун идиш, қўлларни қуриштириш учун мослама, сочиқ илиш учун мослама, фен, ҳаво тозалагич, турли воситалар учун турли ҳажмдаги токчалар, душхоналарда кийимларни илиш учун шкафлар, турли ёшдаги болалар учун турли ҳажмдаги ювиниш ускуналари билан жиҳозланиши керак. Етакчилар ва хизмат кўриниш ходимлари учун алоҳида ҳожатхона бўлиши, оромгоҳ чегарасида қўшимча ҳожатхоналарни ташкил этиш, яшаш бинолари билан орасида камида 25 метр, қўл ювиш учун жиҳозларнинг мавжуд бўлиши, ҳожатхона ва душхоналар ҳар куни йиғиштирилиши шарт.

Барча жойлашув воситалари сингари оромгоҳларда ҳам кир ювиш, дазмоллаш ва бошқа хизматлардан фойдаланиш мумкин, аммо фойдаланувчилар ёш болалар бўлганлигини бунда айрим чекловларни белгилашга зарурат туғдиради. Болалар етакчилар қарамоғи остида фойдаланиши мумкин бўлган кир ювиш ускуналари, дазмоллаш жойлари, телевизор, компьютер, чангютгич, видеопроекторлар ва бошқа электрон ускуналар ишлатилиши, шунингдек дазмол ва фенлар деворларга маҳкамланган дастакга боғланган бўлиши шарт.

Болалар ва ёшлар серҳаракат бўлганлиги сабабли оромгоҳлар ҳудудида турли спорт майдонлари бўлиши ва уларнинг замон талабларига мос равишда жиҳозланиши талаб этилади. Спорт майдончалари билан бир қаторда туристик саёҳатлар ташкил этиш, гулхан атрофида суҳбатларни уюштириш учун ҳам майдончаларнинг мавжудлиги мақсадга мувофиқдир. Оромгоҳлар асосан ёзда фаолият кўрсатаётганлиги сабабли сув билан машғулотларни бассейнда ўтказиши мақсадга мувофиқ, шу сабабли оромгоҳ ҳудудида турли ҳажмдаги бассейнлар бўлиши керак.

Болалар ва ёшларнинг оромгоҳларда эркин ҳаракатланиши ва хавфсизликнинг юқори даражада бўлишини таъминлаш мақсадида қуйидагиларни ташкил этиш мақсадга мувофиқ: оромгоҳ ҳудудининг схематик тасвири кириш қисмида жойлаштирилиши; об-ҳаво, сана ва вақтни кўрсатувчи электрон табло оммавий ҳаракатланиш жойларга илиниши; видеокамералар (хавфсизлик ва назорат) ва кўриқлаш хизмати объектлари ҳудуднинг барча қисмларини назорат остида ушлаши шарт.

Болалар ва ёшларнинг оромгоҳда вақт ўтказиш дастурининг мажбурий элементларига қуйидагилар киритилади: экологик фикрлашни шакллантириш бўйича тадбирлар; дискотекалар; турли машғулотларни қамраб олувчи

тўғарақлар; барча ёшдагиларни ва турли қизиқишлардаги болаларни жалб қилувчи оммавий тадбирлар; олимпия тартибидаги спорт мусобақалари; туристик саёҳатлар ва ҳоказо.

Болаларнинг ижтимоий келиб чиқиши ва табақалашув бўйича гуруҳланишга йўл қўймаслик мақсадида оромгоҳнинг умумий шаклдаги кийимларни жорий қилиш, оромгоҳ белгиси туширилган буюмларнинг ишлатилиши ҳамда оромгоҳ белгиси туширилган тарқатма материаллар мавжуд бўлиши халқаро тажрибада қўлланилиб келинмоқда. Ушбу тажрибани мамлакатимиз оромгоҳларида қўллаш оромгоҳлар нуфузини орттириш билан баробарида реклама-тарғибот воситаси сифатида қўлланилиши ҳам мумкин.

Хулоса ўрнида шуни айтиш керакки, болалар ва ёшлар оромгоҳлари кўрсатаётган хизматларни меъёрлаш, уларнинг ушбу меъёр асосида турли тоифаларга ажратиш, истеъмолчиларга сифатли хизматларни таклиф қилиш қилиш учун стандартларни ишлаб чиқиш болалар ва ёшлар туризми кўламини оширишга хизмат қилади. Буларни амалга ошириш учун эса қуйидагиларни таклиф қилиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

- болалар ва ёшлар оромгоҳлари фаолиятини тартибга солиш, кўрсатиладиган хизматлар сифатини таъминлаш, истеъмолчиларга ахборот бериш тизимини такомиллаштириш мақсадида оромгоҳларни тоифаларга ажратиш керак бўлади;

- оромгоҳларда болалар ва ёшларга кўрсатилдиган хизматлар тартиблаштириши, халқаро талабларга жавоб бериши, сифат назоратини амалга ошириш фаолиятини такомиллаштириш мақсадида давлат стандартларини ишлаб чиқариш лозим;

- болалар ва ёшлар оромгоҳларида халқаро туризмни ривожлантириш мақсадида стандартлар ва улар асосида бажарилаётган ишларни кенг тарғиб қилиш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 30 декабрь “2012 йилга Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетининг асосий макроиктисодий кўрсаткичлар ва параметрлар башорати тўғрисида”ги ПҚ-1675-сонли қарори

2. Ўзбекистон Республикаси Касаба уюшмалари федерацияси Кенгаши Раёсатининг 2000 йил 17 февралдаги қарори билан тасдиқланган «Болаларни кундузги дам олиш ва соғломлаштириш оромгоҳи бўйича низом»

3. Туристик-экскурсион хизмат кўрсатиш соҳасида стандартлаштириш. “Асосий қоидалар”. ГОСТ 28681.0-90

ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ИДЕИ АБУ РАЙХАН БЕРУНИ

Бокиева С.Б.,

Преподаватель Жандарского сельскохозяйственного колледжа

Абу Райхан Беруни вошел в историю науки как ученый-энциклопедист. На формирование личности ученого оказало влияние творчество известных мыслителей того времени, таких как Мухаммад ибн Мусс аль-Хорезми, аль-Фараби и др. Ему принадлежат более 150 произведений, посвященных почти всем отраслям знаний того времени. Такие его работы как «Памятники»,

«Геодезия», «Индия», «Канон Масъуда» и др. переведены не только на узбекский и русский языки, но и на многие языки мира.

Основные взгляды на жизнь общества, мораль, этику Беруни наиболее полно изложил в своих знаменитых работах: «Индия», «Минералогия». Огромное внимание ученый уделял таким проблемам нравственности, как честь и достоинство, добро и зло, справедливость и совесть. Считая их нравственными качествами, он полагал, что благородство – это выполняемые обязательства по отношению к близким людям. Важна мысль о том, что только знания облагораживают человека и передача своих знаний другим приносит истинное счастье. По Беруни, высшее счастье человека в познании, поскольку он наделен разумом. Лишь такое понимание счастья принесет обществу мир и благоденствие. «Истинное наслаждение доставляет лишь то, стремление к чему возрастает тем больше, чем больше человек этим владеет. И таково состояние человеческой души, когда он познает то, что не знал ранее» [1,17].

Беруни был великим поборником мира и дружбы между народами. В дружбе народов он видел основу человеческого счастья и общественного прогресса. Беруни осуждал уничтожение культуры и наук во время войн. В своей «Индии» он с горечью говорит о том, что «взаимные раздоры и распри одолевают все народы» [2,57], и сегодня мы являемся свидетелями таких событий на территории бывшего Союза.

Мыслитель выступал против национальной ограниченности, которые мешают установлению правильных взаимоотношений между народами. Он осуждал тех, кто убежден, что «Земля – это их земля, люди – это представители только их народов, цари – только их правители, религия – только их вера, наука – только та, что у них имеется» [2,67-68]. Подобные убеждения он называл глупостью. Подумайте, имеют ли эти мысли значение и сегодня, через тысячу лет после того как они были высказаны?

Осуждая все отрицательные черты человеческой природы, Беруни воспевал доброту и благородство в человеке: «Доброта заключается в желании добра всем людям вообще и сородичам в особенности, при бессилии – добрым пожеланием, и при возможности делом» [1,21].

Духовный облик человека, его образ жизни определяются, по Беруни, самим человеком, его воспитанием, «духовным врачеванием». Мы видим, что по фундаментальным вопросам этики и морали Беруни высказал очень интересные и глубокие мысли, многие из которых звучат и сегодня очень современно и своевременно, несут в себе глубокий гуманизм. Далее он отмечал: «Что касается облика души в смысле нравственности и образа жизни, то человек, властный над своими страстями, в силах изменить его, превратив отрицательные стороны в похвальные, по мере того как он будет воспитывать свою душу» [1,21]. И далее: «...Счастье – в искреннем друге с похвальным характером, ведущий достойный образ жизни...» [2], категории добра дает свою трактовку: «...Доброта заключается в желании добра всем людям вообще и сородичам в особенности, при бессилии – добрым пожеланием, а при возможности - делом» [2].

Он утверждал, чтобы ученый относился в расположении к окружающим его людям, был дающим добрый свет, независтливым, потому что зависть приносит

вред и не приносит пользы. Делающему благодеяние воздается по мере добрых его дел, а поступающему дурно достаточно будет зла его. А это и есть основные категории этики, которые красной нитью проходят через его произведение.

Список используемой литературы:

1. Беруни. Минералогия. – М., 1963.
2. Беруни. Индия.// Избр. произведения. – Ташкент, 1963.

ИНСОН ЭКОЛОГИЯСИНИНГ ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

*Очилова Н.Р.,
БухДУ*

XVIII-асрнинг саноат инқилоби эмас, балки фақат бир сабаб драматик иқтисодий ўсиш ва илм-фан ва технологиялар ривожланиши, балки табиий ресурсларини истеъмол кенгайтирилган фойдаланишга ёйдилар. Инсон жамиятининг ривожланиши учун кимё саноатини тарихини аввалги асрлардан бери биламиз. Уй-жой, транспорт, алоқа, фармацевтика, яхши озиқ-овқат сақлаш, тиббий ютуқлар, умум таълим ва бошқа технологик янгиликлар сезиларли даражада инсон ҳаётининг сифатини яхшилади. Сайёранинг миллиард аҳолиси учун янги технологик стандартлар жорий этилиб, уларни яхши ҳаёт кечириши учун кўпчилик озиқ-овқатлар маҳсулотлари ишлаб чиқарилмоқда.

Ривожланган ва ривожланаётган мамлакатларда кимё саноати жуда тезлик билан муҳим ютуқларга эриша борди. Бу бўйича яхши маълум бўлган ижобий фактларни келтириш мумкин. Лекин бир вақтнинг ўзида инсоннинг эҳтиёжларини ва интилишларини қамраш орқали глобал вазиятлар вужудга келди. Шаҳарлар кенгайиб, табиий ресурслардан кескин фойдаланиш оқибатида саноатдан ва шаҳардан чиқаётган чиқиндилар атроф-муҳитни ифлосланишига олиб келди. Иқтисодий тизимларни қайта қўриш мақсадида янги лойиҳалар ишлаб чиқарилиб, қайта тикланадиган табиий ресурслар, янги саноат маҳсулотлари, соғлиқни сақлаш ва хавфсизлик масалалари, табиий хомашё, энергияни тежаш, қайта ишлаш ва инновацион технологиялар асосида илм-фан ва техникадан яхшироқ фойдаланиш масалалари қўйилди.

Биокимёгарларнинг олдида қўйган мақсадларига кўра, барқарор тараққиёт ғояларини тарғиб этиб, хомашёларни сотиб олиб, кимёвий технологиялар асосида саноат маҳсулотларини ишлаб чиқаришга тасарруф қилиш бўлиши керак, лекин бу муҳим экологик муаммо бўлмоқда. Барча ишлаб чиқариш босқичларни баҳолаш учун олимлар бир яхлит ёндашувга келишди. Ҳаётнинг айланиш таҳлили (LCA) деб номланган илмий усул белгиланган. LCA бу усул бундан ташқари, ҳаёт-айланишининг эко-баланси сифатида ҳам танилган. Бунда ҳаётнинг барча босқичларида маҳсулотни (яъни, хомашё қазиб олиш, ишлаб чиқариш, тарқатиш, фойдаланиш, таъмирлаш, тасарруф ёки қайта ишлаш) назарда тутилади ва у билан боғлиқ экологик таъсир ўрганилади.

LCA таърифи: инсон эҳтиёжи учун керак бўладиган маҳсулотлар у билан боғлиқ мавжуд таъсирлар, жараён ёки хизматлар, тегишли энергия ва материалларни инвентаризацияси компиляция томонидан киришлари ва

экологик релизлар салоҳияти экологик баҳолаш аниқланган киришлар ва версиялар билан боғлиқ таъсирларни талқин қилиш натижаларини кўпроқ онгли қарор қабул қилиш орқали ҳаёт айланишини таҳлил қилиш ва баҳолаш (ЛСА) тартиби ҳисобланади.

Ҳаёт циклининг барча босқичларида бир маҳсулотнинг хомашё материаллари, уни қазиб олиш, ишлаб чиқариш ва унинг бутун ҳаёт айланиши оқибатида атроф-муҳитнинг ифлосланишига таъсири ўрганилиши муҳим вазифа бўлиб қолди.

Инсоннинг яхши ҳаёт кечириши учун кундалик фаолиятида иқтисодий, ижтимоий ва маданий, ахборот-коммуникациядан оқилона фойдалана олишга сазовор бўлиши керак. Улар маҳсулотларни сотиб олишлари ва улардан фойдаланишлари, уларнинг таъсир фаолиятини ўрганишлари мақсадга мувофиқ бўлади.

Олимлар олдиндан баҳолаш учун LCA ташаббуси билан тегишли ишлаб чиқариш ва фойдаланиш пайтида бир маҳсулотнинг таъсирини ўрганишни айтиб ўтишди. Атроф-Токсикологияси ва кимё жамиятининг фикрига кўра, (СЕТАС), LCA экологик баҳолаш учун жуда муҳим усули ҳисобланади. Унинг бутун ҳаёт айланиши ёки хизмат пайтида бир маҳсулот таъсири жараёни ўрганиш методологияси илмий асосланиб, янги маҳсулотлар ва хизматлар дизайни учун жуда фойдали бўлиши исботланди.

ТУРИЗМ И СОЦИАЛЬНАЯ МЕДИА

*Седова Л.К., Генеральный директор,
Туристическая компания “Московинтур”, Россия
Хуррамов О.К., Старший преподаватель,
БухГУ, Узбекистан.*

Интернет вошел в нашу повседневную жизнь, изменив традиционные способы общения людей, представления и сбора информации о рынках, компаниях, товарах и услугах. Сегодня интернет — это неотъемлемая часть социального пространства [1]. С его помощью люди не только общаются, но и делают покупки, проводят досуг за онлайн-играми, смотрят фильмы, слушают музыку, а также размещают рекламные предложения и т. д. В интернете постоянно присутствует большое количество людей и компаний по всему миру, удовлетворяющих как личные, так и коммерческие интересы и потребности.

Интернет произвел революцию в маркетинге. Потребители получили возможность исследовать продукты, представляющие интерес, высказывать свое мнение о продуктах и услугах без необходимости посещать множество торговых точек. Компании получили возможность использовать интернет-пространство как информационную, рекламную и коммерческую площадку, более точно ориентировать свои сообщения, индивидуализировать предложения.

Технологии Web 2.0 (форумы, чаты, блоги и т.д.) расширили возможности потребителей и компаний. Благодаря развитию таких сервисов начали появляться социальные сети — сайты, направленные на формирование интернет-сообществ пользователей. Потребители стали активными создателями интернет-пространства, формируя контент этих сайтов. В социальных медиа они

не только обсуждают характеристики товаров, производителей, продавцов, но и делятся опытом потребления, выкладывая видео своего положительного или негативного опыта, что приводит к росту влияния на рынок так называемого потребительского информационного канала «из уст в уста». Компании стали искать своего целевого потребителя в социальных сетях, применяя адресную рекламу. Возможности Web 2.0 по своему влиянию на потребителя практически безграничны. Так, чтобы достичь аудитории 50 млн человек, радио понадобилось 38 лет, телевидению — 13, интернету — 4 года, а социальные медиа развиваются еще более стремительно — Facebook собрал 200 млн пользователей менее чем за год[2].

В настоящее время развитие веб-технологий и Web 2.0 выводит интернет-общение пользователей на качественно новый уровень. Появляются новые сервисы, расширяются возможности общения и совместной работы. Можно утверждать, что для многих пользователей такое общение становится существенной частью социальной жизни и ежедневных коммуникаций. Особенно это относится к населению, находящемуся в активной потребительской фазе жизненного цикла.

Поколение молодых людей (интернет-поколение) имеет более высокий уровень технологической подготовки по сравнению с предыдущими поколениями, оно более открыто и активнее использует интернет в своей жизни. Новое поколение «живет» в социальных сетях. Субъекты бизнеса не могут не учитывать эту тенденцию, особенно при разработке коммуникационных программ для потребителей.

Вышеприведенные тенденции требуют переосмысления роли маркетинга в новых условиях, изменения и дополнения функций маркетологов в компаниях. Сегодня уже не стоит вопрос, использовать ли социальные сети. Ставится задача эффективно применять их при разработке программ продвижения. Необходимо задействовать новые возможности интернета в целях как поиска своего клиента, так и удовлетворения обновленных потребностей на качественно новом уровне, формируя предложения на языке современного потребителя, предлагая товары и услуги в соответствующей форме и в то время, когда их увидит наибольшее количество представителей целевой аудитории. С развитием технологий Web 2.0 это становится все более доступным.

Эволюция интернета как среды общения — двусторонний процесс. С одной стороны, она обусловлена уровнем развития технологий, с другой стороны — развитием социальных потребностей пользователей в их новом качестве: не только потребителя, но и создателя контента.

Идеологическая и технологическая база Web 2.0 позволила разработать несколько интернет-приложений — социальных медиа.

Социальные медиа — это сервисы, в основе которых лежит концепция Web 2.0, позволяющая пользователям создавать контент и обмениваться им с учетом их социальных связей.

В литературе понятия «социальные медиа» и «новые медиа» часто используются как синонимы, хотя это справедливо только для конкретного этапа развития информационного пространства. На каждом этапе новыми медиа

являются различные информационно-коммуникационные технологии. В 1920-е гг. новым медиа было радио, в 1950-е гг. — телевидение, в 1990-е гг. — интернет, в настоящее время это социальные медиа.

Активное использование интернета в повседневной жизни человека определяет создание все новых возможностей и территорий для общения. Можно проследить определенную эволюцию в развитии форм интернет-общения — от простых инструментов сбора отзывов до организации интерактивного общения большого количества собеседников.

В настоящее время можно найти большое количество определений понятия «социальная сеть». Под социальной сетью понимается множество акторов (точек, вершин, агентов), которые могут вступать во взаимодействие друг с другом и связи между которыми являются социальными, то есть представляют собой дружбу, совместную работу или обмен информацией.

Социальная сеть — интерактивный многопользовательский сайт, контент которого наполняется посетителями. Это сайт с возможностью указания какой-либо информации об отдельном человеке, по которой аккаунт пользователя смогут найти другие участники сети [14].

Социальная сеть — это социальная структура, состоящая из групп узлов, которыми являются социальные группы, личности, индивидуумы. Одна из характерных особенностей социальных сетей — это система «друзей» и «групп».

Социальные сети — сообщества пользователей, объединенных общей средой общения и возможностью установления непосредственных связей (контактов) между собой [15].

Социальная сеть — интерактивный многопользовательский сайт, контент которого наполняется самими участниками сети.

Это сайт с возможностью указания информации о себе (дата рождения, школа, вуз, любимые занятия и т. д.), по которой аккаунт пользователя становится доступным для виртуальных друзей и других посетителей сайта.

Можно выделить следующие основные группы социальных сетей по целям создания:

- ✚ социальные сети для общения;
- ✚ профессиональные или специализированные социальные сети (для установления и поддержания деловых контактов);
- ✚ развлекательные сетевые сообщества;
- ✚ сети знакомств.

По данным опроса Pew Internet, за последние годы в США значительно увеличилось количество взрослых интернет-пользователей, которые имеют аккаунты в социальных сетях. Так, 35 % совершеннолетних американцев во время опроса сказали, что зарегистрированы в какой-либо социальной сети, тогда как в 2005 г. таких было только 8 %. При этом социальные сети по-прежнему более популярны у молодежи — их используют 75 % респондентов в возрасте от 18 до 24 лет, тогда как среди пользователей 65 лет и старше такие сервисы предпочитают только 7 % [22].

Социальные сервисы предлагают различные возможности: совместное хранение документов, фото, видео, создание закладок, интерактивный доступ к

справочной информации и т. д.:

- социальные закладки;
- социальные каталоги;
- сервисы для обмена текстовыми документами и презентациями;
- сервисы с фотохостингом и видеохостингом;
- карты знаний;
- социальные библиотеки;
- сервисы видеотрансляции, лайфкастинг, лайфстриминг (LifeCasting, LifeStreaming).

Сетевые социальные сервисы развивают у пользователей следующие умения:

- ❖ Совместное мышление, так как познавательная, творческая и учебная деятельность изначально имеет сетевой и коллективный характер.
- ❖ Толерантность, связанная с расширением горизонтов общения. Этому способствуют информационные технологии, использование которых приводит к частому столкновению людей из незнакомых им ранее социальных культур и слоев.
- ❖ Освоение децентрализованных моделей сетевого взаимодействия. От участников совместной деятельности не требуется синхронного присутствия в одном и том же месте в одно и то же время.
- ❖ Критичность мышления: коллективная, совместная деятельность способствует активизации участников, готовых критиковать и видоизменять гипотезы, играет решающую роль при поиске ошибок, проверке гипотез и фальсификации теорий.
- ❖ С помощью сетевых сообществ и сервисов можно получать знания и отрабатывать навыки. [10].

Популярность социальных медиа и, в частности, социальных сетей — во многом заслуга стиля общения, присущего этой среде. В виртуальном мире общение происходит гораздо свободнее, чем в реальной жизни. Этому способствует тот факт, что общение чаще всего ведется от имени виртуального персонажа, на котором не отражается внешность, возраст и социальный статус человека. Социальные сети на практике оказались очень эффективным способом не только общения, но и обеспечения посещаемости сайтов. Кроме того, они постепенно стали одним из основных источников получения уникального контента.

Таким образом, наблюдаемая сегодня трансформация форм общения обусловлена не только широкими технологическими возможностями, но и психологическими причинами:

- ✓ начать общение в сети психологически проще, чем при личной встрече;
- ✓ в сети сравнительно легко найти людей со схожими интересами и взглядами на мир;
- ✓ доступ к интернету можно получить не только с помощью компьютера, но и через мобильный телефон и прочие мобильные устройства, что обеспечивает доступ формата 24 (часа) x 7 (дней).

По мере развития социальных сетей исследователи все чаще включают в

анализ психологические особенности коммуникации людей в таких сетях. Психологи разных стран (Америки, Нидерландов) стали изучать поведение посетителей социальных сетей. И если в период расцвета веб-технологий многие ученые негативно оценивали влияние Глобальной сети на коммуникативные способности интернет-посетителей, то спустя десятилетия накопленная эмпирическая база исследований этого вопроса позволила сделать противоположные выводы.

Social Media Optimization (SMO) — деятельность по оптимизации ресурсов компании для работы в социальных медиа.

Наиболее часто применяются так называемые социальные кнопки — Мне нравится и поделиться, которые устанавливаются на корпоративном сайте и помогают пользователям делиться со своими друзьями в социальных медиа материалами с сайта. Эти кнопки также позволяют получать обратную связь о качестве и релевантности контента со стороны целевой аудитории.

Изменившиеся условия и появление новой социальной среды для общения компании с потребителями и потребителей между собой обусловили необходимость пересмотра существовавших ранее принципов организации и управления маркетингом компании. Изменения касаются не только принципов подбора персонала, появления новых должностей, но и возникновения новых методик управления. Однако кардинальные перемены состоят в необходимости применения новой системы коммуникаций с потребителями: устаревшая модель «ответственного лица», когда один (или несколько) специально обученных сотрудников получают полномочия осуществлять коммуникационную деятельность по отношению к потребителям, уже неэффективна. Ей на смену приходит новая модель коммуникаций — каждый сотрудник может выступать источником коммуникации от лица компании, более того, потребители тоже вправе это делать, получая поощрение компании.

В этих условиях нужно изменить систему управления персоналом, информационные системы, применяемые на предприятиях, а также подход к измерению эффективности работы компании.

Новый или уже существующий персонал, занимающийся работой в социальных медиа, следует наделить новыми функциями и всячески поощрять общение с потребителями в удобных для них средах: блогах, социальных сетях, микроблогах и пр. Менеджер по работе в социальных сетях — это не «единоличное» лицо компании с точки зрения коммуникационного общения, он лишь направляет общую стратегию компании в нужное русло. В этих условиях необходим пересмотр мотивации сотрудников. Кроме использования собственных ресурсов, для решения задач в рамках социальных медиа можно привлекать сторонние агентства, которые специализируются на оказании консалтинговых SMM-услуг.

Интеграция существующих CRM-систем в социальные сети, как и интеграция социальных сетей в CRM, позволяет компаниям повышать оперативность работы в новых социальных условиях, а также лучше изучать изменения поведения потребителей. Все бизнес-процессы компании при грамотной организации интеграции информационных систем можно

осуществлять с заметным повышением эффективности. Эффективность работы компании в социальных медиа — важный и актуальный вопрос, поскольку существовавшие ранее критерии определения эффективности невозможно применять в новых средах общения с потребителями.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Данченко Л. А. Маркетинг в социальных медиа. Интернет-маркетинговые коммуникации. — СПб.: Питер, 2013.
2. Ших К. Эра Facebook: как использовать возможности социальных сетей для развития вашего бизнеса. 2-е изд. — М.: Манн, Иванов и Фербер, 2011.
3. Компания «Яндекс». Цифры и факты про «Твиттер». — Режим доступа: http://company.yandex.ru/facts/figures/ya_twitter_2011.xml
4. Социальные сети уже покрыли планету. — Режим доступа: <http://www.sarafannoeradio.org/novosti/129-usanekontroliruetinternet.html>.
5. Социальные сети: анализ, технологии, перспективы. — Режим доступа: <http://ntl-cbm.narod.ru/CBM-NET/net-rew.htm>.
6. Социальные сети. — Режим доступа: www.SarafannoeRadio.org.
7. Карташов А. Типы мобильных социальных сетей. — Режим доступа: <http://techreviews.ru/2011/1/tipy-mobilnyh-socialnyh-setey>.
8. Паринов С. И., Яковлева Т. И. Экономика 21 века на базе интернет-технологий. — Режим доступа: http://rvles.ieie.nsc.ru/parinov/economy21.htm#_Toc427137871.

O`QUV JARAYONIGA ZAMONAVIY AKT VA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TADBIQI PLICKERS DASTURI VA UNING ISHLATILISHI

*Babayev S.S.,
Buxoro Davlat Universiteti*

Talabalarni bilimni baholash dars jarayonining muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Bilamizki baholashning turli usullari bor. Masalan individual topshiriq berib baholash, guruppaviy topshiriq berish, test olish, yozma ish olish va hokazo. Bu yuqoridagi barcha usullar nazorat olishda ham uni tekshirishda ham anchagina vaqt talab qiladigan usullar hisoblanadi.

Ushbu ishda bir vaqtning o'zida butun guruhni baholash usullaridan biri bilan tanishtirib o'tamiz.

Bu usulda nazoratni tashkil qilish uchun bizga bitta kompyuter, proyektor va bitta internetda ishlaydigan smartfon kerak bo'ladi. Smartfonimiz android yoki IOS tizimli bo'lishi kerak.


Tayyorgarlik bosqichi. Smartfonimizga plicker dasturini o'rnatib olamiz. So'ngra plickers.com saytiga kiramiz. Saytning yuqori menyusi Cards, Help, Sign in va Sign up qismlardan tashkil topgan. Sign up menyusini bosib ro'yhatdan o'tamiz. Ro'yhatdan o'tganimizdan so'ng Sign in menyusiga login parolimizni terib saytga o'z profilimizga kiramiz.

Profilga kiringach yana qo'shimcha Library, Reports, Classes va Live View menyulari chiqadi.

Library menyusiga kirsak My library qismi chiqadi. Bu yerda o'zimiz yaratgan testlar joylashadi. Yangi test yaratish uchun New question tugmasini bosamiz.

Rasmda ko'rsatilganidek savol va javoblar kiritladi. To'g'ri javobga correct tanlanadi va save tugmasi bosiladi. Agar bu testni saqlab darhol boshqa test tuzmoqchi bo'lsak "save and create new" tugmasini bosamiz. Testimiz ko'p javobli bo'lsa "Multiple choice", agar to'g'ri noto'g'ri javoblaridagina iborat bo'lsa true/false faollashtiriladi. Agar testimiz savolida formula yoki rasm joylashtirmoqchi bo'lsak, formulani rasm ko'rinishida saqlab, so'ngra Add image ni tanlab formulani joylashtiramiz.

Classes menyusida bizning guruhlarimiz bor. Mavjud guruhimizda o'zgartirish qilmoqchi bo'lsak shu guruhni ustiga bossak guruhimizdagi talabalar o'zlariga birlashtirilgan raqamlari bilan chiqadi. Agar yana talaba qo'shmoqchi bo'lsak "Add roster" ni tanlaymiz va talabani ism familiyasini kiritamiz.



Bu shtrix kod har bir talabaga alohida bo'lib bir biridan farq qiladi. To'rtta burchagiga shtrix kodning raqami qo'yilgan bo'lib bu shu raqamli talabaga tegishli. To'rtta tomonida A,B,C va D harflari joylashgan bo'lib berilgan savolning javobiga mos tomon yuqoriga qilib ushlanishi kerak. Bu shtrix kodlar Cards menyusida yuklab olinadi.

Yana ishimizni Library menyusida davom ettiramiz. Tuzgan testimga kirib uni qaysi guruhda o'tkazsak shu guruhga birlashtirishimiz kerak. Buning uchun testing pastki qismidagi "Add to question class" tugmasini bosamiz va guruhimizni tanlaymiz. Bitta savolni bir nechta guruhlariga birlashtirishimiz mumkin.

Testni o'tkazish bosqichi. Live view menyusiga kiramiz. Telefondagi plickers dasturiga kiramiz. Bu yerda faqat bizga my classes ya'ni bizning guruhlarimiz chiqadi. Test o'tkazayotgan guruhimizni tanlaymiz. Bu guruh uchun faol test savollari chiqadi. Qaysi savolni bossak shu savol Live viewda proyektor orqali barcha talabalarga ko'rinadi.


Endi talabalar o'z javoblarini shtrix kodlarini ko'tarish orqali ko'rsatadilar. Endi telefonimizdagi plickers dasturidagi Scan tugmasini bosib bir marta scanner qilib chiqami. Quyidagi rasmdagidek.




3. *Li X., Petrick J. F.* Tourism marketing in an era of paradigm shift // Journal of Travel Research. — 2008. — Vol. 46. — № 3. — P. 235–244.

4. *Mossberg L.* A marketing approach to the tourist experience // Scandinavian Journal of Hospitality and Tourism. — 2007. — Vol. 7. — № 1. — P. 59–74.

5. *Porter M. E.* Competitive strategy: Techniques for analyzing industries and competition. — New York: Free Press, 1980.

6. *S. K. Salayev, E. S. Khodjaniazov* 6. *Robert C. M., Morrison A.* The tourism system: an introductory text. — Prentice- Hall, 1992.

7. Stanton W. J., Etzel M. J., Walker B. J. Fundamentals of marketing. — McGraw- Hill College, 1994.

8. World Economic Forum. The Travel & Tourism Competitiveness Report 2017. Paving the way for a more sustainable and inclusive future. URL: http://www3.weforum.org/docs/WEF_TTCR_2017_web_0401.pdf.

ТУРИЗМ СОҲАСИДА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

*Норова М.Ф.,
БухДУ*

Мамлакатимизда сиёсий ва иқтисодий барқарорликнинг мавжудлиги туризм ривожланишига ижобий таъсир кўрсатувчи муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Маълумки, туризм сиёсий ва иқтисодий ўзгаришларга нихоятда таъсирчанлиги билан ажралиб туради. Мамлакат ҳаётидаги кичик сиёсий ўзгаришлар ҳам туризм ривожланишига у ёки бу йўналишда таъсир кўрсатади.

Айни вақтда барқарор иқтисодий ўсиш ва туризм ривожланиши ўртасида тўғри боғланиш мавжуд. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, нархлар ўзгармас бўлган шароитда хусусий истеъмол хажмининг 2,5 фоизга ўсиши туризмга сарфланадиган харажатларнинг 4 фоизга, истеъмол хажмининг 5 фоизга ўсиши туризмга сарфланадиган харажатларнинг 10 фоизга ўсишига олиб келади.

Ўзбекистонда туризм ривожланишига ижобий таъсир кўрсатувчи омиллардан яна бири кўп асрлик тарихий ривожланишни ўзида акс эттирувчи ўзига хос маданий мероснинг мавжудлиги ва республикамизнинг тарихий обидаларга бой эканлиги билан боғлиқ. Республикамиз худудида 4 мингдан ортиқ архитектура обидалари ва ёдгорликлари мавжуд бўлиб, уларнинг аксарият қисми ЮНЕСКО томонидан химоя қилинади. Самарқанддаги Улуғбек обсерваторияси (1428-1429 йй.), Шохи Зинда архитектура ансамбли (9-19 асрлар), Ҳазрат Хизр масчити (19 аср ўрталари), Биби – Хоним (1399-1404 йй.), Улуғбек (1417 – 1420 йй.), Шердор (1619-1635/36 йй.), Тилла Қори (1647-1659/60 йй.) мадрасалари, Хўжа Ахрор (15-20 аср) ансамбли, Тошкентдаги Кўкалдош (14 аср) мадрасаси, Ҳазрати Имом архитектура ансамбли (16 аср), Бухородаги Арка (11-20 асрлар), Сомонийлар (9-10 асрлар) мақбараси, Чамои Аюб (1380 ёки 1384/85 йй.) мазори, Абдуллахон (1596-98 йй.) мадрасаси, Гаукушон (16 аср), Лаби Ҳовуз (16-17 аср) ансамбллари, Ситораи Моҳи Хоса (19 асрнинг охири 20 асрнинг боши) масчити ва мадрасаси, Оқ масчит (1832/42 йй.), Мухаммад Аминхон (1871 й.) мадрасаси, Шахрисабздаги Оқсарой (1380-1404 йй.), Ҳазрати Имом (14 аср) масчити, Кўк Гумбаз (1435 й.) масчити, Термиздаги Қирққиз (9-14 асрлар) қалъаси, Ҳаким ат-Термизий (10-15 асрлар) архитектура мажмуаси, Султон Саодат (10-13 асрлар) ансамбли, Қоратепа (2-4 асрлар), Фаёзтепа (1-3 асрлар), Фарғона водийсидаги Худоёрхон (1870 й.) қалъаси, Саид Аҳмад ҳожи (19 асрнинг боши) мадрасаси ва бошқалар ана шулар жумласидандир. Буларнинг барчаси республикамизда диний ва танишиш туризмини ривожлантиришга кенг имкониятлар яратади.

Мамлакатимизнинг географик нуқтаи назардан қулай жойлашганлиги туризмни ривожлантиришга ижобий таъсир кўрсатувчи омиллардан яна бири

ҳисобланади. Ўзбекистоннинг Марказий Осиёнинг марказида жойлашганлиги, барча транспорт турлари тизими ва транспорт коммуникациясининг ривожланганлиги республикамизнинг қайтадан барпоэтиллаётган —Буюк ипак йўлининг марказий халқасига айланишига реал шарт-шароитларни вужудга келтиради.

Маълумки, бир неча юз йиллар давомида —Буюк ипак йўли Осиё ва Европани бир-бирига боғловчи энг қулай куруқлик йўли ҳисобланган. Бу йўл орқали нафақат қимматбаҳо буюмлар, матолар, атторлик моллари ва бошқалар ташилган, балки турли миллат ва элатлар урф-одатлари, маданиятлари, хўжалик тараққиёти натижалари билан танишилган ва тажриба алмашилган. Бу эса шаҳарлар, минтақалар, давлатлар ривожига ижобий таъсир кўрсатган. Бугунги кунда бу йўлнинг қайта тикланиши натижаси Марказий Осиё ва унинг марказида жойлашган Ўзбекистон Евросиёнинг иқтисодий ва илмий-маданий кўпригига айланиши мумкин. Республикамизда товарлар ва хизматлар, меҳнат ресурсларининг давлатлараро транзит маркази бўлиши учун барча имкониятлар мавжуд. Ўзбекистонда туризм ривожланишига мамлакатимизнинг ўзига хос, уникал табиий-иқлим шароитлари ижобий таъсир кўрсатади. Республикамиз худудида турли иқлим зоналари – чўллар, даштлар, текислик оазислар, тоғ тизмалари, хаттоки, субтропик иқлим зоналари мавжуд. Мамлакатимизнинг биоиқлим шароитлари йил давомида спорт ва соғломлаштириш туризми билан шуғулланиш имкониятини яратади. Республикамизда алоҳида кўриқланадиган табиий худудлар мавжуд (давлат табиий кўриқхоналари, миллий парклар, табиат ёдгорликлари, дендрологик ва ботаник боғлар ва бошқалар). Бу эса экологик туризм ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади.

Мамлакатимизда рекреацион ва гидроминерологик ресурсларнинг мавжудлиги соғломлаштириш туризмини ривожлантиришга, касалликларни олдини олиш ва даволаш ишларини ташкил қилишга имконият яратади. Ўзбекистон худудида 200 дан ортиқ минерал сув манбалари, 30 дан ортиқ тузлик-балчиқли кўллар мавжуд. Уникал иқлимий ва больнеологик шароитларга эга тоғ ва тоғолди районларида (масалан, Тошкент, Жиззах, Самарқанд, Қашқадарё, Сурхондарё вилоятларида) минерал манбаларасосида халқаро даражадаги санаториялар, кемпинглар, туристик мажмуалар барпо этиш мумкин.

Ўзбекистонда халқ хунармандчилигининг тараққий топганлиги ҳам хорижий туристлар эътиборини жалб этади. Ҳозирги кунда республикамизда 500 дан ортиқ корхоналар халқ ижоди асосида сувенир маҳсулотлар, сопол ва керамика маҳсулотлари, шу жумладан, ўйинчоқлар, миллий пичоқлар, сўзаналар, дўшилар, тиллакор ва гилам маҳсулотлари ишлаб чиқарадилар.

Мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришга ички транспорт инфратузилмасининг ривожланганлиги, шунингдек, жаҳоннинг кўплаб мамлакатлари билан халқаро хаво йўллари орқали алоқаларнинг мавжудлиги ҳам ижобий таъсир кўрсатади.

Туризм соҳасини ривожлантиришда яна шуни ҳам ҳисобга олиш лозимки, мамлакатимиздан ташқарида илгари республикамизда яшаган ёки ўзбек миллатига мансуб кўплаб кишилар истиқомат қиладилар. Улардан республикамизга келиш, авлод-аждодлари яшаган юртни зиёрат қилиш истаги

юқори. Шу муносабат билан республикамизда —ностальгия‖ (соғиниш) туризмни ривожлантириш учун реал шарт-шароит мавжуд. Бу Ўзбекистонда туризмни муваффақиятли ривожлантиришга ижобий таъсир кўрсатувчи омилларнинг тўлиқ бўлмаган рўйхати бўлиб, ҳозирги кунда улардан фойдаланиш даражаси анча паст. Республикамизда мавжуд 8 мингдан ортиқ маданий ва табиий мерос объектларидан атиги 5-8 фоиздан туристик мақсадларда фойдаланилади, холос.

—Ўзбектуризм‖ Миллий компаниясининг маълумотларига кўра, туризмни ривожлантириш учун энг қулай шароитларга эга минтақаларда ҳам туризмнинг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш даражаси анча паст. Хусусан, Бухоро вилоятида бу кўрсаткич 6,9 фоизни, Қашқадарёда 1,3 фоизни, Самарқандда 10,4 фоизни, Хоразмда 3,1 фоизни ташкил этади. Бунингнатижаси ўлароқ республикамизнинг жаҳон туризм бозоридаги мавқеи анча паст.

Маълумотларга кўра, 2011 йили туризм хизматлар ҳажми 93,3 миллиард сўм (558,3 млн \$) ташкил этди. Бу ўтган йилга нисбатан 25,4 %га юқори бўлиб 871 минг туристларга, жумладан 384 минг хориж туристлари ташкил қилган. Улардан тушган маблағ (98,7 минг) бўлиб, ўтган йилга нисбатан 113% ташкил қилган. Республикамиз фуқаролардан 356 минги чет эл давлатларида сафарда бўлган. Туризм ривожланган Италия, Испания, Франция давлатларига йилига 50 млн туристлар саёхат қиладилар. Туристик бизнес кескин ривожланаётган давлатга Хитой халқ республикасини мисол қилиб келтириш мумкин. БМТнинг Халқаро туризм уюшмаси (ЮНВТО)нинг ҳисобларига кўра 2020 йилда Хитой туристик бизнес соҳасида етакчи бўлган Франция, АҚШ, Испания, Италия ва Буюк Британия давлатларидан ошиб кетиши кутилмоқда. Бугунги кунда республикамизда 700 дан ортиқ туристик фирмалар, 240 дан ортиқ меҳмонхоналар, 5та Халқаро аэропорт туристларга хизмат кўрсатмоқда.

Туристик бизнес инфраструктураси халқаро стандартлар талабига мосравишда ривожланиб бормоқда. Бугунги кунда туризмнинг ривожига жамиятга ҳам, давлатга ҳам наф келтириши исбот талаб қилмайди. Туристик бизнесдан тушадиган тушумлар экспортдан тушадиган даромадларни 10 – 35% ташкил қилмоқда. Халқаро туризм уюшмаси (ЮНВТО) нинг маълумотларига кўра 940 млн. Туристлар давлат чегараларини босиб ўтган бўлиб, халқаро туризмдан тушган тушумлар 919 млрд 21. АҚШ доларини ташкил қилган. Бу ўз навбатида халқаро ЯИМнинг 5 фоизини ташкил қилади. Ўзбекистонда ҳам туризм тармоғининг республика иқтисодиётида салмоғи ортиб бормоқда. Агарда ишга ишга туширилмаган туристик потенциални инобатга олинса, бу борада республикамизда етарли имконият мавжуддир. Экспертларни ҳисобига кўра Ўзбекистонга келаётган ҳар бир сайёҳ 20 кишини иш билан таъминлар экан. Шу билан бирга туризм ривожланган давлатларда ҳар бир сайёҳ сафар чоғида қўшимча 2000 долларга яқин пул маблағини сарфлашини ҳисобга олинса, бу тармоқ юқори даромад келтирувчи бизнес тармоғига айланмоқда. Бундай юқори кўрсаткичларга эришишда Ўзбекистонда имкониятлар мавжуд, агарда нозик таъб сайёҳларнинг талабига мос келадиган сервис ва қўшимча хизматларни халқаро даражага кўтариш кўлимиздан келса. Бу борада республикада ҳашаматли меҳмонхоналар, транспорт корхоналари, хизмат кўрсатиш

корхоналари қурилмоқда. Бу ишларни кичик бизнес ва тадбиркорларнинг фаол ташаббускорлиги илгарига сурмоқдалар. Республика раҳбарияти, шахсан Президентимиз И.А.Каримовнинг раҳнамолигида бу соҳани ривожлантиришга қаратилган чора- тадбирлар, давлат дастурлари ишлаб чиқилмоқда. Бу соҳанинг ривожда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликка асосий урғу берилмоқда.

Ушбу структурада кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг ката қисми қишлоқ хўжалигига тўғри келар экан, шулар каторига қурилиш, транспорт ва ишлаб чиқаришни ҳам сезиларли ўсишини кўриш мумкин. Ушбу структурада туризм бизнесининг ўрни колган хизматлар бўлимига мансуб бўлиб, унинг имкониятлари тўлиқ ёритилмаганлиги яккол кўришимиз мумин. Нега деганда туризм соҳасидаги эспертларнинг фикрича, Ўзбекистонда туризм бизнесини бир неча баробар ошириш имкониятлари мавжудлигини такидлашади, бунинг исботи кейинги даврларда Ўзбекистонга келаётган саёҳларнинг сонини ортишидан кўрсатишимиз мумкин.

Юқорида қайд қилганимиздек бугунги кунда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари бу секторнинг бугунги кундаги улушини 97,3 фоизга етказишга улгуришди. Бироқ хали ечимини кутаётган муаммолар етарли, қолаверса, бу соҳадаги рақобатни ҳам кундан кунга ўсиб бораётганини ҳисобга олсак, бу соҳада фаолият юритмоқчи бўлаётган фуқароларни туризм бизнеси соҳасида малакаларига талаб жуда жиддий, шу сабабли нафақат ўқишга эҳтиёж, балки умуман ўқиш жараёнининг самарадорлигига ҳам юқори эҳтиёж туғилмоқда. Туристтик бизнес соҳасидаги халқаро маркетингларнинг таъкидлашича:

1. Туризм тармоғини ривожлантириш сиёсатини, стратегиясини белгиловчи, қарор қабул қилувчи шахслар нафақат туризм, балки туризмга ишлайдиганлар ҳам катта даромад келтиришларини инобатга олмоғлари лозим.

2. Чуқур таҳлил асосида комплекс режалар ишлаб чиқилиши лозим.

3. Туризм бизнеси замонавий менежмент ва маркетинг назарияси ва амалиётига асосланган бўлмоғи лозим.

Чет эллик сайёҳлар Ўзбекистонда уч муаммони алоҳида ажратиб кўрсатмоқдалар:

1. Виза олиш мураккаблиги;

2. Туристтик агентликлар туристлар гуруҳларигагина хизмат кўрсатилиши;

3. Сайёҳларга хизмат кўрсатиш рангбаранглиги, уларни имкони (сервис).

1. Виза олиш учун сайёҳ қўлида таклифнома бўлиши керак, акс холда у визани туристик агентлик орқали олиши мумкин.

2. Виза олишда у қайси шаҳарларда бўлишини кўрсатиши шарт. Саёҳат давомида маршрутни ўзгартириш ўта қийин муаммо.

3. Транспорт хизмати графигининг доимий бузилиб туриш эҳтимоли катта.

Ушбу муаммоларни инобатга олиш билан биргаликда мехмонхоналар, озиқ-овқат таъминотида, чегирмалар в.х. масалалар бўйича ягона стандартлар ишлаб чиқилмоғи лозим. Бу муаммоларга давлатимизнинг туристик моддий-техник базасини нотекис тақсимотини инобатга олинса: туризм потенциалининг 40 фоизи Ўзбекистон пойтахти Тошкентда ва Тошкент вилояти, 37 фоизи Самарқанд, Хоразм, Бухоро вилоятлари, 16 фоизи Фарғона ва Сурхондарёга,

қолган 7 фоизи Ўзбекистон ҳудудининг 50 фоизини ташкил қиладиган қолган вилоятларга тўғри келади.

Туристтик инфраструктуранинг яхшилаш борасида, экспертлар давлат корхоналарида бошқарув менежментини такомиллаштиришни таклиф қилишмоқда. Талабларга жавоб берадиган туристик автобуслар саройларини, янгича авиарейсларини мисол учун Бухоро – Урганч, Самарқанд – Нукус в.х. очишни туристик хизматлар нархларини, хизмат турларини узлуксиз мониторингини уюштириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблашмоқда. Чуқур маркетинг тадқиқотлари асосида туристик хизматлар, республикани туристик имкониятларини самарадор рекламасини ишлаб чиқмоқ ва чет эл туризм бозорида кўрсатишни таъминлаш асосида, давлатимизнинг ягона туристик брендини яратишни амалга оширилиш керак. Нега деганда ҳозиргача республикамизнинг ташқи бренди мавжуд эмас.

Ислоҳотлар давомида туризм соҳасида давлат бошқарувини амалга ошираётган —Ўзбек туризм компаниясини ўзида ҳам қатор такомиллаштирувлар ўтказилиши лозим. Хусусан: давлат бошқарувида бошқарув, назорат функцияларга тўлиқ аниқтик киритиш, баъзи функцияларни (мисол учун вилоятларда лицензия беришни) вилоятларга ўтказиш йўли билан уларнинг мавқеини ошириш. Туризмга алоқадор бўлган структуралар (ТИВ, МХҲ, ИИБ, БҚ ва Х) билан доимий мулоқотни таъминловчи халқаро ҳуқуқий бўлинма ташкил қилиш. Туризм соҳасини стратегик ривожлантириш дастурини ишлаб чиқиш. Белгиланган стратегик мақсадларни амалга ошириш учун халқаро туристик ярмаркалар ўтказиш ва қатнашиш. Ривожланиб бораётган туризм соҳасида давлатлараро (мисол учун —Германия - Ўзбекистон) келишувларни кўламини кенгайтириш. ЮНВТО баҳосига кўра Ўзбекистоннинг туристик ресурслари ҳажми 1 миллион сайёҳни ташкил қилар экан. Кейинги йилларда бизнинг давлатимизга келаётган туристлар сони сезиларли ортганига қарамай, юқоридаги баҳога қараганда ҳали имкониятлар чегараси анча кенг. Ушбу ташкилотнинг баҳолашига кўра 2020 йилларда Европа давлатларига саёҳат қилмоқчи бўладиган туристлар оқими 30 фоиз, Осиёга саёҳат қилмоқчилар оқими 400 фоиз ўсиши мумкин экан. Ўзбекистон ҳам ушбу ижобий шароитга тезкор тайёр бўлмоғи ва самарали фойдаланмоғи лозим.

Экспертларни фикрича туризм ва сервис хизматлар бозорида либерал сиёсат юритиш давлат секторини кучайтиришга, давлат туризм индустриясини арзон ва сифатли хизматларга эга бўлишини таъминлаб, соҳа рақобатини кучайтиришни таъминлар экан. Бу соҳада кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг ривожини ҳам олдинда. Улар глобал рақобат муҳитида фаолият юритишга тайёр бўлишлари, замонавий менежмент ва маркетинг услубларини эгалламоқликлари зарур.

Бутун жаҳон туризм ташкилоти қилган прогнозлар шуни кўрсатаётгани 2020 йилга бориб дунёда туристлар сони бутунги кунга нисбатан 2 баробар ошиб кетиши башорат қилинмоқда. 2030 йилга бориб йилига 1 млрд 800 млн туристлар келиб кетиши кўзда тутилмоқда.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ушаков Д.С. Технология въездного туризма. М., 2005 г. 61 бет

2. Хусанов Ч.Қ. Миллий тараққиёт моделида Туризм| Т., 2007 й 63-64 бет
3. Дурович —Маркетинг в туризме|. М., 2005 г 34 бет
4. Биржаков М.Б., Нификов В.И. Большой глоссарий терминов международного туризма. – М: 2002. - 704 с.
5. Биржаков М.Б. Введение в туризме. Изд. 9-е, перераб. и доп. – СПб.: Герда, 2008. – 576 с.
6. Боголюбов В. С. Экономика туризма: Учеб. пособ. — М.: «Академия», 2005. — 192 с.
7. www.unwto.org маълумотлари

РОЛЬ КУЛЬТУРЫ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА

Исомов Б.С.,

Бухарский Банковский колледж

Различные области деятельности способны вызвать сильный мотив к путешествию и интерес к туристскому направлению. Важными переменными, влияющими на привлекательность туристского направления для различных групп и категорий туристов, являются его культурные и социальные характеристики.

Под культурой понимают человеческую деятельность в ее самых разных проявлениях, включая все формы и способы человеческого самовыражения и самопознания, накопление человеком и социумом в целом навыков и умений. Культура представляет собой совокупность устойчивых форм человеческой деятельности, без которых она не может воспроизводиться, а значит — существовать.

Наибольший интерес у туристов вызывают такие элементы культуры народа, как искусство, наука, религия, история, которые играют важную роль в развитии туристской и индустрии.

Изобразительное искусство - один из важных элементов культуры, способный сформировать убедительный мотив к туристской поездке. Его повсеместное усиление связано с тенденцией выставлять на известных курортах (в помещениях гостиниц) произведения национального изобразительного искусства в целях ознакомления туристов с культурой региона [3].

Также популярны фестивали, широко представляющие разнообразные виды и элементы национального изобразительного искусства. Например, характерной особенностью эдинбургского фестиваля, который регулярно проходит в Шотландии, является то, что он знакомит не только с произведениями местных художников, но и с творчеством местных композиторов, фольклором и другими - всем, что вызывает интерес у туристов.

Музыка и танцы. Музыкальный потенциал региона является одним из привлекательных элементов культуры. В некоторых 'странах музыка выступает как основной фактор привлечения туристов. Известные музыкальные фестивали ежегодно собирают тысячи участников. Многие

курортные гостиницы знакомят своих гостей с национальной музыкой во время вечерних развлекательных программ, на фольклорных вечерах и концертах. Аудиоопенки с записями национальной музыки, продажа которых распространена в большинстве туристских центров, служат прекрасным средством знакомства туристов с культурой народа.

Этнические танцы - характерный элемент национальной культуры. Практически каждый регион имеет свой национальный танец. Знакомство туристов с танцами может происходить на специальных шоу, фольклорных вечерах, во время развлекательных программ. Яркими примерами танца как выразителя национальной культуры являются танцы народов Африки, полинезийские, японский танец "кабуки", русский балет и др.

Народные промыслы. Регион, принимающий туристов, должен предлагать им широкий ассортимент сувениров, выполненных (фабричным или кустарным способом) местными мастерами и ремесленниками. Сувениры - хорошая память о стране. Однако следует помнить, что памятный сувенир, изготовленный не в стране посещения, а в другой, теряет для туриста свою значимость и воспринимается как подделка [4].

Все виды сувенирной продукции, а также другие необходимые туристу товары (туристское снаряжение, пляжные аксессуары) должны быть доступны и продаваться в удобно расположенных магазинах и других торговых точках. Мотивы покупки и свободной траты денег достаточно сильны во время путешествия, и потому туристские товары должны изготавливаться в ассортименте, пользующемся особым спросом у туристов. В некоторых туристских центрах создаются специальные магазинчики в национальном стиле, где местные мастера изготавливают изделия непосредственно в присутствии покупателей. Эта форма торговли сувенирной продукцией является своеобразной достопримечательностью региона и вызывает немалый интерес у туристов [5].

История. Культурный потенциал региона выражен в его историческом наследии. Большинство туристских направлений бережно относится к своей истории как фактору привлечения туристских потоков. Наличие уникальных исторических объектов может предопределить успешное развитие туризма в регионе. Знакомство с историей и историческими объектами - сильнейший побудительный туристский мотив.

Историческое наследие региона нуждается в продвижении на туристский рынок. Поэтому национальные туристские организации должны заниматься распространением информации об историческом потенциале местности. В числе интересных нововведений в сфере презентации исторического наследия и привлечения туристов можно выделить специальные светозвуковые шоу-программы, получившие распространение в Европе и странах Средиземноморья. Специфика таких шоу заключается в особом воспроизведении отдельных страниц истории с использованием различных спецэффектов.

Целесообразно проводить культурные мероприятия (фольклорные, фестивальные и др.), традиционные для мест туристского назначения и

способные заинтересовать туристов из разных уголков мира [1].

Незаурядная крупномасштабная акция культурного характера была организована в Сингапуре по случаю начала третьего тысячелетия. Самый сенсационный азиатский праздник "Mille-nia Mania" был рассчитан на длительный период - с июня 1999 г. по август 2000 г. Туристы участвовали в фантастических мероприятиях, фестивалях, развлекательных шоу, делающих смену тысячелетий незабываемой. Праздник осуществлялся в соответствии с разработанным Управлением по туризму Сингапура планом "Tourism XXI", предусматривающим значительное расширение района Чайнатауна (Chinatown), проект реставрации которого оценен почти в 57 млрд долл. США. Согласно проекту Чайнатаун в течение трех лет должен превратиться в самый оживленный район Сингапура, отражающий его историческое прошлое.

Управление по туризму разработало план специальных, присущих только Чайнатауну, мероприятий: празднование Нового года по китайскому календарю, исполнение "танца льва", соревнований по ушу и др. Рядом с Чайнатауном появятся этнические зоны, например "маленькая Индия". Ожидается, что праздник тысячелетия превратит город из заурядного туристского направления в столицу туризма XXI века.

Религия. Паломничество - древнейший вид путешествий, известный человечеству не одно тысячелетие. До 80 % объектов туристского показа являются культовыми, например в Париже культовые объекты составляют 44 %. Мотивами к паломническому путешествию являются духовное стремление посетить религиозные центры и святые места, особо чтимые в конкретной религии, свершение культовых обрядов.

Мотивация происходит либо из предписаний религии (например, каждый мусульманин должен совершить хадж в Мекку), либо из религиозных устремлений и убеждений человека. В мире существует ряд выдающихся по своей значимости памятников культовой архитектуры: собор Нотр-Дам де Пари во Франции, собор Святого Петра в Италии и др., которые выступают как важнейшие объекты туристского интереса и привлечения туристов всего мира.

Индустрия и бизнес. Уровень индустриального развития региона является серьезным мотивом для привлечения определенной категории туристов, особенно иностранных, интересующихся состоянием экономики другой страны, промышленностью, производимой продукцией и т. п.

Так называемые индустриальные туры - прекрасный способ расширить соответствующий сегмент туристского рынка. Турфирмам следует способствовать организации и проведению специализированных туров на заводы, фабрики, промышленные и другие объекты, конкретный перечень которых следует согласовывать с департаментами торговли и коммерции, гостиничными предприятиями, сервисными компаниями и другими организациями, имеющими прямой или косвенный контакт с туристами.

Целесообразно использовать практику организации специализированных групповых туров для производителей определенного вида продукции в другую страну с целью ознакомления с процессом ее разработки,

производства и реализации. Департаменты коммерции некоторых стран и различные промышленные группы практикуют специализированные туры не только с целью ознакомления туристов с потенциальными рынками, но и для привлечения внимания к определенным видам продукции, увеличения спроса, объемов продаж, налаживания контактов. Яркий пример использования торговли и бизнеса в целях туризма - Гонконг, где деловая и торговая жизнь выступает как важнейший элемент туристских впечатлений.

Агрокультура. Уровень развития сельского хозяйства может привлечь внимание фермеров и производителей сельскохозяйственной продукции, интересующихся агрокультурой региона. Например, Данию как мирового лидера в области свиноводства ежегодно посещают фермеры из разных стран. Расположенные вблизи туристских центров фермерские хозяйства, предлагающие местные сельхозпродукты, являются важным звеном в туристском обслуживании.

В программу специализированного тура следует включать различные мероприятия, во время которых туристу будет интересно познакомиться с ассортиментом выпускаемой в этой местности продукции, принять участие в процессе ее производства, например в сборе урожая. Такая практика существует на Гавайях, где программой тура предусмотрено знакомство туристов с сортами выращиваемых на местных плантациях ананасов и участие в их сборе.

Образование. Высокий уровень образования увеличивает стремление человека к знаниям. Влияние людей друг на друга формирует общемировой стиль жизни, воздействующий на развитие туризма. Жители одной страны, как правило, проявляют интерес к системе образования другой страны. Поэтому учреждения образования (колледжи, университеты и др.) могут стать существенными привлекательными элементами культуры на туристском рынке. Всемирно известные университеты Оксфорд и Кембридж давно стали туристскими достопримечательностями и самостоятельными объектами туристского показа. Помимо этого система образования является особенностью туристского потенциала и может успешно использоваться как элемент привлечения туристских потоков, в частности, как основа обучающего туризма. Возможность получения престижного образования привлекает студентов из разных регионов, что укрепляет сложившийся и устойчивый сегмент потребительского рынка.

Получила развитие тенденция использования учреждений образования в туристских целях: организация и проведение конференций, деловых встреч, семинаров на базе колледжей, университетов и других учебных заведений.

Наука. Научный потенциал может выступать побудительным мотивом для посещения региона, особенно теми, кто непосредственно занят наукой или связан с этой областью деятельности. Туристские организации могут оказывать различные услуги научным обществам (проведение встреч, семинаров, мероприятий, обеспечивающих получение научной информации, посещение научных объектов и пр.). В век научно-технической революции научные комплексы являются важным ресурсом познавательного туризма.

К числу наиболее популярных научных объектов следует отнести специализированные музеи и выставки, планетарии, а также атомные станции, космические центры, заповедники, аквариумы и т. д. Экскурсии на научные объекты могут быть организованы как для специалистов в конкретной области знаний, так и для массовых туристов. Например, космический Центр управления полетами имени Джона Кеннеди во Флориде ежегодно привлекает огромное число туристов и предлагает образовательную и научную информацию даже неискушенным в этой области знаний туристам.

Национальная кухня. Национальная кухня составляет важный элемент культуры региона. Туристы любят пробовать национальные блюда той страны, по которой путешествуют. Например, почти все туристы, посещающие впервые Россию, желают отведать борщ и пельмени. Некоторые рестораны, предлагая иностранным туристам национальные блюда, поясняют, из каких продуктов и как они приготовлены. Особый интерес у туристов вызывают кафе, рестораны, трактиры, оформление которых гармонирует с предлагаемым меню, например ресторан, специализирующийся на блюдах русской кухни, оформленный в национальных традициях с элементами фольклора.

Туристы считают питание важным элементом поездки, поэтому особенности национальной кухни, ассортимент блюд, их качество обязательно оставят след в воспоминаниях не только об отдыхе, но и о стране [2].

Таким образом, культура региона способна вызвать у потенциальных туристов сильнейший побудительный мотив к путешествию. Поэтому сохранение культурного наследия и его рациональное использование имеют определяющее значение для устойчивого привлечения туристских потоков и сохранения популярности конкретного туристского направления.

Литература:

1. Аванесова, Г.А. Туризм, гостеприимство, сервис: Словарь – справочник / Г.А Аванесова. – Москва: Аспект Пресс, 2017. - 67с.
2. Александрова, А.Ю. Международный туризм: Учебное пособие / А.Ю. Александрова. – Москва: ЭКМОС, 2008. - 340с.
3. Гаранин, Н.И. Менеджмент туризма: Учебное пособие / Н.И. Гаранин – Москва: Советский спорт, 2009. - 128с.
4. Власова, А.А. Туризм. Учебно-методическое пособие / А.А. Власова. – Москва: «Высшая школа», 2007. - 145с.

БУХОРО ВИЛОЯТИДА ХУНАРМАНДЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАСАНАЧИЛИКНИ РОЛИНИ ОШИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

*Қайимова З.А.,
БухДУ*

Ўзбекистонда аҳолининг бандлигини таъминлаш ва бунинг учун зарур шарт-шароитларни яратиш ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг устувор йўналишларидан бири саналади. Мазкур соҳага қаратилаётган алоҳида эътибор

самарасини республикамызда 2017 йилда 150 мингдан ортиқ иш ўринлари яратилгани мисолида ҳам кўриш мумкин. Эътиборлиси, бандлиги таъминланган фуқароларнинг салмоқли қисми қишлоқ жойларда яшовчи аҳоли ҳиссасига тўғри келади. Бинобарин, бир инсоннинг ўз лаёқати ва қизиқишига кўра доимий даромад манбаига эга бўлиши нафақат ўзи ҳамда оиласи, балки жамият учун ҳам аҳамиятлидир.


Таъкидлаш жоизки, мамлакатимизда меҳнатга лаёқатли ёшдаги фуқаролар аҳолининг 62 фоизини ташкил қилади. Ҳар йили меҳнат ресурслари ўртача икки фоиз ошиб бораётганини назарда тутсақ, аҳоли бандлигини тўлиқ таъминлаш ҳаминша долзарб масала экани ойдинлашади. Шу сабабли ҳукуратимиз томонидан қишлоқ ва туман ҳудудларида хизмат кўрсатиш соҳасини изчил ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу борада қишлоқ жойларда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини янада жадал ривожлантириш дастури доирасида сўнгги уч йилда 22 минг 800 дан ортиқ лойиҳа амалга оширилди, кўрсатилаётган хизматлар ҳажми 1,6 баробар, қишлоқда бир кишига тўғри келадиган хизматлар ҳажми 1,5 баробар ошди.

Дарҳақиқат, мустақиллик йилларида Ўзбекистон меҳнат бозорининг ҳуқуқий ва институционал асослари яратилди. Меҳнатни татбиқ қилиш соҳаси ҳамда имкониятлари, ўзини ўзи иш билан таъминлаш кўламлари кенгайди. Меҳнат фаолиятининг шакллари ва турлари хилма-хил кўринишга эга бўлди, мулкчилик ҳамда тармоқ шакллари бўйича ишловчилар таркиби ўзгарди, янги, одамлар учун янада қулай бандлик шакллари пайдо бўлди. Касаначилик, ҳунармандчилик, оилавий тадбиркорлик сингари норасмий фаолият юритган муайян меҳнат турлари қонунийлаштирилди. Муҳими, барқарор иқтисодий ўсиш тенденцияси юртимиз аҳолисининг бандлик даражаси кўтарилиши учун муносиб шарт-шароитлар яратилиши ва ривожлантирилишини таъминламоқда. Бугунги кунда Республика “Ҳунарманд” уюшмаси 16 мингдан ортиқ ҳунармандни уюштириб турибди, ҳунармандчилик маҳсулотлари сотиладиган кўпгина дўкон-салонлар, бир нечта галереялар фаолият юритмоқда. Бундай ривожланиш замирида Мамлакатимизда миллий ҳунармандларга солиқ имтиёзларини берилиши ва ҳукуратимиз томонидан қўллаб-қувватлаш чора-тадбирларини амалга оширилишидандир. Жумладан, “Юридик шахс ташкил этмасдан оилавий тадбиркорликни ҳамда ҳунармандчилик фаолиятини ривожлантириш ва кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори ва “Ҳунарманд” уюшмаси аъзолари - яқка тартибдаги тадбиркорларга белгиланган қатъий солиқни тўлаш юзасидан солиқ имтиёзининг амал қилиш муддатини Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 30 декабрдаги ПФ-4399-сонли фармонида асосан 2014 йилнинг 1 январига қадар узайтирилганлигини таъкидлаб ўтиш жоиз.

Мамлакатимизда миллий ҳунармандчиликни ривожлантиришга қаратилган эътиборни мамлакатимиз ва хорижда тез-тез уюштирилаётган кўргазма-савдоларни ташкил этилиши ва уларда ҳунармандларимизни ўз маҳсулотлари билан иштирок этиб маҳсулотларини сотиш бўйича шартнома тузаётганларидан кузатиш мумкин. Шунингдек, ҳунармандчилик маҳсулотларини туристлар ташриф буюриб турадиган тарихий шаҳарлар ва

архитектура ёдгорликлари яқинида жойлашган устахоналар орқали тўғридан-тўғри сотилаётгани бунинг исботидир. Ҳатто, кейинги пайтларда ички бозоримизда ҳам ҳунармандчилик маҳсулотларига талаб ошиб бораётганлигини, яъни сўнги 8 йил ичида талаб 30 %га ошганлиги тадқиқот натижасида аниқланган. Аммо шунга қарамай миллий ҳунармандчилик маҳсулотларини хорижга экспорт қилишни кенг йўлга қўйиш, миллий маҳсулотларимизни дунё бозорларига чиқишини таъминлаш мақсадга мувофиқдир.

Бунга кўп жиҳатдан ҳуқуқий базани мустаҳкамлаш, иқтисодиётнинг мазкур сектори учун барқарорлик, қулайлик, имтиёз ва кредитлар тизимининг шакллантириш масалаларига жиддий эътибор берилаётгани туфайли эришилди. 2010 йилнинг ўзида кичик бизнес субъектлари сони 420 мингдан ошган бўлса, 2015 йилнинг яримига келиб уларнинг сони 472,5 мингтага етди (1-расм).



1-расм. Давлат рўйхатидан ўтган кичик бизнес субъектлари динамикаси

Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари.

Юртимизда иш ўринларини яратиш ва аҳоли бандлиги бўйича барқарорлик, самарадорлик омилларини таҳлил қилсак, аввало, хусусий тадбиркорлик ривожининг жадаллашуви, қулай ишбилармонлик муҳитининг яратилгани, кичик корхона ва микрофирмалар сони ортиши ҳар йили минглаб кишиларга турмуш фаровонлигини ошириш имкониятини бермоқда. Хусусан, 2016 йили ушбу йўналишдаги саъй-ҳаракатлар натижасида 370,5 минг иш ўрни яратилди. Шунингдек, Инвестиция, ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш, иқтисодиёт тармоқларини модернизациялаш, ижтимоий-иқтисодий ва саноатни ривожлантириш ҳудудий дастурлари изчил амалга оширилиши, яқка тартибдаги тадбиркорлик, хизмат кўрсатиш ва сервис, транспорт-коммуникация соҳаларининг жадал суръатда раванқ топиши аҳоли бандлигида салмоқли ўрин тутмоқда. Касаначилик, оилавий тадбиркорликни, миллий ҳунармандчиликни ривожлантириш давлат томонидан қўллаб-қувватланаётгани ҳам минглаб оилаларнинг рўзғори бутлигини таъминлаётир.

Республикада оилаларнинг иқтисодий барқарорлигини таъминлаш мақсадида кенг қўламли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Жумладан, оилавий бизнес ва хусусий тадбиркорлик, ҳунармандчиликни йўлга қўйиш,

ривожлантириш учун қулай шарт-шароит яратиб берилаяпти. Айниқса, ушбу соҳага кўплаб имтиёзлар жорий қилинаётгани оилаларнинг тадбиркорлик истеъдодини юзага чиқаришда кўл келаяпти.

Бугунги кунда Бухоро вилоят "Хунарманд" уюшмаси аъзолари халқ хунармандчилигининг 30 тури бўйича 611 нафар бўлиб, шундан 333 нафарини хотин-қизлар ташкил этади. Улар кўпроқ чокли буюмлар, миллий либослар, зардўзи дўппи, кашта тикиш билан шуғулланадилар. Шунингдек, "Усто-шогирд" анъанаси бўйича ёшлар, ишсиз хотин-қизларни касб-хунарга ўргатиш мақсадида уюшма томонидан ҳомийлик асосида 16 та мактаб ташкил қилиниб, 80 нафар шогирд тайёрланди, 1 250 000 сўмлик ҳомийлик ёрдами кўрсатилди. ўтган даврда уюшма аъзолари томонидан тахминан 1 558 400 сўмлик халқ истеъмоли моллари, бадий аҳамиятга эга хунармандчилик маҳсулотлари ишлаб чиқарилиб, сотилган ва кўرғазмаларда намойиш қилинди. Маданий-маърифий тадбирларни уюштиришда маҳаллалар билан ҳамкорликда фаол иш олиб борилаяпти. Қолаверса, "Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик йили" Давлат дастурининг амалга оширилиши бўйича вилоят "Хунарманд" бошқармаси Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ҳузуридаги нодавлат ноижорат ташкилотларни ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтларини кўллаб-қувватлаш жамоат фонди уюштирган грант танловининг ғолиби деб топилиб, парламент комиссиясининг қарорига асосан, "Бухоро вилоятининг айрим туманлари ва қишлоқ жойларида аҳоли бандлигини яхшилаш ва даромадларини ошириш мақсадида ёшлар, аёллар ва жисмоний имконияти чекланган шахсларни кичик бизнес, тадбиркорлик, халқ хунармандчилигига жалб қилиш ва уларни касбга ўқитиш ишларини яхшилаш" лойиҳасини бажариш учун 15 000 000 сўм миқдорида грант ажратилди. Бунинг натижасида Ғиждувон туманида хунармандчиликнинг каштачилик, тош ўймакорлиги, кулолчилик, гилам тўқиш, ёғоч ўймакорлиги ва миллий либослар тикиш кенг йўлга қўйилган. 2016 йил давомида 70 нафар хунарманд давлат рўйхатидан ўтган бўлса, шундан 43 нафари хотин-қизлардир. Кам таъминланган ёки кўрик-танловларда иштирок этган хунармандларга уюшма Низомининг 5 ва 8-бандларига асосан имтиёзлар берилди. Ўтган йил давомида 41 нафар хунарманд 85 миллион сўм кредит олишга эришди. Кредит олиш мақсадида ҳужжат топширганлардан 12 нафари 2016 йил коллежни битирган ўқувчилардир. Улар "Усто-шогирд" анъаналарини давом эттириб, эгаллаган хунарни ривожлантиришга бел боғлаётган ғайратли ёшлар. 2017 йилнинг биринчи чорагида 27 нафар хунарманд давлат рўйхатидан ўтказилган бўлса, шундан 23 нафарини коллеж битирувчилари ташкил этади. Ғиждувон туманидаги 3 та касб-хунар коллежида учрашувлар ташкил этилди ва коллеж битирувчиларига хунармандчилик учун берилган имтиёзу шароитлар ҳамда улар учун белгиланган кам фоизли кредитлар бўйича тушунчалар берилди.

Хунарманд уюшмаси таркибида янги иш ўринлари очиш, айниқса, аёлларни иш билан таъминлаш мақсадида туманда адрас тўқишни ташкил этиш учун 2 та дўкон келтириб ўрнатилди ва ҳозирги кунда аёллар томонидан адрас матоси тўқилмоқда. Каштачиликни ташкил этиш мақсадида туман ҳокимлиги томонидан ажратилган бинога 5 та тўқув машинаси ўрнатилиб, ҳар хил сумка ва

бошқа маҳсулотлар тайёрланмоқда. Туман ҳунармандлари маҳсулотларини чет элларга экспорт қилиш учун Туркия, Афғонистон фирмалари билан контракт шартномалари тузилди. Маҳаллий ҳунармандларимиз тўғридан-тўғри бу мамлакатларга ўз маҳсулотини чиқариш ҳуқуқини қўлга киритишди.

Ғиждувон туманида халқ ҳунармандчилиқ турларидан асосан, бешикчилик, кулолчилик, тандир ясовчилар, ёғочдан халқ ҳунармандчилиғи буюмлари ясаш, каштачилик билан шуғулланишади. 2017 йилнинг иккинчи чорагида 20 нафардан зиёд ҳунарманд давлат рўйхатидан ўтказилиб, туман бўлимига аъзо қилинди. Уларнинг сонини янада кўпайтириш мақсадида маҳаллаларда тарғибот-ташвиқот ишларини олиб бораёلمиз. Кўпчилик ҳунармандлар солиқ тўлашни истамагани учун ҳам уюшмага аъзо бўлишдан бош тартади. Ҳолбуки, улар тўлаётган солиқ, Пенсия жамғармасига келиб тушаётган маблағлар эртага ўзига пенсия бўлиб қайтади. 2005 йилдан бошлаб ҳунармандлар учун пенсия дафтарчалари берилаяпти.

2017 йилда вилоят тижорат банклари томонидан оилавий тадбиркорлик ва ҳунармандчиликни ривожлантиришга 3,5 миллиард сўмдан ортиқ кредит маблағлари ажратилиши режалаштирилган бўлиб, ўтган 5 ой давомида ушбу йўналишга 1,8 миллиард сўмлик кредит маблағлари ажратиб берилди.

Оилавий корхона унинг иштирокчилари томонидан товарлар ишлаб чиқариш ва реализация қилишни амалга ошириш учун ихтиёрий асосда, оилавий корхона иштирокчиларининг улушли ёки биргаликдаги мулкда бўлган умумий мол-мулк, шунингдек, оилавий корхона иштирокчиларидан ҳар бирининг мол-мулки негизида ташкил этиладиган кичик тадбиркорлик субъектдир. У мустақил равишда товарлар ишлаб чиқаради ва нарх белгилайди. Мустақил равишда ўз молиявий маблағларини шакллантириш ва қарз маблағларини жалб этиш, шу жумладан, дастлабки капитални шакллантириш учун кредитлар олиш, лизинг ва суғурта хизматларидан фойдаланиш мумкин. Бундан ташқари, вилоят адлия бошқармаси томонидан 2017 йилнинг 1-ярим йиллиғи давомида тадбиркорлик субъектлари манфаатларини кўзлаб, бир қатор ишлар амалга оширилди. Хусусан, 2017 йилнинг 6 ойи давомида тадбиркорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасида 50 дан ортиқ мурожаатлар (шикоят) келиб тушган. Ушбу мурожаатларнинг 85 фоизи қаноатлантирилган. Шунингдек, 2017 йилнинг 2-чорагида адлия бошқармасининг "Ишонч телефони"га келиб тушган мурожаатларнинг 30 таси тадбиркорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўлими томонидан ўрганиб чиқилган. Ҳунармандларга яратилаётган енгилликлар хусусида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 1 апрелдаги "Халқ бадий ҳунармандчилиғи ва амалий санъатини ривожлантиришни рағбатлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги 3983-сонли Фармонига асосан, уй шароитида халқ бадий ҳунармандчилиғи ва амалий санъати буюмларини ишлаб чиқариш бўйича яқка тартибдаги меҳнат фаолияти билан банд бўлган тадбиркорлар томонидан ҳар ойда тўланиши лозим бўлган қатъий белгиланган солиқ тўловларини тўлаш юзасидан солиқ имтиёзи 2018 йил 1 январгача узайтирилди. "Ҳунарманд" уюшмасига аъзо бўлган жисмоний шахслар томонидан ҳар ойда бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасига энг кам иш ҳақининг бир баробар миқдорида тўловлар тўланиб келмоқда.

Вилоятимиз уста-хунармандлари орасидан ўзининг услуги, бетакрор қўлиши туфайли чет элларга танилган, танилаётганлари борлиги - фахримиз. Улар яратаётган мўъжиза жаҳон бозорларида ҳам ўз қадр-қимматини топган. Отабоболаримиз, чевар момоларимиз хунарини давом эттираётган хунарманд, косибу касаначи, хуллас, бир сўз билан айтганда, тадбиркорларимиз ўзларига яратилаётган қонуний имтиёзлардан, шарт-шароитлардан унумли фойдаланиши мақсадга мувофиқдир.

Хулоса ўрнида айтганда, мамлакатимизда амалга оширилаётган ижтимоий йўналтирилган сиёсат фуқароларни ишсизликдан муҳофаза қилиш чоралари кучайтирилганида, оилалар фаровонлигида, жамиятдаги барқарорлик ҳамда манфаатлар тенглигида ўзининг яққол ифодасини топмоқда. Зеро, бугун бутун дунёда эътироф этилган тараққиётнинг “ўзбек модели” ҳар бир шахснинг меҳнат қилиш, эркин касб танлаш, адолатли меҳнат шароитларида ишлаш ва қонунда кўрсатилган тартибда ишсизликдан ҳимояланиш ҳуқуқини, таъбир жоиз бўлса, ўз турмушидан мамнун, эртанги кундан хотиржам ҳамда бахтли ҳаёт кечиришини таъминламоқда.

PRACTICAL IMPLEMENTATIONS OF PROVERBS AND SAYINGS USE IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

*Nusratova A.Ch.,
Bukhara State University*

After Uzbekistan has got its independence, every sphere began to develop in our country. First of all, our government began reforming economy of the country as economy is considered to be the basic foundation stone of the state. Also education has been paid much attention to, during the tears of independence it was reformed from the beginning to the end thoroughly, as our first President I. A. Karimov told many times that our young, generation must be more educated, happier than previous generation.

Before starting this discussion, it might be wise to mention here at least some of the English proverbs which in themselves are folk definitions of a sort: "A good maxim is never out of season"; "All the good sense of the world runs into proverb"; "Proverbs are the children of experience"; "Proverbs are the wisdom of the streets"; "Nothing can beat a proverb"; "Proverbs cannot be contradicted"; "Though the old proverb be given up. it is none the less true"; "The old saying cannot be excelled"; "The wisdom of the proverb cannot be surpassed"; "Common proverb seldom lies"; "The old saying, long proved true, shall never be belied"; "Old saws speak truth"; "Every-proverb is truth"; "Old proverbs are the children of truth"; "What everyone says is true"; etc. ³³ It appears that to the mind of proverb users, i.e. the general population in all walks of life, the proverb contains a good dose of common sense, experience, wisdom and above all truth. Do such "definitions" still hold true-today, or do modern adults in a technological society see proverbs in a much more critical light? Are proverbs still considered to be solid kernels of wisdom and truth, or are they laughed off as antiquated bits of moral teaching?

³³ Linda and Roger Flavell. "Dictionary of proverbs and their origins". Cathie Limited. 1997.

The following 55 recent definitions of proverbs might include some surprises when one considers that they come from members of a sophisticated and highly educated society. The definitions were collected by merely asking various people to write their definition of a proverb on a piece of paper without any previous discussion of proverbs whatsoever. They represent spontaneous reactions to the simple isolated question "How would you define a proverb?" Here are the fascinating answers in alphabetical order:

1. A proverb consists of a short sentence which contains a general piece of wisdom.

2. A proverb contains wisdom which has been handed down from one generation to the next.

3. A proverb describes situations which happened before and which are repeated again and again.

4. A proverb expresses folk wisdom in formulaic, short and metaphorical language.

5. A proverb has been passed down through many generations. It sums up, in one short phrase, a general principle or common situation, and when you say it, everyone knows exactly what you mean. It is often graphic, symbolic or rhyming, so that it is easily remembered.

6. A proverb is a common expression whose origin is not known or has been forgotten. It expresses wisdom concerning life.

7. A proverb is a common, repeated and generally known phrase which expresses a general idea taken to be true. It usually draws upon everyday occurrences or events in nature which are easily understood.

Proverbs and sayings are effective part of vocabulary source as they can be useful to describe this or that situation. They are good means of making one's speech more persuasive, strong. Besides, they can provide learners with enough wisdom and knowledge as well. It is actual to know how to implement proverbs and sayings into practice. Considering these, we can claim that the theme is really actual to learn both theoretically and practically in modern methodology.

A proverb is a type of saying that contains a piece of advice or simply contains truth or any other universal value. It is a short statement that is popular and people make use of a proverb to express their feelings. A proverb can say a lot more than a thousand words. Morality, truth, wisdom, friendship, loyalty, etc. are the values that are glorified with the use of these proverbs.

I would like to recommend some issues related to the role of listening in learning the foreign language. To my mind, listening is an essential part in teaching and learning foreign language process, as a baby learns everything in the world by observing what he or she hears. We listen to a number of things in our daily lives, we can better analyze, ponder over some problems if we listen to people, speaking can be done only by our pack of knowledge gained through listening. Modern English lessons must be conducted with the help of listening materials. With the help of mass media or technology development process any teacher can get access to various authentic materials which can really be effective for students. Listening materials can have wider spectrum of themes including sport, politics, travelling, food whatever else. Certainly,

we can take into consideration students' needs and interests as well. Post-listening activities can be integrated with speaking, reading and writing as well. Teachers must try to implement all listening techniques and strategies in class as well. Besides, I would like to recommend teachers to use proverbs and sayings quite often, as they can be a good way of increasing vocabulary source, to use their critical thinking abilities in wider scale.

To conclude we would like to state the fact that modern education requires from teachers much effort and devotion to their jobs, otherwise it is a complicated job to conduct an effective class. Today communication has become the main foreign language skill in modern education. Learners must be able to get into communication easily in any situation, case. Surely, learners must have a broad world outlook, creative and problem solving skills to manage to cope with all language concerning issues and problems. Learning a foreign language does not only mean to know grammar rules by heart or just know some vocabulary items, it has quite wider functions as well. Communication has become the main essential parts of mastering a foreign language. In order to make this communication stronger in meaning, we should try to implement some other ways of making our speeches better, that can be done with the help of active usage of proverbs and sayings. Teachers should try to improve students' proverb and saying knowledge. It can be a strong tool to bring them up in good way as well, it helps to differentiate good and bad, it turns into a good way of realizing good things in life. Teachers should be as creative as possible in order to find out ways to present proverbs and sayings in colourful, interactive way to learners; different simulations, role-playings, watching English programs due to the levels of learners are effective ways of developing foreign language learning; watching cartoons can be a real effective way or an item in developing learners' communicative skills as they can be excellent movers or motivators for almost all leveled foreign language learners.

References:

1. Norton B. "The proverbs or the book of proverbs". Chicago. 1985.
2. Scott Thornbury, How to teach speaking, Longman, 2005
3. Linda and Roger Flavell. "Dictionary of proverbs and their origins". Cathie Limited. 1997.
4. Brown, H. D., Principles of Language Learning and Teaching, Englewood Cliffs, New Jersey: Prentice-Hall, 1987 Brown, H. D., Principles of Language Learning and Teaching, Englewood Cliffs, New Jersey: Prentice-Hall, 1987

BUYUK IPAK YO`LINING GEOGRAFIK JIHLARI

*Qo`chqorova D.P.,
BuxDU*

Dengiz, okean yo'llari ochilmasdan oldin bu yo'llar muhim ahamiyat kas etgan. Buyuk Ipak yo'li — insoniyat rivojlanishi tarixining, uning birlashuvga hamda madaniy qadriyatlari bilan almashishga, hayotiy fazo-yu mahsulotlarni sotish uchun bozorlarga erishishga intilishining o'ziga xos bo'lgan hodisasidir. Sharqda aytiladigan naqlga qaraganda: "O'tirgan — bo'yra, yurgan — daryo". Harakatlanish — bu hayotdir, sayohat qilish, jahongashtalik doimo taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan edi. Insoniyat tarixida eng ulkan bo'lgan ushbu qit'alararo savdo yo'li Yevropa

va Osiyoni bir-biriga bog‘lab, o‘tmishda antik Rim davlatidan to Yaponiyaning qadimgi poytaxti Nara shahrigacha cho‘zilgan edi. Albatta, sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo o‘tmish qa‘riga cho‘kkan qadim-qadim zamonlardan beri olib borilar edi, lekin bu kelgusida bunyod etilgan Buyuk yo‘lning aloxidagi qismlari edi. Savdo aloqalari hosil bo‘lishiga Markaziy Osiyo tog‘larida yarim qimmatbaho toshlar — Sharqda nihoyatda qadrlangan lazurit, nefrit, aqiq, feruzalar qazib chiqariladigan konlarni topib, qazib olish ko‘p jihatdan ko‘maklashgan. Masalan, Markaziy Osiyodan Eronga, Mesopotamiyaga va hatto Misrga lazurit toshi yetkazib beriladigan “lazurit yo‘li” mavjud edi. U bilan bir paytda „nefrit yo‘li” ham tarkib topgan, bu yo‘l Xotan va Yorkent tumanlarini Shimoliy Xitoy mintaqalari bilan bog‘lar edi. Bundan tashqari, Old Osiyo mamlakatlariga So‘g‘diyona va Baqtriya davlatlaridan aqiq toshlari olib ketilar edi, Xorazmdan esa feruza keltirilgan. Bu yo‘nalishlarning barchasi oxir-oqibat Buyuk Ipak yo‘liga kirib mujassamlashgan. Markaziy Osiyodan G‘arbgga va Janubga o‘tkazilgan karvon yo‘llarini hamda Xitoydan Sharqiy Turkistonga olib boradigan yo‘llarni o‘zaro bog‘lab bergan buyuk yo‘lning haqiqiy boshlanishini tarixchilar eramizdan avvalgi ikkinchi asrning o‘rtalarida, deb hisoblaydilar, o‘sha davrda xitoyliklar uchun ilk bora G‘arb o‘lkalari — Markaziy Osiyo davlatlari kashf etilgan edi.

Shuni aytib o‘tish lozimki, bu yo‘l hech qachon yagona bir yo‘l bo‘lmasdan, balki azim bir daraxtning sadasiga o‘xshash tarzda shoxlanib ketgan turli-tuman yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan edi. Masalan, Osiyoni sharqdan g‘arbgga qarab kesib o‘tuvchi asosiy yo‘llardan biri qadimiy Xitoyning poytaxti Chanan shahrida boshlanib, uning shimoli-g‘arbiy chegaralarigacha Gobi sahrosining cheti bo‘ylab ketgan, keyin sharqiy Turkiston orqali o‘tgan. Tyan-Shan tizmasi dovonidan oshib o‘tgan karvonlarinng bir qismi Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasi orqali So‘g‘diyoning poytaxti Samarqandga, Buxoroga, Xorazmga olib borgan, keyin esa Kaspiy dengizi qirg‘oqlariga yetib kelar edi. Karvonlarni gbir qismi Samarqanddan chiqib, Baqtriyaga borar va Qashqadaryo vodiysi dan o‘tib Termiz shahriga kelar edi, u yerdan Amudaryodan kechib o‘tib, Janubga, Baqtralar va Hindistonga qarab ketar edi. Yo‘lning yana bir yo‘nalishi Tarim shahridan chiqib, Takla-Makon sahrosini janub tarafidan aylanib o‘tib, Xotan va Yorkent shaharlari orqali Baqtraga (shimoliy Afg‘oniston) va Marvga kelar edi, bu yerdan karvonlar Eron, Suriya davlatlari orqali o‘tib, O‘rta Yer dengizi bo‘yiga yetib kelar edi, Mahsulotlarning bir qismi dengiz yo‘li bilan Rim va Yunonistonga kelib tushar edi. Nomidan ham ma‘lum bo‘lishicha, karvon yo‘llaridagi savdoning asosiy buyumi butun jahonda juda qimmatbaho bo‘lgan ipak mahsulotlari edi. Masalan, o‘rta asrlarning dastlabki davrida ipak eng qadrli hisob-kitob birligi bo‘lib, hatto tillani muomaladan siqib chiqaradigan darajagacha chiqar edi. Masalan, So‘g‘diyonda bir otning narxi o‘nta ipak kiyimliklariga tenglashtirilgan. Ipak bilan bajarilgan ishlar evaziga, navkarlarni yollash uchun to‘lov qilinlar, ipak bilan hatto sodir etilgan jinoyat evaziga xun to‘lash mumkin edi. Ushbu karvon yo‘llarini birinchi bo‘lib venetsiyalik savdogar Marko Polo „ipak yo‘li” deb nomlagan edi, u yevropaliklardan birinchi bo‘lib Xitoy imperiyasining chegaralariga yetgan. „Buyuk Ipak yo‘li” atamasini esa nemis tadqiqotchisi Ferdinand Rixtgofer 1877- yilda o‘zining „Xitoy“ nomli fundamental asarida ilk bora ilmiy tarzda kiritgan. Ipak qit‘alararo yo‘l orqali tashib o‘tiladigan asosiy mol bo‘lsa ham, lekin yagona emas edi.

Markaziy Osiyodan Xitoyda juda qadrlanadigan otlar, tuyalar, harbiy anjomlar va qurol-yarog'lar, oltin va kumush, yarim qimmatbaho toshlar va shisha buyumlar, teri va jun-mo'ynalar, gilamlar-u ip-gazlama matolar, zar tikilgan matolar, o'ziga xos antiqa mevalar — tarvuzlar, qovunlar va shaftolilar, yirik dumbali qo'ylar va ovchi itlar, qoplonlar va arslonlar olib chiqib sotilar edi. Xitoydan karvonlar chinni va metall idishlarni, laklangan buyumlar va pardoz-upalarni, choy va guruchni olib kelishar edi. Savdogarlarning yo'l to'rvolarida turli-ituman noyob buyumlar, fil qoziq tishlari, karkidon shoxlari, toshbaqa toshlari, ziravorlar va ko'pgina boshqa xil mollar topilar edi. Buyuk ipak yo'li orqali nafaqat savdo karvonlari, balki xalqlarning erishgan madaniy yutuqlari, ma'naviy qadriyatlari, diniy g'oyalari ham jahonga tarqalib borar edi. Buddizm Kushan davlatidagi boshqa dinlar bilan birga hukm surgan bo'lib, bu yerdan to Xitoygacha tarqalgan. Eramizning birinchi asrlarida Kichik Osiyodan bu yerga xristianlik dini kelib yetgan. Arab xalifaligining qattiqqo'l harbiy navkarlari VII asrda islom ta'limotini olib kelganlar. Savdogarlar va targ'ibotchilarning o'tkazgan yo'llari bo'ylab mo'g'ula sahrolaridan Yevropa tekisliklarigacha Chingisxon sahroyi bosqinchilari quyundek o'tgan. Buyuk Ipak yo'lining qoq yuragi bo'lgan Samarqand shahridan o'rta asrlardagi Sharqning buyuk sarkardasi Temur o'z yurishlarini boshlab, zafar quchar edi. Bundan tashqari, karvon yo'llaridan asrlar bo'yi allomalar, tadqiqotchilar ham sayohat qilar edi. Xitoy ruhoniysi Syuan Tszyan va venetsiyalik savdogar Marko Polo, arab sayohatchisi — savdogar Ahmad ibn Fadlan va bavariyalik sarkor Shiltberger, vengriyalik tadqiqotchi Arminiy Vamberi hamda shvetsiyalik geograf Sven Xedin, rus olimi Aleksey Fedchenko va frantsiyalik jurnalist ayoli Ella Mayyar, amerikalik geolog olim Rafael Pampelli va frantsiyalik sayohatchi Jozef Martenlarning yo'lda qayd etgan yozuvlari va ilmiy asarlaridan biz Buyuk Ipak yo'li bo'ylab yotgan mamlakatlarda yashagan xalqlarning tarixini, ularning urf-odatlarini va an'analarini bilib oldik. Sharq va G'arbni o'zaro bog'lagan bu beqiyos buyuk yo'lni bunyod etgan xalqlarning tirik bir xotirasi qadimiy O'zbekiston shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent shaharlari bo'lib, ularning me'morchilik yodgorliklari Buyuk Ipak yo'lining ko'p asrlik tarixini o'zida mujassam etadi.

Xulosa qilib aytganda, Buyuk ipak yo'li geografik jihatdan hududlarni bir-biri bilan bog'laydigan ko'prik vazifasini bajargan. Davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik tovar ayirboshlash do'stona munosabatlar uchun tarixiy zamin bo'lib qoldi.

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ONLAYN TRANSPORT XIZMATLARINING O'RNI

Jo'rayev A.T., dotsent, i.f.n.,

Kadirova Sh.X.,

BuxDU

Bugungi kunda turizmning jahon xo'jaligidagi hissasi yil sayin oshib, u muhim makroiqtisodiy tarmoqlar qatorida rivojlanmoqda. Mazkur soha dunyodagi ko'pgina davlatlarning daromad manbai sifatida ularning milliy iqtisodiyotida asosiy o'rin tutmoqda. Shu jihatdan O'zbekistonda mazkur tarmoqqa e'tiborni kuchaytirish muhim masalalardan biri.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub islohotlar olib borilmoqda. Jumlada, turizmni rivojlantirishga

ham Davlat tomonidan katta ahamiyat berilmoqda. Bunga misol qilib “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2016 - yil 2 - dekabrda Prezident Farmoni[1], “2017-2019 - yillarda Buxoro viloyati va Buxoro shaxri turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 - yil 19-maydagi Prezident Qarorlari[2] va boshqa qator turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan Qaror va Farmonlarni aytish mumkin.

Turistlarni bir joydan boshqa joyga olib boruvchilar ish bosqichlariga, ularning turistik mahsulot tarkibidagi o‘rniga muvofiq ravishda asosiy va yordamchi tashuvchilarga bo‘linadi.

Sayyohlarni tashishda asosiy vositalardan biri bo‘lgan transport vositalari muhim rol o‘ynaydi. Chunki transport tizimi qanchalik yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa sayyohlarning dam olishlari va sayohat qilishlari Shunchalik qulay bo‘ladi. Hozirda Respublikamiz turizmida ham zamonaviy transportlardan, ayniqsa, turistik korxonalarda qulay va komfort, avtodor va mikroavtodorlardan keng foydalanilmoqda. Bir davlatdan ikkinchi davlatga borishlari uchun charter reyslar ochilgan. Faqat viloyatlardagi turistik korxonalarda ham turistik vositalar yaxshi yo‘lga qo‘yilsa turistlarning ushbu shaharlarni ziyorat qilishlariga keng imkoniyat yaratiladi[3].

Turizm sohasini tashkil etuvchi asosiy infratuzilmalar: joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish xizmati va transport xizmati hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, turizm sohasini rivojlantirishda transport xizmatlari asosiy o‘rin egallaydi. Transport xizmatlarining rivojlanishi va takomillashib borishi sayyohlar uchun qulayliklar yaratib, ularning sayohatlarini yengillashtiradi. Bu orqali turizmning mamlakatda taraqqiy etishiga erishish mumkin.

Bir manzildan boshqa manzilga yetib borish uchun har doim transport xizmatiga ehtiyoj sezamiz. Har kuni insonlar ish bilan yoki boshqa maqsadlarda biror joyga yetib borishda ham transport xizmatlariga tayanishadi. Bunday paytda asosiy qulayliklarni jamoat transportlari bera oladi.[4] Shundan kelib chiqqan holda transport xizmatlari bugungi kunda hayotimizdagi eng muhim xizmatlardan biri hisoblanadi. Transport xizmatlaridan har kun har birimiz foydalanamiz. Shunday ekan, ko‘rsatilayotgan xizmatlarga bo‘lgan talabning kun sayin oshib borayotganligini inobatga olgan holda qulayliklarni ham takomillashtirib borish maqsadga muvofiq.

2018 - yil 7-fevaralda O‘zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning «O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi prezident qarori imzolandi. Unga ko‘ra, «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!» ichki turizmni rivojlantirish Dasturini amalga oshirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Ushbu qarorning ijrosini ta‘minlashda ham transport xizmatlari ham katta rol o‘ynaydi[5].

Deyarli barchamizda boshqa viloyat yoki shaharlarga tashrif buyurganimizda “Manzilga qanday yetib borsam?”, “Qaysi avtobus u yerga boradi?”, “Qaysi taksi firmalarining xizmatlari arzonroq?”, “Qancha vaqtda yetib boraman?”, “Chiptani qayerdan olish mumkin?”, “Taksi xizmati uchun qanday qilib onlayn to‘lovni amalga oshirsam bo‘ladi?” kabi savollarga duch kelamiz. Bunday vaqtda hammamiz uchun

taniqli bo'lgan google va yandex xaritalari (ushbu xaritalarda afsuski to'liq ma'lumotlar mavjud emas)dangina foydalanishimiz mumkin.

Vena, Praga, Portugaliya kabi rivojlangan mamlakatlarda yo'lovchilar chiptalarni mobil ilovalar orqali osongina xarid qilishlari mumkin. Bunday mobil ilovalar barcha yoshlar va boshqa yo'lovchilar uchun kattagina qulaylik yaratadi.

O'zbekistonda hozirda onlayn chiptalar poyezd va samalyotlarda qatnash uchun mavjud. Shuningdek, Toshkent shahrida jamoat transportidan foydalanish uchun electron chiptalarni xarid qilish imkoniyati mavjud. Ammo jamoat transportidan foydalanish uchun bir va ko'p martalalik onlayn yo'l chiptalari sotib olish imkoni mavjud emas. Biz bilamizki yo'lovchilarning asosiy qismi o'z mablag'lari ularning plastik kartochkalarida saqlashni afzal ko'rishadi va bu ularning onlayn chiptalarni xarid qilishlariga ehtiyoji borligidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqqan holda onlayn chiptalarga bo'lgan talab kun sayin oshib borayotganligini bilish mumkin. Mavjud chiptaxonalardan esa har doim ham plastik kartochkalar orqali yo'l chiptalari xarid qilish imkoniyati mavjud bo'lmaydi.

Viloyatlarda marshrutli transport vositalarining harakatlanishi tartibiga doimiy amal qilinmaydi va ular ustidan nazorat kuchli emas. Bu esa yo'lovchilarning ortiqcha vaqtlarining sarf bo'lishiga olib keladi.

Ushbu muammolarni o'rgangan holda, "Easy tickets" loyihasini amalga oshirishni taklif etaman. Ushbu loyiha aynan yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, sifatli transport xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlash bilan birgalikda ichki turizmni rivojlantirish orqali davlarimiz iqtisodiyotiga sezilarli darajada naf keltirishiga qaratilgan. Ushbu loyihaning asosiy g'oyasi quyidagilardan iborat:

Foydalanuvchilarning yagona dastur orqali manzillarga yetib boorish vaqti, masofasi, transport vositalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish;

Transport vositalarini tanlash va ularga onlayn chiptalarni onlayn xarid qilish;

Transport tashkilotlari yo'nalishdagi transport tashkilotlari ustidan nazorat qila olishi.

"Easy tickets" loyihasining ishlash holatiga quyidagicha misol keltiraman:

Buxoro viloyatiga tashrif buyurdingiz. Kogon shahri (temir yo'l vokzali joylashgan joy)dan Buxoro Davlat Universitetiga yetib bormoqchisiz. Dastur orqali onlayn xaritadan izlash qismida Buxoro Davlat Universitetini kiritib marshrutni belgilanadi. Belgilangan marshrut bo'yicha marshrutli transport vositalari raqamlari (378, 438, 268, 6, 72, 11, 86) va taksi firmalari ro'yxati, hamda ular orqali manzilga yetib borish vaqtlari, Shuningdek, bekatdan jo'nash vaqtlari paydo bo'ladi. Ro'yxatdan marshrutli transport vositalaridan birining raqami tanlanadi va ushbu yo'nalish uchun onlayn chipta xarid qilish tanlangandan so'ng, foydalanuvchiga plastik kartadan onlayn pul o'tkazilgach (1% ustama) QR-kod yuklamasi uzatiladi. QR-kod yuklab olingach marshrutli transportda uni skanerdan o'tkazish orqali yo'l kir to'lovi amalga oshiriladi.

Loyihani amalga oshirish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- Yo'lovchilarning vaqtini tejash;
- Onlayn chiptalar xarid qilish imkoniyati;
- Transport xizmatlari sifatining oshishi;

- Transport xizmatlari haqida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish;
- Avtobus nazoratchilariga ajratiladigan oylik maoshini tejash;
- Transport tashkilotlarining transport vositalari ustidan nazoratini kuchaytiradi va osonlashtiradi.

Ushbu loyiha turizmning mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmog'i sifatida taraqqiy etishida dolzarb hisoblanib, O'zbekistonda transport xizmatlarini takomillashtirish orqali turizmni rivojlantirishga bag'ishlangan.

va xalqaro transport tashkilotlari, Shuningdek, jamoatchilik transport tashkilotlari bo'lsa, uning predmeti ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishda transport xizmatlarini takomillashtirishga qaratilgan jarayonlar bo'lib hisoblanadi.

Loyihani amalga oshirish davomida turizmga transport xizmatlarining tutgan o'rni, transport xizmatlarining rivojlanish holati hamda O'zbekistonda transport xizmatlarini ko'rsatishda geografik axborot tizimlarini qo'llash imkoniyatlari va ularni takomillashtirish yo'llari ishlab chiqiladi. Shu bilan birgalikda, transport xizmatlarini ko'rsatishda GAT(Geo Axborot Tizimi)lardan foydalanuvchi mobil ilovalar, elektron dasturlar ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan.

ADABIYOTLAR

1. www.uzbektourism.uz/uz/qonunchilik/president -qarorlari-va-farmonlari
2. www.buxoro.uz/post/p-22249
3. www.kompy.info/iqtisodiyot.html?page=7
4. Kaspan Eka Putra, Juwita Magdalena Sitanggang “The effect of public transport services on quality of life in Medan city” -2016- ASEAN-Turkey ASLI Conference on Quality of Life-2016
5. www.standart.uz/ru/news/view?id=1422

BUXORO HUDUDIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO`LLARI

*O`roqova D.B.,
Buxoro davlat universiteti*

Ekologik turizm – bu tabiiy turizmning insonlarni birlashtiruvchi o`simlik va hayvonot dunyosini o`rganishga ilmiy yondashuv, tabiat qo`yniga sayohat, tabiiy - iqlim resurslari - okean, dengiz, daryo va ko`llar, sun'iy suv havzalari, cho`l va qumliklar, tog`lar va ulardagi sharsharayu g`orlar, qir - adirlar, qo`riqxonalar va bog`larga dam olish kunlari hordiq chiqarish bilan o`rganishni birgalikda amalga oshiriladi. Turizmning ushbu turida qo`riqlanayotgan tabiat hududlari alohida o`rin tutadi.

Mamlakatimizda nafaqat tarixiy-madaniy memoriy yodgorliklar balki ekologik turizm bilan bog`liq noyob tabiyati, lanshaft(cho`llar, tog`lar,daralar), tabiiy va suniy ko`llar, turli noyob hayvonlari va o`simliklar dunyosi bilan mashhurdir. Bu hududlar Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent viloyati va vodiylar kiradi. Ekologik turizm bugungi kunda eng ko`p foyda keltiruvchi turizm turlaridan biri bo`lib,ko`pgina mamlakatlarda tezkorlik bilan rivojlanmoqda. Buxoro viloyatida mavjud ekoturistik hududlarni kompleksli rivojlantirish, tabiat yodgorliklariga zarar yetkazmasdan ichki turistlar va xorijdan kelgan turistlar uchun turistlar uchun qiziqarli obyektlar, ya'ni muhofazaga olingan hududlar doirasida sayohatlar,turistik xizmatlar taklif qilinsa ekologik turizmni hududiy rivojlanishining muhim asosi hisoblanadi.

O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hamda turizmni rivojlantirish qo'mitasi Buxoro viloyatida ekologik turizmni rivojlantirish dasturi miqiyosidagi o'rni hamda ahamiyatini uning hudud salohiyati va rivojlanishiga mone'lik qilayotgan salbiy omillarni etiborga olib, ekologik turizmning rivojlanishiga qaratilgan quyidagi chora tadbirlarni ishlab chiqdi.

1. Jahonda ekologik turizm rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganib hududga moslashtirish kerak.

2. Viloyatimizda sayillar, ko'pkari, bog'dorchilik, sabzavot-polizchilik hamda uzumchilik tarmogi keng rivojlangan hosil yig'ish bayramlari, cho'llarda safari va ov turini tashkil etish.

3. Hududda ekologik turizmni rivojlantirish yo'llarining qisqa muddatda hamda uzoq muddatli o'zini oqlaydigan loyihalar ishlab chiqish hamda Viloyat hokimligi tomonida qo'llab-quvatlanishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

4. Hududiy kartalarning yo'qligi, turistning ijaraga olgan yoki shaxsiy transportda harakatlashi uchun Gis-GPRSlarida, internet orqali izlangan hududlar to'g'risidagi ma'lumotlar yo'qligi tabii xira qiladi.

5. Tabii yaratilgan qo'riqxonalarni bog'larni, suv omborlarni "Jayron" qo'riqxonasi atrofida yurtalar tashkil etish kelgan turistlar uchun joylashtirish, ovqatlantirish va tashish xizmatlarini tashkil etish.

6. Ekoturistik obyektlarni elektr energiya (yoritish, televideniya, radio, aloqa va x.k) i.f.n. N.S.Ibragimov, (BuxDU Katta ilmiyxodim izlanuvchisi) - tomonidan yaratilgan "Ekomehmonxona" g'oyasi orqali amalga oshirish mumkin.

7. Tadbirkorga va investorlarga ishlash uchun keng yo'l ochish kerak.

Turistlarni joylashtirish uchun yurtalarni qurish soha rivoji hamda qishloq joyida ko'pgina yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi. Buxoro viloyatida qishloq turizmni rivojlantirishning sharoiti va imkoniyati bisyor. Ekologik turizmni tashkil etish uchun sharoit mavjud. Eko turistik zonalar tashkil etilgan hududlarda transport va yol xizmatlarini yaxshilash kerak. Ekologik turizmning afzalliklari u uchun kehg komfartabelniy mehmonxonalar qurish kerak emas. Bunda shaharlik ichki turistlar uchun ham horijlik sayyohlar uchun ham birdek qiziq bo'lgan qishloqda yashovch insonlarning yashash turmushiga qiziqishi sabablidir

Ekologik turizmni rivojlantirish tabiat komplekslariga etkazadigan ta'siri ko'lamiga ga bogliqligi jihatidan aniqlash qiyin bo'lgan bevosita va bil vosita ta'sirlarga ajratiladi.

1. Bevosita yoki to'gridan to'g'rit a'sir quyidagilardan iborat

- Insonlarning fauna va floraga ta'siri

2. Bilvosita ta'sir quyidagilardan iborat

- tabii yashash muhitining o'zgarishi;

- geografik muhitning o'zgarishi;

- inson tomonidan o'simlik dunyosi hamda hoyvonot dunyosini genetik o'zgartirish ham bularga bo'lgan qiziqish ekologik turizmni rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Bilvosita boshqarish usuli esa turistlar hulq-atvorini o'zgartirish, ta'limi

Ekologik turizmi turlarini shakllantirishda turistning bu turdan maqsadlarini o'rganish kerak.

Qatnashchilar ishtirokiga ko`ra	Individual tur,oilaviy tur va Do`stlar yoki korxonadan tomonidan jomoaviy turlarga
Qancha vaqt, kun	Turning dovimiyligiga ko`ra
transport	Avtomobilida, hayvonlar xizmatida foydalanish
Turist ruhiyatiga ko`ra	Tavakkalchi Мотив
Yashah sharoitiga ko`ra	Madaniyatlar yaqin bo`lgan davlatlarga boradi Yangicha hissiyotlar tuyishnin xohlaydi. Faol va o`zgaruvchan
Maqsadiga ko`ra	Mamlakatni yoki hududni oldindan o`rganib keyin sayotga chiqqanligi Oldindan ularnig tilini o`rganadi. Sayohatchi yangi madaniyatni o`rganis uchun keladi Shoping-do`stlari va yaqinlari uchun sovga`lar xarid qiladi Bu sayohatdan yangi bilimlar hissiyotlar va xotira qoladi Sayohatchi erkin o`zi tanlagan pezajni rasmga oladiyoki chizadi. Aniq masadli Sayohatchi ekologik turizmni tanlashidan maqsad unga tabiat qo`ynidagi sokinlik yoqadi

Mutaxassislar fikricha ,bir marta ekoturizmga sayohatga chiqqan kishining fikri oshadi,dunyoqarashi ijobiy tomonga o`zgaradi, Shuningdek insonlar yaxshi xordiq olishlari ishning samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

Buxoro hududida ekoturizmning ahamiyatli tomoni Shundaki, sayohatlarni deyarli butun yil davomida tashkil etish mumkin. Turistlarni jalb etish uchun birinchi navbatda qulay xizmat ko`rsatish sharoitlarini yaratish, ularni transport bilan ta`minlash va Buxoroning turistik salohiyatini chet ellarda targ`ib qilishni amalga oshirish zarur. Buxoroda ekologik turizm rivojlanib borayotgan bo`lsada, unda ovchilik, baliqchilik kabi shakllari ko`proq tarqalgan. Ammo ularning samarasi tabiiy hududlar va milliy parklar uchun juda past, chunki topilgan daromadlar buzilgan ekologik muvozanatni tiklash va saqlashga doim ham sarflanavermaydi. Shu bilan birga, sayohatlarning atrof-muhitni o`rganish va uni turistik sarf–xarajatlar hisobiga qo`llab quvvatlashga qaratilgan ekologik shakllarni ham rivojlantirish lozim.

Buxoro hududida olib borilayotgan keng iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar ekoturizmni rivojlantirishga ham katta hissa qo`shadi va turizm sohasining yana bir turi ekoturizmning yanada rivojlanishini ta`minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati;

1. Aliyeva M.T., Umarjonov A.«Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti»
T: «Moliya» 2005

2. Axmedov X.I, Allabergenov A.A. «Turizm faoliyatini tashkil etish» T: 2004
3. Birjakov M.B.«Vvedeniye v turizm».Uchebnik. SPb.Izd. dom «Gerda», 2006
4. Ryabovoy I.A., Yu.V. Zabayev, Ye.L. Drachevoy. «Ekonomika i organizatsiya turizma». Uch. posob. M: 2006
5. Tuxliyev I.S. «Turizm asoslari» Samarkand 2008.
6. Tuxliyev N. «Ekonomika bolshogo turizma».T:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2001y.
7. Qudratov G‘.H, Tuxliyev I.S. Turizm iqtisodiyoti. Qo‘llanma. SamISI – 2007.

ГАСТРОНОМИЧЕСКИЙ ТУРИЗМ КАК ЭЛЕМЕНТ УВЕЛИЧЕНИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТОКА В РЕСПУБЛИКУ УЗБЕКИСТАН

*Кадырова Н.А.
БГУ*

Современный турист разительно отличается от путешественника, который был 20 лет назад. К числу приоритетов, на которые стали обращать больше внимания туристы нового поколения, добавились такие элементы как забота об окружающей среде, возможность ведения здорового образа жизни во время путешествия, желание принимать участие в образе жизни и культурных традициях посещаемой территории и многое другое.

Разумеется, описанное выше, как и всё что рассмотрено в данной статье, относится к собирательному образу типового туриста – путешественника направляющегося в другие государства в ознакомительных, культурно-просветительских целях. Материал не принимает в расчет особенности специфических видов туризма, таких как бизнес-туризм, медицинский туризм и прочее.

Существует множество точек притяжения, которые формируют интерес к посещению той или иной местности. В Узбекистане это в основном богатое культурное наследие, с её неповторимыми памятниками архитектуры, колоритными улочками, необычайным гостеприимством жителей и волшебной аурой восточной старины. Сегодня наше государство уделяет огромное внимание поддержанию и развитию данного аспекта. За последние несколько лет был проделан огромный объем работы для создания комфортной туристской инфраструктуры, обеспечения безопасности и повышения привлекательности региона для туристов. Исторические туристические направления, такие как Ташкент, Бухара, Самарканд и Хива значительно преобразились, стали удобней, ярче и красивей. Помимо этого, органы власти прикладывают немало усилий для создания новых центров притяжения с богатой историей и культурой и в других областях республики. Реставрируются древние памятники архитектуры, восстанавливаются местами позабытые традиции, строятся гостиницы и музеи, прокладываются транспортные маршруты.

Всё это уже сегодня даёт свои плоды, и поток туристов в наш край растет из года в год. Однако мировой опыт показывает, что для получения максимальной экономической выгоды от туризма, государство, помимо развития

ключевого направления и инфраструктуры, должно параллельно стимулировать зарождение новых направлений которые смогут заинтересовать иностранных гостей и вызвать желание посетить Узбекистан.

Одним из таких направлений в отношении нашего региона, может легко стать гастрономия. Именно перспективности гастрономического туризма я бы хотела посвятить данную статью. Учитывая особенную, богатую узбекскую кухню и большое разнообразие полезных и пока еще не так сильно загрязненных химией даров природы, гастрономический туризм имеет существенные шансы на успех в нашем крае.

Гастрономический туризм – это путешествие по странам и континентам для знакомства с особенностями местной кухни, кулинарными традициями, с целью отведать уникальные для иностранного туриста блюдо или продукт.

Среди стран, в которых на сегодняшний день гастрономический туризм (иногда называемый продовольственным туризмом) формирует существенное направление в привлечении тур потока можно выделить Францию, Италию, Японию и США. А в таких государствах как Узбекистан, Хорватия, Вьетнам или Мексика, несмотря на то что, еда играет очень важную роль в общественном быте, для привлечения туристов используется не в полной мере.

Нельзя сказать что, правительство не уделяет этому направлению внимания совсем. Проводимые фестивали, и презентации на темы имеющие отношение к кулинарии и гастрономическим традициям Узбекистана, безусловно, способствуют развитию в этой сфере. К примеру, сам фестиваль Шелк и Специи в какой-то мере является методом повышения гастрономической привлекательности Бухары. Однако, на мой взгляд, принимаемые меры должны иметь более широкий охват, и целью их должно стать формирование интереса к узбекской кухне как к независимой категории, являющейся первопричиной посещения региона. Следует отметить, что в настоящее время, в целом, гастрономия это лишь приятное дополнение к базовым туристическим программам, хотя и весьма важное, но всё-таки - дополнение.

Динамика последних лет показывает, что в туристических центрах Узбекистана из года в год растет число ресторанов с национальной кухней. Количество уникальных блюд насчитывает сотни разновидностей. Интерес туристов к нашей кухне стабильно растет. Популяризации узбекской кухни способствуют не только отзывы туристов посетивших нашу страну, но и огромное количество узбекских ресторанов по всему миру, а также популярные книжные издания с рецептами наших национальных блюд, написанные именитыми поварами.

Всё изложенное свидетельствует, что для формирования отдельного направления гастрономического туризма, в Узбекистане не потребуются существенных усилий. Процесс уже идёт автоматически, благодаря огромному потенциалу традиционной национальной кухни. Следует лишь направить его в нужное русло, и обеспечить условия для централизованной и программной популяризации гастрономического туризма на зарубежных рынках туристических услуг.

Согласно данным Аналитического агентства «ТурСтат», Узбекистан сегодня входит в пятерку лидеров среди стран СНГ и ближнего зарубежья по привлекательности для гастрономического туризма среди граждан России. Учитывая богатство традиций нашей кухни, на мой взгляд, наш край имеет все возможности для того, чтобы быть в пятерке лидеров не только среди российских туристов, но и среди туристов всего мира.

Сегодня большинство крупных туристических агентств Узбекистана имеют в своей программе гастрономические туры, которые согласно статистике пользуются популярностью. Однако назвать это направление загруженным пока нельзя. Для обеспечения полного раскрытия потенциала данной сферы туристического бизнеса требуется принятие государством ряда мер, направленных на систематизацию и придание динамики процессу.

Среди них можно отметить:

- централизованную популяризацию гастротуров на зарубежных рынках (презентации, конференции, участие в выставках, мероприятия при посольствах, реклама в периодических изданиях, ТВ, в сети интернет и прочее);

- стимулирование создания частным бизнесом инфраструктуры обеспечивающей максимально комфортное проведение гастрономических туров;

- создание и продвижение единого бренда, способствующего обеспечению узнаваемости данной категории туристических услуг;

- поддержку турагентств, предлагающих подобного рода услуги (фискальные послабления, компенсация маркетинговых расходов направленных на популяризацию бренда гастротуризма и пр.);

- защиту и признание местных продуктов посредством маркировки и обозначения места их происхождения;

- акцент на подготовку кадров в данном направлении;

- создание действенной системы сертификации гарантирующей безопасность пищевых продуктов;

- увеличение количества фестивалей, конференции и прочих мероприятий внутри страны с приглашением иностранных гостей способных обеспечить приток туристов в страну (сотрудники посольств, руководители индустрии туризма и пр.);

Данный список можно дополнить, в зависимости от ресурсов, которые государство готово вложить в развитие данного направления. Кроме того, некоторые из указанных пунктов уже выполняются, и постепенно способствуют росту активности в сфере гастрономического туризма, однако для полноценного эффекта, желательно принятие масштабных мер во всех направлениях сразу.

Наблюдая за преобразованиями, происходящими в нашем государстве последние несколько лет, хотела бы отметить что, на мой взгляд, принятие мер по бурному развитию в сфере гастрономического туризма это лишь вопрос времени, причем, относительно не далекого.

Список использованной литературы

1. Ш.М. Мирзиёев. Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан. Ташкент: Ўзбекистон, 2016.

2. Ш.М. Мирзиёев. Критический анализ, жесткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой в деятельности каждого руководителя. Ташкент: Ўзбекистон, 2017.
3. А.Б. Бгатов. Безопасность в туризме. Россия. 2010.
4. Е.Л. Писаревский. Основы безопасности туризма. Россия. 2010.

Использованные интернет ресурсы

5. <http://www.uza.uz>
6. <http://www.gov.uz>
7. <http://mice-uzbekistan.uz>
8. <http://www.centralasia-travel.com>
9. <http://www.worldcitiescultureforum.com>

NEOLOGIZMLARNI CHET TIL O`QITISHDA QO`LLASH MAHORATI

Ikranova A.A.,

Buxoro davlat universiteti

Xozirgi kunda ingliz tili o'qituvchilari ingliz tilida paydo bo'lgan yangi so'zlar va neologizmlarning ko'payishiga e'tibor qaratmoqda. Yangi so'zlarni o'rganish orqali madaniyatni tuShunish mumkin, Shuning uchun neologizm ingliz o'quvchilariga taqdim etilgan so'z materiallariga integratsiyalashuvi kerakligi va undan oqilona foydalanishi darkor. Neologizm tuShunchasi bo'yicha bugungi nazariyalar haqida umumiy ma'lumotlar beradigan bo'lsak, ingliz tilini o'rganuvchilarning ushbu leksik guruhga qanchalik yaxshi tanish ekanligini va sinf amaliyotiga integratsiyalashuvi haqidagi ularning fikr-mulohazalarini tahlil qilish maqsadida so'rov natijalarini e'lon qilish mumkin, va shu asnoda ularni sinfda dars berishning to'rtta strategiyasi mavjud. Ushbu strategiyalar eksperimental va ingliz tilini o'rganuvchilarning kommunikativ va madaniy qobiliyatlarini yanada rivojlantirish uchun potentsialga ega [1,214].

So'nggi bir necha o'n yilliklar davomida butun dunyo tillari yangi so'zlar sonining keskin ortganiga guvoh bo'ldik. Bu jarayon texnologiya va ilm-fan, iqtisod va kommunikatsiya kabi tez o'zgarishlarga, Shuningdek, madaniyatlararo hamkorlikni kengaytirishga bog'liq. Ingliz tili boshqa tillar orasida ushbu omillarning aksariyatiga ta'sir ko'rsatdi.

Ingliz tili haqiqiy global til bo'lib, ijtimoiy sohada 500.000 dan ortiq so'zlashni o'z ichiga olgan holda, butun dunyo bo'ylab yangi so'zlarni olishga yoki berish va qo'shimchalar bilan yangi so'zlarni yaratishga davom etmoqda. "Global Language Monitor" tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ingliz til har 98 daqiqada yangi so'zlarni qabul qiladi.[2,164]

Neologizmlar – ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yoki madaniy o'zgarishlar tufayli kishilik jamiyatiga yangi ma'noga ega bo'lgan o'zgarishlar hisoblanadi. Neologizmlar rasmiy va norasmiy leksik qatlamga ega bo'lishi mumkin. Boshqa tillardagi ingliz tilida neologizmlarning ko'plab leksik – semantik guruhlari mavjud bo'lib, ular inson hayotining turli sohalariga tegishli bo'ladi.

Masalan:

- Kompyuter va informatika texnologiyalari sohasi: (to computerize, telebanking, videobank)
- Lingvistik soha (artspeak, sportspeak, machine translation)

- Siyosat va ijtimoiy hayot sohasi (survivor, welfare mother, multiculturalism)
- Atrof muhitni himoya qilish sohasi (acid fog, energy belt,)

Xozirgi kunda mamlakatimizda xorijiy tillarni o`rganishda bo`lgan e`tibor kun sayin ortib bormoqda. Shu sababli ingliz tilining lug`at tarkibini o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ingliz tili lug`atidagi o`zlashmalarning etimologiyasi va ichki xususiyatlarini bilish ingliz tilini chet tili sifatida o`rganishga yordam beradi.

Adabiyotlarni o`rganish Shuni ko`rsatadiki, neologizm tuShunchasi farqli o`laroq, qabul qilingan nazariyaga va yondashishga bog`liqdir. Neologizmni turli nuqtai nazarlardan aniqlaydigan 5 asosiy nazariya mavjud:

Stilistik nazariya neologizmni stilistik jihatdan ishlatish yangiliklari bilan belgilanadigan so`zlar sifatida belgilaydi til: masalan har kuni ingliz tilida tezlashtiradigan meta tili yoki jargon misol bo`lishi mumkin.

Denotatsiya nazariyasi neologizmlarni yangi narsalar va g`oyalarni qo`llab-quvvatlaydigan va Shuning uchun yangi bo`lgan so`zlar sifatida belgilaydi (masalan, smartfon, selfie, elektron kitob))

Strukturaviy nazariya neologizmlarni to`liq yangi shakl va tuzilish yoki noyob akustik bilan so`zlar sifatida belgilaydi misol: mualliflik yoki yangi so`zlar yozuvchilar tomonidan hamda Tolkiening xobbit kabi asarlarida uchratish mumkin.

Etimologiya nazariyasi neologizmlarni tilda mavjud bo`lgan so`zlar sifatida belgilaydi, ammo keyingi yillarda yangi ma`no ishlab chiqdi: masalan. soyabon 1) yomg`irdan himoya qilish uchun ishlatiladigan qurilma; 2) «himoya qiluvchi kuch yoki ta`sir»

Lexikografik nazariya neologizmni lug`atlarda hali ro`yxatga olinmagan so`zlar bilan belgilaydi. Misol uchun, neologizm kinematografiyasi "film terapevtik vositalaridan foydalanish" ushbu mavzu Google qidiruv tizimida deyarli 70000 ta sarlavhaga ega, biroq standart lug`atlarda ro`yxatga hali hanuz olinmagan.[3,326]

Yuqorida keltirilgan nazariyalarda neologizm ta`riflarida kalit so`z - bu o`z-o`zidan bo`lishi mumkin bo`lgan yangiliklar bir-biriga qarama-qarshi. Adabiyotni o`rganish natijasida neologizmga oid ko`plab tadqiqot ishlari ko`proq tilShunoslik sohasiga tegishlie hisoblanadi.

Tilni rivojlantirish qonunlariga ko`proq qiziqish ko`rsatgan ingliz tilini o`rganayotgan talabalar bilan ishlashda neologizmni o`zlarining shakllanishiga turtki bo`lgan intralinguistic omillarga muvofiq o`rgatish mumkin. Shunday qilib, quyidagi neologizm guruhlari mavjud:

1. Til iqtisodiyoti printsipli asosida hosil qilingan neologizmlar
2. Lingvistik vositalarni ma`no jihatdan yanada ko`proq ifodalashga intiladigan neologizmlar
- 3.Lug`at tizimini tartibga solish
- 4.Ro`yxatga olish va konvertatsiya qilish [4,187]

Xulosa qilib Shuni aytish mumkinki, neologizmlar ona tili va ommaviy axborot vositalarining kundalik nutqining muhim qismini tashkil etadi. Tadqiqot natijalari Shuni ko`rsatadiki, ingliz tilidagi boshqa leksik birliklar bilan bir qatorda yangi so`zlarni o`qitish xorijiy tillar sinfining bir nechta afzalliklari bor:

1 bu o`quvchilarga ingliz tilida so`zlashuv nutqini "hozir va shu yerda" qo`llashni imkoniyatini beradi.

2 o'quvchilar ingliz tilida so'zlashadigan jamiyatning yangi madaniy tajribasi va uning bugungi tendensiyalari haqida fikr yuritishga va rivojlanishida yordam beradi.

3 Til o'rganuvchilarning o'zlari darslarda muhokama qilinadigan narsalar bilan bog'lanishlarini osonlashtiradi.

4 Sinf xonasida ishlatiladigan materiallarning haqiqiy hayotdan olinganligi va ularni qo'llay olishlari mugum ahamiyatga ega.

5 Neologizmlarning ko'p bo'lishidan qat'i nazar, o'quvchilarning til tasavvurlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi va bular so'z o'yiniga asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

British National Corpus (2015). See <http://www.natcorp.ox.ac.uk>.

Carusi A, & Hoel, A.S. (2014). Visualization in the Age of Computerization (Vol. 26).. (Kuk, 2010; Rets, 2014).

Coupland, D. (2007). Generation X: Tales for an Accelerated Culture. Teacher: The National Education Magazine, (Oct 2007), 59. . (Sanders, 2010).

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

*Narziyeva D.M.,
BuxDU*

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning bosh maqsadi-iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish, xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirishdan iborat.

Turizm mamlakatning bozor munosabatlarini rag'batlantirishning, milliy iqtisodiyotning boshqa sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishning, aholini ish bilan ta'minlashning, atrof - muhitni muhofaza qilishning, tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish bo'yicha ishlar yaxshilanishining, aholining madaniy va sog'liq darajasini ko'tarishning eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy masalalaridan biri bu turizmni rivojlantirishdir. Shu o'rinda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev turizm haqida quyidagi fikrlarni aytib o'tganlar: "Turizm – iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda".

Yurtimizda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat va ishbilarmonlik turizmi kabi yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli vazifalarni belgilab olishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli farmonini qabul qilinishi bu boradagi muhim hujjat hisoblanadi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi e'lon qilindi.

Dasturning III bobi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo’nalishlari” deb nomlangan. Ushbu dasturning “ Tarkibiy o’zgarishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish” bo’limida amalga oshirilishi mo’ljallanayotgan xorijiy sayyohlarning tashrif uchun keng sharoitlar yaratish, ularning sayohat dasturlarini mazmunan boyitish va ko’rsatilgan xizmatlar turlarini kengaytirish hisobiga turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari belgilab olinmoqda.

Buning uchun 2018 yil 10 fevralgacha Turizmni rivojlantirish davlat qo’mitasi, Tashqi ishlar vazirligi, “O’zbekiston havo yo’llari” MAK, Moliya vazirligi, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi hamkorligida normativ – huquqiy hujjat loyihasi tayyorlandi. Ushbu loyiha doirasida:

- Turizmni rivojlantirish uchun viza tartibini soddalashtirish;
- Xalqaro aviaqatnovlarni ko’paytirish, shu jumladan xorijiy aviakompaniyalarni jalb qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish;
- Turistik mahsulotlarni xarid qilish tizimi, jumladan, elektron to’lovlar tizimini rivojlantirish, sayyohlarga xizmat ko’rsatuvchi tashkilotlarga imtiyoz va preferensiyalar taqdim qilish;
- Sayohat dasturlarini mazmunan boyitish va ko’rsatilgan xizmatlar turlarini kengaytirish;
- O’zbekistonning sayyohlik salohiyatini keng targ’ib qilishga oid masalalar nazarda tutiladi.

Shuni aytish joizki, mamlakatimizda mustaqillik yillarida turizmning bozor munosabatlariga asoslangan yangi huquqiy va iqtisodiy asoslari yaratildi. Zamonaviy infratuzilma ob`yektlari barpo etilib, turizmning jahon andozalari darajasidagi yangi yo’nalishlari joriy qilindi. Mavjud tarixiy-madaniy yodgorliklar ta`mirlanishi barobarida, ular keng ko’lamda targ’ib etildi.

Bundan tashqari, turizmni rivojlantirishda xorij mamlakatlarida bo’lib o’tadigan sayyohlik ko’rgazma va anjumanlari muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimiz milliy madaniy merosini chet ellarda ommalashtirish, mamlakatimizga xorijlik sayyohlarni ko’proq jalb qilish va ichki turizmni rivojlantirish maqsadida mamlakatimiz sayyohlik tashkilotlari Madrid, Riga, Berlin, London, Parij, Tokio, Moskva, Istanbul kabi dunyoning yirik shaharlarida qator ko’rgazmalar tashkil etmoqda hamda xalqaro ko’rgazmalarda qatnashmoqda. Bu kabi tadbirlar o’z samarasini berib, xorijiy sayyohlarning yurtimizga oqimi tobora ko’paymoqda.

Bu kabi tizimli chora-tadbirlarning samarasi sifatida, yaqinda Buyuk Britaniyaning dunyoda mashhur “Financial Times” gazetasida chop etilgan maqolada 2017 yilda yilda jahon bo’ylab sayohatga chiqish istagidagilar uchun eng qiziqarli yo’nalishlar ro’yxati e’lon qilindi. Ushbu ro’yxatda e’lon qilingan to’qqizta davlat orasida O’zbekiston jahondagi eng diqqatga sazovor sayyohlik yo’nalishlari reytingida ikkinchi o’rinda qayd etildi.

Bu bejiz emas, albatta. Negaki, O’zbekiston sayyohlik ko’lami va tarixiy qadamjolari ko’pligi bo’yicha dunyodagi yetakchi davlatlar sirasiga kiradi. Mamlakatimizda 7 mingdan ziyod nodir tarixiy yodgorliklar hamda betakror arxitektura namunalari mavjudligi, so’lim qo’riqxonalar faoliyat ko’rsatayotgani, milliy

madaniyat, san`at va hunarmandchilikning ko'p asrlik an`analari asrab-avaylab kelinayotgani xorijliklarning yurtimizga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirmoqda.

Statistik ma'lumotlar Shuni ko'rsatadiki, 2017 yilda respublikaga tashrif buyurgan sayyohlar soni 2 mln. 520 ming nafardan ortiqni tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 24,3 foizga oshgan. Turizm xizmatlari eksporti esa 2016 yilga nisbatan 24 foizga oshib 1 mlrd. 557 mln. AQSH dollarni tashkil etmoqda.

Shuningdek, 2017 yil davomida jami 128 ta turoperatorlik xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari tashkil etilib, turoperatorlarning bugungi kundagi soni 561 tani tashkil qiladi.

Mamlakatimizda turizm sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida, istiqbolda xorijiy investitsiyalar, jahon brendlarini faol jalb qilish, turizm sohasida biznes uchun qulay shart sharoitlar yaratishni keng jalb qilgan holda, respublikamizning barcha hududida turizm infratuzilmasining zamonaviy ob`yektlari, eng avvalo, mehmonxonalar, transport-logistika tuzilmalari, muhandislik-kommunikatsiya ob`yektlarini bunyod etish, bu jarayonda yangi ob`yektlarning xalqaro andozalar, turistlar talab va ehtiyojlariga to'liq javob berishini inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib Shuni aytish joizki, O'zbekiston Respublikasida ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish kabi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yaqin istiqbolda hal qilish uchun keng salohiyatga ega bo'lgan turizm sohasini rivojlantirish borasida izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning Mamlakatimizda turizmni izchil rivojlantirish istiqbollari, sayyohlik ob`yektlaridan samarali foydalanish, ko'rsatilayotgan xizmat turlari sifatini oshirish, yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar oqimini ko'paytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahliliga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasi // 2017 yil. 3oktabr. www.uza.uz
2. O'zbekiston Respublikasi preidentining 2016 yil 2 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947 – son farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ РАСПОЛОЖЕНИЕ «ЛЯБИ-ХАУЗ»

*Анварва.З.М., Кучкарова.Д.П.,
БухГУ*

Ляб-и Хауз (узб. Labi Novuz] — букв. «У пруда», «У хауза») — одна из центральных площадей города Бухары, архитектурный ансамбль, созданный в XVI — XVII веках. Площадь образована зданиями медресе Кукельдаш (Бухара), медресе Диван-Беги и ханаки Диван-Беги, сгруппированными вокруг водоема хауза Надир-Беги. Размеры ансамбля примерно 150 на 200 метров.

В Средние века Ляби-хауз был оживленной торговой площадью, этому способствовала близость к главной торговой улице с её торговыми куполами (один из них находится в 200-х метрах от площади) и крайняя скученность построек в Бухаре, так что Ляби-хауз был попросту одним из немногих открытых пространств.

Первое сохранившееся сооружение на Ляби-хауз появилось в 1569-м году, когда сановник шейбанида Абдулла-хана II велел построить крупнейшее в Средней Азии медресе Кукельдаш. В начале 1619-20 гг по инициативе и на средства представителя узбекского рода арлат Надира Диван-Беги, визиря при Имамкули-хане, на площади разбивается хауз и возводится ханака, получившая имя своего создателя. В 1623-м году тем же Надиром Диван-Беги возводится здание караван-сарая, затем превращенного в медресе Диван-Беги. В 20-е годы хауз чудом избегает осушения, сделанного с большинством остальных хаузов Бухары, которые рассматривались как источники заболеваний, главную роль в спасении хауза сыграла высокая художественная ценность ансамбля. В позднее время на площади был установлен памятник Ходже Насреддину. Как и большинство хаузов города, Ляби-хауз было осушено, после Великой Отечественной войны из него сделали своеобразную спортивную арену — там проводились соревнования по волейболу и борьбе «кураш». В непосредственной близости от хауза в советское время располагались «Гастроном», ресторан «Бухара», кинотеатр «Комсомолец». В 50-х годах произошел пожар в «Гастрономе», магазин выгорел дотла, воды в проходившем рядом арыке «Шахруд» для пожаротушения не хватило. После этого инцидента власти города решили заполнить хауз водой, а в конце 50-х по периметру хауза проложили трубу — сделали примитивный фонтан, который работает до настоящего времени.

Расположение и планировка:

План комплекса Ляб-и хауз в Бухаре:

1 — ханака Диван-Беги; 2 — Боля-хауз; 3 — медресе Кукельдаш;
4 — медресе Диван-Беги; 5 — памятник Ходже Насреддину.

Ансамбль Ляб-и хауз расположен в юго-восточной части шахристана Бухары, поблизости от центральной торговой улицы Бухар, на участке, близком к Ляб-и хауз находятся Ток-и Тельпак Фурушон и караван-сарая Нугай.

Площадь представляет собой неправильный многоугольник, в восточной части которого находится медресе Диван-Беги, напротив него, на западной — ханака Диван-Беги, таким образом они образуют кош. По центральной оси коша с запада находится Боля-хауз, а чуть восточнее — памятник Ходже Насреддину. Вся северо-восточную часть занимает внушительное медресе Кукельдаш.

Архитектурные особенности.

Хауз Диван-Беги, хауз называющийся Диван-Беги представляет собой водоем восьмиугольной формы размером 42 на 36 метров и глубиной до пяти метров. Стенки хауза образованы каменными ступенями. Водоем был способен вместить более 4 000 м³ воды, которая поступала из системы арыков, стока хауз не имел. В позднейшее время хауз был превращен в фонтан.

Медресе Кукельдаш.

В северной части площади находится медресе Кукельдаш. Это самое старое сооружение на площади, оно было построено в 1568—1569 годах Кулбабой кукельташем- сановником Абдулла-ханом II. Медресе представляет собой прямоугольное сооружение размером 86 на 69 метров и включает в себя мечеть, дарсхану (место для обучения) и 160 келий-худжр. Планировка медресе неудачная — из-за отсутствия внутренних порталов худжр во во двор сооружение оставляет впечатление тесноты и нагромождения. [2]. Медресе выгодно отличается искусно выполненной отделкой куполов.

Ханака Диван-Беги.

Ханака была построена одновременно с хаузом в 1619-20 годах Надиром диванбеги, дядей и визирем Имамкули-хана. Ханака небольшая по размерам, крестообразная, с центральным купольным залом, вокруг которого в два этажа расположены худжры. По краям главного фасада расположены башенки, сам фасад украшен мозаикой, по бокам его нанесена вязь. Боковые фасады оформлены арочными входами и системами меньших арок.

Медресе Диван-Беги.

Медресе Диван-Беги находится в восточной части ляби-хауз, на одной оси с ханакой и хаузом. Медресе было построено в 1622-23 годах визирем Имамкули-хана Надиром диванбеги в качестве караван-сарая, но в дальнейшем было переоборудовано в медресе. Отличается планировкой, совершенно несхожей с типичной планировкой медресе — отсутствуют мечеть и лекционный зал. Фасад здания украшен мозаичным панно.

Вывод: По выше перечисленному мы узнали что, Ляб-и Хауз является архитектурно-историческим объектом созданный в XVI-XVII веках и до сегодняшнего дня не потерявшего своего авторитета. В сегодняшний день в международном и во внутреннем туризме ансамбль Ляб-и Хауз является горячей точкой для туристов.

MILLIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA XALQ BADIY HUNARMANDCHILIGI VA AMALIY SAN'ATINING AHAMIYATI

*Qurbonova O'.U.,
BuxDU*

Bugungi kunda vatanimiz har jabhada rivojlanib bormoqda. Sanoatning va agrar sohaning jadal rivojlanishi, mashinasozlik, energetika, kimyo, oziq-ovqat sanoati, transportning ko'payib borishi kuzatilmogda. Bu o'zgarishlar aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilib, ekologik turizmning taraqqiy qilishiga xizmat qilmoqda.

3. Целесообразно составить график рассылок и подготовить контент на месяц или два вперед. График не только не позволяет расслабиться автору, но и приучает, в хорошем смысле, пользователей к чтению писем с определенной периодичностью.

4. Базу подписчиков стоит наращивать естественным образом и только в крайних случаях покупать базы, принимая во внимание риски. Риски связаны с ухудшением репутации, упущением прибыли из-за попадания писем в спам, наложением фильтров на сайт, вплоть до судебного преследования по причине получения пользователями писем без их письменного согласия.

5. Соблюдайте разумный баланс между рекламной составляющей и полезностью контента. Современный тренд email-маркетинга — продажи сквозь призму интересной и полезной информации.

6. Важно уделить внимание темам рассылаемых писем, поскольку именно тема подталкивает пользователя прочесть email или наоборот, удалить его, не открывая.

Простая, но действенная формула говорит о том, что интерес складывается из выгоды и любопытства. Исходя из этого правила целесообразно формировать не только темы писем, но и формы подписок, например, вместо серого «подписка на новости» — «подписка на наши лучшие предложения», «подписка на индивидуальные скидки».

7. Сейчас половина всех email читаются на мобильных устройствах. Поэтому в качестве правила нужно принять либо адаптивность шаблона, либо ширину шаблона не более 650 пикселей. Другие следствия из требования дружелюбности мобильным устройствам: кнопки конверсий должны быть крупными, элементы стоит располагать в одну-две колонки.

8. В email-коммуникацию в ряде тематик вводится персонаж, от лица которого будет вестись рассылка. Этот ход помогает выстроить живую коммуникацию с пользователем.

9. Необходимо следить за отписками и анализировать их причины с целью оптимизации маркетинга, причем не только онлайн. Так, причиной отписки могут быть назойливость рассылок, ухудшение уровня контента, а также плохой сервис в офлайн-магазине, невыполнение сотрудниками компании на одном из этапов своих обязательств и др.

10. Аккуратный сбор статистики по проводимым рассылкам позволит оценить эффективность данного инструмента. Особенно важны следующие показатели и также их динамика: прочтения, переходы, отписки и попадания в спам. Если после определенной рассылки данные показатели стали хуже, нужно проанализировать причины и внести необходимые коррективы.

В итоге, при условии, что разработана грамотная стратегия email-маркетинга и ее цели согласуются с общей стратегией интегрированного маркетинга компании, рассылки могут стать мощным инструментом конверсии пользователей в клиентов и их последующего удержания.

BUXORO VILOYATIDA ASALARICHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI

*Doniyorov B.N., o'qituvchi,
Buxoro davlat universiteti*

Qishloq xo'jaligining daromadli sohaslaridan biri asalarichilikdir. Asalaridan sifatli va shifobaxsh asal bilan birga mum, gulchang, propolis, ya'ni yelimsimon modda, ona ari suti, asalari zahri kabi bir qancha biogen moddalar olinadi hamda qishloq xo'jaligida, tibbiyotda, tabobatda iste'mol uchun qayta ishlanadi. Bundan tashqari o'simliklarning changlanib tur barqarorlogini saqlab qolishda ham, quruqlik-havo muhitidan makon topgan parda qonotli beminnat yordamchilarning ta'siri beqiyosdir. Shuning uchun, bu soha etti xazina tarkibidan barqaror o'rin olgan.

Insonlarning sog'lom turmush tarzini amalga oshirish uchun asalari mahsulotlarining o'rni bo'lak. Jumladan, o'rta yoshli sog'lom inson sezgi a'zolarining normal ishlashi uchun sutkasiga 60-80 gramm toza asal iste'mol qilishi lozim. Ammo, bu ko'rsatgich kishi boshiga Buxoro viloyati misolida 30 gramdan oshmaydi. Asalarichilikdan olinadigan biogen moddalarga bo'lgan ijtimoiy-tibbiy ehtiyoj kunsayin ortib borayotganli tufayli mazkur amaliy sohani rivojlantirish zarurati o'z-o'zidan tuShunarlidir.

Buxoro viloyati sharoitida joydori, karpas, karnika, lugustika va boshqa bolari zotlari tabaqalashgan turli xildagi paketlarda boqiladi. Shulardan joydori va karpas zotlari yaxshi moslashuvchanligi va sermahsulligi tufayli keng arealni egallashga ulgurgan. Ba'zi bir tajribali asalarichilar mazkur zotlardan qo'shilgan duragaylarni

olishga ulgurganligi soha istiqbolining bir ko'rinishidir. Bolari oilasida bitta malikasi, mingtagacha erkak va bir necha mingta ishchi asalarilar bo'ladi. Buxoro viloyati sharoitida bolari boqiladigan bir va ikki xonali paket ko'rinishi quyidagi birinchi rasmda ifodalanadi



1-rasm. Bir va ikki xonali paketlarning ko'rinishi

Paketlarda ramkalar soni sakkizta va undan ko'p bo'lishi mazkur bolari oilasining yaxshi rivojlanayotganligini bildiradi va undan kutilayotgan birlamchi biologik mahsuldorlik barakali bo'ladi. Mazkur oilada malikasi sutkasiga o'z og'irligicha tuxum qo'yishga layoqatli bo'ladi. Tuxum qo'yish turg'unligi uyaga kelayotgan gulshira va gulchangning muvozanatli miqdoriga bog'liq. Bolari tuxumlarining olti qirrali mum kataklarda joylashishi bir-birini tokrorlamaydi. Bu holatni biotexnologiya laboratoriyalarida mikrobiologik tajribalarda petri likopchalariga sun'iy oziq muhit yaratib ahamiyatga ega mikroblarni ekich usuliga qo'llash yaqin kelajakda biotexnologiya oldida turgan ba'zi muammolarni innovatsion yechimi bo'lsa ajab emas. Quyida ikkinchi rasmda bolari tuxumlarining olti qirrali mum kataklarda joylashishi beriladi



2-rasm. Bolari tuxumlarining olti qirrali mum kataklarda joylashishi

Tuxum qo'yishdan oldin malika mum katakni bosh qismidagi sezgir a'zolari yordamida dastlab tekshirib, so'ng qornining keyingi qismini shu katakka kiritib tuxum qo'yadi. Agar malika tuxum qo'ygichi atrofidagi sezgir tuklar mum kataklar devoriga tegib ta'sirlansa ishchibolari, aksincha bo'lsa turiten rivojlanadi. Aprel oyidan iyun oyi oxirigacha oilada aholi soni ko'payib, yangi malika uchun zamin yarata boshlaydi. Bu holatni quyida 3- rasmda ko'rish mumkin



3-rasm. Bolari oilasidagi g'ujlanish oldi harakatlari

Oilada ikkita malika paydo bo'lishi bittasini g'uj bo'lib, uchib chiqishiga olib keladi. G'uj olma, o'rik, shaftoli, oddiy qarag'ay, bodom, qaroli va boshqa hayotiy shaklli fanerofitlardan o'rin oladi. G'ujlanish jarayonini nazorat qilish mumkin. Quyidagi 4-rasmda bolari g'ujlanishi beriladi



4-rasm. Oddiy qarag'aydagi bolari g'uji

G'ujni yangi va toza paketga solib olib, uning ehtiyojidan kelib chiqqan holda amaliy yordam ko'rsatiladi. Uning rivojlanish darajasi sun'iy bo'lingan bolari oilalardan ikki marta tez bo'ladi. Yangi qo'yilgan tuxumdan malika, turiten va ishchi bolarilarning rivojlanish vaqti abiotik omillarga bog'liq holda har xil bo'ladi. Masalan, malika uchun 16 kungacha, ishchi uchun 20 kungacha, turiten uchun 25 kungacha vaqt talab etiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, bolari oilasida malikaning o'rni beqiyos.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Buxoro viloyati sharoitida asalarichilikni rivojlantirish uchun tug'iladigan ehtiyojlarni qondiradigan innovatsion holatlar juda ko'p. Bolari tirik mavjudodlar orasida toza yashaydigan tur sifatida kuchli beshtalikka kiradi. Ularning jamoa bo'lib yashashi, oilasidagi mehnat taqsimoti morfofiziologik moslashuvchanligini yuksaltirgan. Oqibatda ularda atrof-muhit strukturasi o'zgarishiga nisbatan qisqa muddatda moslasha olish immuniteti takomillashgan.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ГОСТИНИЧНОМ БИЗНЕСЕ

*Очилова Н.М.,
БухГУ*

Особого внимания заслуживает термин «гостеприимство», а также сопутствующий ему сектор бизнеса – индустрия гостеприимства. Индустрия

гостеприимства является собирательным понятием для многочисленных и разнообразных форм предпринимательства, которые специализируются на рынке услуг, связанных с приемом и обслуживанием гостей. Не существует перечня всех основных видов деятельности, которые она охватывает

Индустрия гостеприимства теснейшим образом связана с иностранными языками. С каждым годом число путешествующих увеличивается. Но невозможно путешествовать вокруг света и не знать иностранных языков. Многие люди считают, что если Вы хотите путешествовать, то нужно знать массу разных языков, но далеко не все разделяют эту позицию. Большинство путешествующих – это люди, владеющие всего одним языком и не имеющие намерения оставаться дома.[1]

Но, с другой стороны, если туризм – это глобальное явление, то почему бы не создать новый искусственный язык, который бы был легок в изучении, включал бы в себя особенности других языков и который мог бы по достоинству занять место основного международного языка, хотя в сфере туризма. Это мог бы быть основной язык международного туризма, наряду с английским.

В конце 19 века такой язык был создан. Это был язык эсперанто. Свое название он получил в честь своего изобретателя. Человек, сотворивший первый в мире искусственный язык, - Людвиг Заменгоф, варшавский врач-окулист, псевдоним которого Эсперанто. Эсперанто строится на международной лексике, главным образом германоязычной и славянской. Первоначально это был всего лишь небольшой язык местного масштаба. Но позже он приобрел большую популярность и широко применялся в Англии, Франции, Польше и других странах. В основе алфавита эсперанто лежит латиница плюс 6 диакритических знаков. Ударение падает всегда на второй слог с конца. Решающую роль в словообразовании играют аффиксы, поскольку они позволяют многократно увеличить количество слов. К примеру, слово "granda" значит "большой" а "malgranda" – соответственно, "маленький"; "patro" is"отец" а "patrino" - "мать". Грамматика эсперанто намного проще грамматики любого другого естественного языка. В эсперанто существует 11 окончаний, которые обозначают соответствующая часть речи. Так окончание "o" говорит нам о том, что это имя существительное, "a" – прилагательное, или "i" – глагол. Поэтому выражение "malgrandabirdo" переводится как "маленькая птица" а "malgrandajbirdoj" "маленькие птицы", поскольку буква "j" означает, что это множественное число.[2]

В начале 20 века Эсперанто превратился из маленького славянского в крупный международный язык. Он нашел свое применение в различных сферах деятельности. Число слов увеличилось с 927 в 1887 году до 16000 в 1970. На эсперанто было опубликовано большое количество книг, в основном об античности и переведено на эсперанто более чем с 50 языков. Высшим руководящим органом эсперанто является Академия Эсперанто, основанная в 1908 г. Крупнейшая международная ассоциация эсперантистов – Универсальная Ассоциация Эсперантистов. Ассоциация эсперантистов имеет свои отделения более чем в 60 странах мира. В 1987 г. ЮНЕСКО призвала все мировое сообщество отметить 100-летний юбилей языка. Имеются отделения эсперанто

и в нашей стране: в Москве, в Санкт-Петербурге, во Владимире, в Новгороде и других крупных городах. А в декабре 1991 г. был создан Российский Союз Эсперантистов.

Но, несмотря на все свои достижения, эсперанто не стал языком международного общения во второй половине XX века. Место глобального языка занял английский. Это связано, в первую очередь, с политической обстановкой в мире того времени. "Холодная война", вооруженные столкновения и многие военные конфликты в различных уголках земли – все это оказало серьезное влияние на развитие международных отношений. Весь мир жил в состоянии войны между двумя сверхдержавами: СССР и США. Поэтому официальным языком общения стал именно английский. Но сейчас мы живем в относительно спокойное время и имеем все возможности для развития международного туризма и изучения иностранных языков.

Туризм - это отрасль экономики непродуцированной сферы, предприятия и организации которой удовлетворяют потребности туристов в материальных и нематериальных услугах, основная функция которого - обеспечить человека полноценным и рациональным отдыхом. Туризм является фундаментальной основой экономики многих развитых и развивающихся стран мира. В настоящее время, он превратился в индустрию международного масштаба, занимающую по доходам третье место среди крупнейших экспортных отраслей экономики, уступая лишь нефтедобывающей промышленности и автомобилестроению.[3]

Под туризмом понимают одну из форм миграции населения, не связанную с переменной местожительства или работы. Необходимость его дефиниции возникла в первой половине XX в. и была обусловлена повсеместным увеличением туристских потоков, растущим экономическим значением туризма и, как следствие, попытками статистического учета путешествующих лиц.

Международный туризм сегодня - это сфера социально-экономического комплекса, которая во многих странах превратилась в бурно развивающуюся индустрию. В настоящее время каждое 7-е рабочее место в мире приходится на туристский бизнес. По прогнозам ВТО (Всемирная Туристская Организация), к 2020 г. количество международных туристских прибытий составит 1,6 млрд, т. е. в 3 раза превысит показатели 2000 г. Ежедневные расходы туристов, исключая авиаперевозки, вырастут до 5 млрд долл. в день.

В настоящее время международный туризм получил значительное развитие и стал массовым социально-экономическим явлением международного масштаба. Быстрому его развитию способствует расширение политических, экономических, научных и культурных связей между государствами и народами мира.

Список использованных источников

1. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Туризм как вид деятельности. М.: Финансы и статистика, 2001.,с 157
2. Понкова М. Ресторан: нетрадиционный взгляд // www.art1.artefakt.ru.
3. Мацкивская Ю. Что к чаю? // Торговое оборудование в России 2012.,с178.
4. Современный словарь // www.sovremenniy.doco.ru.

МЕҲМОНХОНА УЧУН МИЖОЗЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШНИНГ САМАРАЛИ ЙЎЛЛАРИ

Муродов С.Б., талаба,

Илмий раҳбар: Хуррамов О.К., БухДУ

Ҳозирги вақтда, айниқса бозор иқтисодига ўтиш жараёнида реклама жуда катта аҳамиятга эга бўлиб борапти. Чунки ижтимоий ҳаётни бугунги кунда рекламасиз тасаввур этиб бўлмайди.

Ҳозирги кеча-кундузда ижтимоий ҳаётни рекламасиз тасаввур этиб бўлмайди, чунки реклама кундалик эҳтиёжга, аниқроқ айтганда, бозор талабига айланиб қолди. Чунки бозор иқтисодиётига ўтиш босқичида маҳсулотлар ишлаб чиқаришнинг турлари ниҳоятда кўпайди. Айни пайтда рақобат кучайиб бормоқда. Рақобат, аслида, бу яхши маънода сифат учун курашишдир, маҳнат ва интилишни, сифатли маҳсулотни юзага чиқаришдир.

“Маркетинг”, “Реклама” сўзлари ҳам шиддат билан ҳаётимизга кириб келмоқда. Айниқса, бу тушунчалар XX асрга келиб жуда ривожланиб кетди. Маркетинг- инглиз тилида “бозор” маъносини билдирса, Реклама сўзи латинчадан олинган бўлиб *reclamare*- “чақириқ, бақириқ, жалб қилиш” маъносини билдиради. Инглиз тилиди эса “*advertising*”. Реклама тўғридан-тўғри ахборот, яъни “информация” билан боғлиқ бўлади. Чунки ҳар-бир реклама замирида ахборот, маълумот, хабар ётади. Информация термини ҳам латинча бўлиб, “*informatio*” сўзидан келиб чиққан. Рекламадан ҳозирги вақтда жаҳон ишлаб чиқариш амалиётида кенг фойдаланилмоқда.

Замонавий реклама АҚШ, Япония, Канада, Буюк Британия, Франция, Германия, Италия, Испания, Швейцария давлатларида жуда ҳам ривожланган. Негаки рекламалар йирик фирма ва компанияларга жуда кўп даромад келтирмоқда.

Шу ўринда реклама тарихи ҳақида маълумот бериб ўтишга тўғри келади. Текширишлар шуни кўрсатадики, рекламанинг содда кўринишлари эрампдан аввалги асрларга бориб тақалади. Рекламалар дастлаб оғзаки тарзда бўлиб, чақириқ, бақириқ, жалб қилиш кўринишида бўлган. Дастлабки ёзма реклама матни Лондондаги музейларда сақланади. У Миср папирусига ёзилган бўлиб, Кул савдоси тўғрисида бўлган: “У яхши куради, эштади, соғлом, буюрган ишларингизни итоат билан бажаради.” деган сузлар ёзилган. Қадимий Мисрнинг Мемфис шаҳрида тошга ўйиб ёзилган реклама матни топилган. Унда шундай сатрлар бор: “Мен Мимос, Кипр орлидан бўлиб, шу ерда яшайман. Аллоҳнинг розилиги билан тушларингизни келишилган нарҳда изоҳлаб бераман”.

Реклама шиддат билан ижтимоий ҳаётимизга кириб келмоқда. XX аср тарихига илмий-техника тарққиёти даври бўлиб кирган бўлса, XXI аср ахборотлар технологияси даври бўлади, деган фикр-мулоҳазалар бор. Чунки дунёнинг бу чеккасидаги ахборот манбалари, янгиликлар, хабарлар тез суратлар билан дунёнинг у чеккасида намоён бўлмоқда. Ахборотларнинг бундай тез

тарқалиши жамият аъзоларига, ижтимоий ҳаётимизга, инсонларнинг турмуш тарзига, кундалик ҳаётига кучли таъсир этади.

Рекламанинг энг яқин “ҳамкорлари” телевидение, радио, газета, интернет каби оммавий воситалари (ОАВ)дир.

Дунё бўйлаб реклама куйидагича тақсимланади: телевидение орқали 36%, интернет 21%, радио орқали 27%, газета ва бошқа воситалар орқали 16%. Демак ТВ реклама учун энг асосий объектдир. Маълумотларга кўра, рекламага сарфланадиган 10 доллар (ўртача ҳисобда) 290 доллар бўлиб қайтар экан.

Маълум бўлишича реклама АҚШ иқтисодиётига йилига ўртача 700 миллиард доллар даромад келтирар экан. Энг қиммат рекламалар ҳам айнан АҚШ компаниялари томонидан тайёрланади.

Йилига ўртача АҚШ 80 млрд долл, Япония 30 млрд долл, Буюк Британия 12 млрд долл, Канада 5 млрд долл, Австралия 3 млрд долл рекламага харажат қилади.

Япониянинг “Дэнцу”реклама агентлиги 1228 милн ф-ст, АҚШ “Янч энд Рубикэм”758 мил. Ф.ст ва “Алинтэс” 538 ф.ст , Буюк Британиядан “Саатчи энд соатчи” 740 мил. Ф.ст йилига рекламадан даромад оладилар.

Реклама берувчи , реклама тайёрловчи ва тарқатувчи реклама материалларини охириги маротаба реклама эълон қилинган , берилган кунидан бошлаб бир йил давомида сақлаши шарт.

Реклама вақтига кўра даврий ва мавсумий рекламага бўлинади.

Даврий реклама деб йил давомида бериб бориладиган рекламаларга айтилади. Масалан, дорилар, озиқ-овқатлар маҳсулотлари, упа-эликлар, даволаниш масканлари ва ҳоказолар тўғрисидаги рекламалар бунга мисол бўлиши мумкин.

Мавсумий реклама эса йилнинг фаслига, даврига қараб бериб борилади. Масалан, янги йил совғалари, мавсумий кийимлар, ёзги дам олиш ормгоҳлари, ўқув юртларига қабул ишлари ва бошқалар. Рекламаларнинг берилиш вақти ҳам катта аҳамиятга эга. Буларни кишилар дам олаётган вақтда ҳаддан ташқари кўп берилиши инсон руҳиятига салбий таъсир этиши мумкин. Айниқса, реклама роликларининг қайта-қайта, тез-тез такрорланиши инсон асабини таранглатиради. Телевидениедан доимий бериб бориладиган сериалларда ҳам рекламаларнинг узок вақт такрор-такрор берилишини ижобий деб бўлмайди.

Реклама берувчилар эса имкон қадар томошабинлар кўпроқ телевизор кўраётган пайтда реклама беришни афзал кўрадилар. Чунки кечки вақтлардаги, яъни томошабинлар кўпайган вақтдаги рекламанинг нархи баландроқ бўлади. Кўринадики, реклама ишининг муаммолари жуда кўп. Ишонамизки, реклама фан сифатида яна ҳам ривожланади. Реклама вақт, давр талаби, фан ютуқлари, техника воситалари таъсирида янада шаклланиб такомиллашиб бораверади.

Назаримизда, XXI асрда реклама иши, унинг илмий назарияси, амалий иш фаолияти, истиқболлари фан сифатида ўрганилар экан, реклама турлари ҳам даврларга қараб ўзгариб, шаклланиб боради. Рекламалар ҳаёт тарзимизда янгилашиб, тарққий этиб бораверади. Унинг шаклланишига вақт ва инсонлар таъсир кўрсатади. Хозирга келиб рекламанинг анъанавий ва замонавий турларидан фойдаланиб келмоқдамиз.

Кўрғазмалар- анъанавий рекламалардан бири халқаро кўрғазмалар, бетакрор ҳунармандчилик ишлари, санъат асарлари намойиш этилади. Улар давлатни, миллатни, шахсинг обрўсини оширади, оммани, халқни жаҳонга танитади.

Босма (печатланган) реклама нашрлари

Каталоглар, буклетлар, варақалар, откриткалар, ахборот хатлари, йирик аллома, шоир ва ёзувчиларнинг портретлари, фирмаларнинг рангли расмлари, календарлар, этикеткалар, наклеякалар ва ҳо казолар босма (печатланган) реклама нашрларини ташкил қилади. Бу реклама тури жуда қулай бўлиб, уларни совға сифатида тақдим этиш мумкин. Кўрғазма, китоб магазини, кутубхона, корхона ва муассасаларга бундай реклама нашрлари файз киритади.

Плакат (нем. Plakat , франц. Placard-эълон,фиша)- графика тури катта вараққа ишлатилган тасвирий санъат асари. Олисан кўзгаяққол ташланиши , ўта таъсирчанглиги , оммабоплиги , тасвирининг кинояларга бойлиги ,ҳаммабоп рамзларишлатилиши , турли ҳажмдаги шакллардан фойдаланиш каби ўзига хос бадий воситалари билан бошқа ахборот манбаларидан фарқ қилади. Плакатлар - бу ахборотнинг бадий-кўрғазмавий тарғибот усули. Унинг мақсади кенг жамоатчиликни бўлаётган воқеъликка ишонтириш ва бу воқеъликда фаол қатнашиш, четда қолмасликка ундаш. Плакатлар кўзга ташланадиган, ишонarli, эсда қолarli бўлиши, инсонга таъсир этиши керак. Чунки улар яхши нарсаларни тарғибот қилади ва яхшиликка ундайди. Плакатлар композицияси узоқдан кўримли ва ўқишимли бўлиши лозим. Улар китоб ва чақириқлар билан бойитилиши мумкин.

Плакатлар мазмунига кўра 3 га бшлинади:

- 1) Иш плакати ёки реклама плакати.
- 2) Ижтимоий-сиёсий плакатлар.
- 3) Телереклама плакати.

Ўзбекистонда плакатлар XIX аср охири XX аср бошларида пайдо бўлди. Плакатлар XIX аср охири- XX аср бошларидан санъат даражасида ривожлана бошлади. Плакатнинг санъат сифатида ривожланишига Европадаги “модерн” стили туртки бўлган.

Дастлабки плакатлар қўлда ишланган ва кўпайтирилган . Хажвий расмлар кенг қўлланилган . Уста Наби Ҳафизов , М. Курзин,В. Уфимцев, В. Кайдалов ва бошқалар плакатчиликда самарали хизмат қилдимлар. XX асрнинг 60-80 йилларида А. Балканов , В.М. Громико, Ф. Когаров, В. Евенко ,Т. Ткачев ва бошқалар тинчлик , ахлоқ , иқтисод, маданий –маърифий мавзулардаги асарлар яратилди. Плакатлар, одатда, вақти-вақти билан алмаштириб турилади. Уларнинг эсда узоқ сақланиб қолгани энг яхши плакат ҳисобланади..

Шаҳарнинг шох кўчалари ва майдонларидаги электрон таблоли плакатлар русм бўлмоқда. Улар кўча ва майдонларни безаб кўркига –кўрк қўшадилар , шаҳар архитектурасини бузмайдилар.Ахборот технологиясининг ривожланиши , полигафия ишларининг янгиланиши ҳамда ҳаётга кенг кўламда компьютерграфикасининг кириб келиши плакатнинг янги имкониятларини излашни талаб этмоқда.

Афиша –(франц.-offe office-эълон)рекламанинг бир тури. Спектакль, концерт ва бадий адабий тадбирлар , томошалар , йиғинлар тўғрисида хабар берувчи махсус эълон. (Афиша томошагоҳлар олдига , кўча ва майдонларга махсус шитлар плоншитларга ёпиштириб , мустаҳкамланиб қўйилади.)

Ўрта асрларда бу вазифани жарчилар бажарганлар.16 асрдан афиша қоғозларда босила бошланди. 19 асрда афиша ишлаб чиқариш жуда тараққий этди.Бу соҳа билан рассомлар шуғулланганлиги сабабли афиша тасвирий санъатнинг бир турига айланди. 1914 йил15 январ Самарқандда , ўша йилнинг 27 феввалида Тошкентда (Миллий академик театрда) “ Падаркуш”(Бехбудий)спектакли қўйилиши муносабати билан ўзбек тилида илк афишалар тарқалган.

Ҳозирги кунда суратли, кўримли ,ранг –баранг афишалар юзага келмоқда Улар театр, концерт залларимиз , оромгоҳ ва кўча майдонларни безаб бормоқда.

Матбуот рекламаси- реклама эълонлари, мақолалар, интервью, ахборот, китоб шарҳи, аннотация, тақризлар, баъзи китобхонлар гуруҳига тайёрланган адабиётлар рўйхати, библиографик қўлланмалар, бадий асарлардан бирор лавҳалар ва бошқалар матбуот рекламаси ни ташкил этади. Бундай рекламалар мавҳумликдан холи бўлиб, аниқ фикр, нарса ва маҳсулотлар, хизмат усулларини тарғиб этиши лозим.

Телевидение реламаси - репортажлар, слайд ва клиплар, реклама роликлари, муаллиф ва мутахассислар билан учрашувлар телевидениедаги рекламаларни ташкил этади. Бу реклама тури халқ учун жуда қулай ва оммалашгандир. Бадий асар асосида тайёрланган бадий фильмлар, телевизион спектакллар, сериал фильмларидан олдин эфирга узатиладиган учрашувлар, асар ёзилиши ёки яратилишига доир тарихий материалларнинг берилиши, актёрлар ва таниқли кишилар билан суҳбатлар бунга мисол бўлади. Телевидение рекламасида актёрларнинг, суҳандонларнинг иштирок этиши телевидение рекламасини янада бойитади.

Телерадиокомпания каналларида ги берилаётган кўрсатувлар қиммати рекламалар кўп-оз берилишига қараб эмас , балки томошабинларнинг сонига қараб рейтинг баҳоланадилар. Бундан каналларда берилаётган реклама нархлари ҳам шунга кўра баҳоланади.

Ўзбекистон телеканалидаги “ Ассалом Ўзбекистон”, “Бизнинг кутубхона”, “ Шифокор қабулида”, ва бошқалар. “ Ёшлар”телеканалида “ Каталог”, “ Ўзимизники2, “ Оқ кабутар2, “Тошкент” телекўрсатувчида “Афиша”, “Телекурьер маркет”, “Репортаж” ва хоказоларни мисолга келтиришимиз мумкин.

Ўзбекистон телеканалидаги “ Ассалом Ўзбекистон”, “ Оталар сўзи –ақлнинг кўзи”, “ Врач маслаҳати” , “ТВ маркет ”кўрсатувларини мисол қилиб келтиришимиз мумкин.

Россия телевидениясида эса “ Сам себе режиссёр”, “ Что , Где ,когда ”, “ Маски -Шоу”, “ Поле Чудес”, “ Малаховка” ва бошқалар бунга мисол бўла ди. Бу кўрсатувлврдаги рекламалар нархи баланд бўлади.

Радио рекламаси- бадий композицияли эшиттиришлар, мулоқотлар, турли мазмундаги эълонлар, хабарлар, мутахассис, ёзувчи-шоир, актёр, давлат

арбоблари билан учрашувлар радио рекламаси ҳисобланади. “Савол-жавоб” асосида тайёрланган эшиттиришлардан кенг халқ оммаси унумли фойдаланади.

Бадий эшиттиришлар, эълонлар, рекламаларнинг мусиқа оҳанглирида берилиши мақсадга мувофиқдир. Чунки эшитувчи ўзига ёққан оҳанглир садосида ўзи ёқтирган ашулалар, мусиқалар билан рекламанинг берилиши инсон руҳиятига мос тушади.. Халқ радио орқали янги хабар ва эълонларни эшитишга ҳаракат қилади . Кенг омма учун радиорекламалар жуда қулай.

Транспортда реклама -шаҳарнинг барча транспорт турларидаги, ҳаво,сув транспорти, темир йўл транспортида ташкил этилган рекламалар транспорт рекламасининг ташкил этади. Транспортда рекламалар плакатлар, варақалар, ҳайдовчининг эълонлари орқали амалга оширилади. Масалан, метро вагонларида тиш пасталари, ичимликлар, дори-дармон, упа-эликларни реклама қилувчи плакатлар. Самолётларда стюардессаларнинг самолёт экипажи ҳақидаги маълумоти, унинг учиш баландлиги, самолёт қўнаётган шаҳарнинг қисқача тарихи, маҳаллий вақт, об-ҳаво ҳақидаги хабарлар ҳам транспорт рекламасидир. Темир йўл вокзалларидаги вагонларнинг кетиш-келиш вақти, йўлнинг йўналиши рақами ҳақидаги жадваллар, хизмат кўрсатиш тўғрисидаги йўлланма буклетлари ҳам транспорт рекламасидир.

Намуналар, мукофотлар ва совғалар - бу реклама тури жуда қувонарли, ҳаммага ёқадиган реклама туридир. Лекин унга эришиш, етишиш анча кўп ақлий меҳнатни, фидойликни, ҳалолликни талаб этади. Масалан, “Нобель” халқаро мукофоти, “Навоий”, “Зулфия” мукофотлари. самарали, ҳалол меҳнатлари учун бериладиган “Қаҳрамон”, “Хизмат кўрсатган” унвонлари, “Кўрик-танлов ғолиби”, турли совғалар орқали ҳам рекламани амалга оширилиши мумкин. Шахсларнинг мазмунли, унумли меҳнати, халқ, санъат, илм-фан учун бағишланган ҳаётларини намуна қилиб кўрсатиш ва уларни мукофот, унвон ва совғалар билан рағбатлантириш рекламалар ичида энг шарафли ёқимлиси ҳисобланади.

Такдимотлар- такдимотлар рекламанинг энг янги тарғибот усули бўлиб охирги йиллар ичида кенг тарқалмоқда. Масалан, китоблар такдимоти, дори-дармон, косметика маҳсулотлари,хизмат усуллари такдимоти. Такдимот маросимида маҳсулот муаллифлари, ишлаб чиқариш корхоналари иштирок этиб, айнан шу маҳсулотнинг сифати, халқ учун зарурлиги ва шунга ўхшаш фикрлар билдирадилар.Савол –жавоблар ўтказилади Маҳсулотлар совға қилинади, хизмат усуллари намойиш этилади.

Қадоқлаш, ўраш (упаковка)- бир неча асрлардан бери фойдаланиб келинаётган реклама усули халқ оммасига кенг тарқалган. Чунки маҳсулотларнинг чиройли қадоқлаш инсонларга яхши кайфият бағишлайди ва кейинги сафар ҳам шу усулдан фойдаланишга ҳаракат қилади. Масалан, совғаларни зар қоғозларда ураш, магазинлардан харид қилинган маҳсулотларнинг қулай, чиройли целлофан пакетларда берилиши ва бошқалар. Кейинги йилларда маҳсус қадоқлаш , ўраш хизматлари ташкил этилган. Масалан, “Карзинка Уз ” хизматчилари сизнинг совғаларингизни дидингизга , истагингизга мослаб рангли қоғоз,ленталар, гул қоғозлар ва тошлар, мунчоқлар

ва гербарийлардан фойдаланиб безатиб берадилар. Бу рекламанинг тури инсонларга эстетик дид ва кўтаринкилик бағишлайди.

Интернет хабарлари- компьютерларга киритилган ахборот манбаалари: интернетда турли хабарлар, слайдлар ҳам рекламанинг бир турини ташкил этиши мумкин. Web саҳифа ва порталларда янги ахборот манбаларининг тарғиботи, кутубхона фонди ёки маълумотлар каталоги рекламасини Web саҳифаларида жойлаштириш.

Семинар-тренинглари- семинар-тренинглари кейинги вақтларда оммалашиб бораётган реклама туридир. У орқали мутахассислар касблари юзасидан замонавий ишлаш тизими, иш фаолиятида керак бўладиган асбоб ва ускуналар янгиликлардан хабардор бўладилар. Семинар-тренингда вазирликлар, услубий марказлар, бошқармалар идоралар муммоларини ўртага ташлаб, унинг ечимини муҳокама қиладилар. Семинар-тренинг шўъбаларга, гуруҳларга бўлиниб, барча иштирокчилар маълум бир масалани, мавзунини муҳокама қиладилар. Семинар-тренинг охирида якуний мулоҳазалар, мавзунини ечими берилади.

Туризм рекламаси - туризм сўзининг асоси ҳисобланган “tour” лотинча “tornus” бўлиб, “доиравий шакл” мазмунини англатади. Бу сўз ўз маъносини ўзгартирмасдан бошқа Ғарб тилларига ҳам кириб келган. Немисчада фақатгина “auslander” (ажнабий ёки хорижий) сўзи ишлатилади. 1958 йилдан бошлаб немис тилида ҳам “turist” (турист) сўзи ишлатила бошланди.

International Webster луғатида tour (тур) нинг маъноси қуйидагича ифодаланган: “Илк бршланган жлйга қайтиб: иш, завқ, ўқиш учун қилинган саёҳат ва бу саёҳатлар мобайнида турли хил жойларни зиёрат қилишган ва режалаштирилган саёҳат дастуридан юзага келадиган жараён”.

Мустақил Ўзбекистон туризмга катта эътибор бериб келаяпти, чунки туризм халқлар ҳаётида кенг аҳамиятга эга бўлган фаолият бўлиб, мамлакатга валюта тушумини келтириш мумкин бўлган қудратли иқтисодий воситадир. Ўзбекистоннинг туризм фаолияти учун имконияти кенг: тарихий шаҳарлар, гўзал табиат, миллий санъат, ҳунармандчилик намуналари ва ҳоказо. Туризм рекламанинг энг кўп даромад келтирадиган соҳаси десак, муболаға бўлмайди.

ФАЛСАФАДА МЕТОД ВА МЕТОДОЛОГИЯ МУАМОСИ

*Раунова Р.С.,
БухДУ*

Оламдаги нарса ва ҳодисаларнинг ҳаракати, ўзгариши, бир ҳолатдан иккинчи ҳолатга ўтиб туриши, ривожланиши, улар ўртасидаги алоқадорлик ва ўзаро таъсир каби масалалар қадимдан мутафаккирлар, олимлар, файласуфлар ўртасида турли баҳс, мунозара, тортишувларга сабаб бўлган. Чунки улар тўғрисида аниқ билимга эга бўлмасдан туриб, олам ва унинг тараққиёти, ривожланиш манбаи, ҳаракатлантирувчи кучлари тўғрисида ҳамда, энг асосийси, келажак ҳақида илмий тасаввурга эга бўлиш қийин.

Атрофимиздаги жамики нарса-ҳодисалар, яъни энг майда заррачалардан тортиб то Ер, Қуёш, Коинотгача барчаси, шу жумладан, кишилиқ жамияти ҳам, доимо ҳаракат, ўзгариш ва ривожланишдадир. Улар ўртасида абадий ўзаро

боғлиқлик, ўзаро таъсир ва алоқадорлик мавжуд. Оламда ўз-ўзидан, тасодифий равишда ҳеч қандай ҳаракат ҳам, ўзгариш ҳам юз бермайди.

Боғланишларнинг турлари. Биз нарса ва ҳодисаларнинг ҳаракати, ўзгариши ва ривожланишига улар ўртасидаги боғланиш ва алоқадорлик, таъсир ва акс таъсир асос бўлади, деймиз. Албатта, оламдаги ҳар қандай боғланиш ҳам ривожланишга сабаб бўлавермайди. Чунки бу боғланишларнинг кўлами, моҳияти, таъсир кучи ва доираси турлича. Боғланишларнинг ана шу хусусиятларига қараб, зарурий ва тасодифий, ички ва ташқи, бевосита ва билвосита, муҳим ва муҳим бўлмаган ва ҳоказо боғланишларга ажратиш мумкин.

Шунингдек, оламда бошқа воқеа ёки ҳодисалардан алоҳида, улар билан боғлиқ, ўзаро алоқадорликда ва таъсирда бўлмаган бирорта ҳам воқеа ёки ҳодиса мавжуд эмас. Демак, ўзаро боғланиш ва таъсир натижасида нарса-ҳодисаларда ўзгариш содир бўлади. Лекин, барча ўзгаришни ҳар доим ҳам бирданига, яққол сезиш мумкин эмас. Чунки оламнинг намоён бўлиши турли даражада бўлганлиги сабабли, ўзгаришлар ҳам турличадир.

Масалан, янги туғилган чақалоқнинг бир ҳафта, бир ой, ярим йил мобайнидаги ўзгаришини, яъни улғайишини ёки бўлмаса, табиатдаги киш фаслидан баҳор фаслига ўтишдаги ўзгаришларни оддий кўз билан яққол сезиш мумкин. Лекин бирон жонсиз предмет, масалан, Ер қаъридаги ички жараёнларни маълум даврдан кейин сезиш мумкин. Ана шу сабабдан ҳам одамлар зилзилалар, вулқонлар отилиши каби офатлар қаршисида лол, гоҳида эса ғафлатда қолиб келмоқдалар. Яъни ташқи факторлар (инсон фаолияти, ёруғлик, иссиқлик, намлик, атмосфера босими) натижасида рўй берган ўзгаришларни кўз кўради, кулоқ эшитади. Хуллас, улар осон англаб олинади, очиқ-ойдин намоён бўлади. улардаги ўзаро боғлиқликни ҳам осон кўриш, илғаш мумкин. Ана шундай осон кўриш ва илғаш мумкин бўлган, очиқ-ойдин рўй берадиган воқеа, ҳодиса, натижага нисбатан «зоҳирийлик» тушунчаси, моҳиятини илғаш қийин бўлган ва мураккаб ички сабаблар натижасида кечадиган жараёнлар ва ўзгаришларга нисбатан «ботинийлик» тушунчаси қўлланилади. Ўрта асрларда, айниқса тасаввуф фалсафасида бу икки тушунчага алоҳида эътибор берилган.

«Ҳаракат» тушунчаси «Борлиқ фалсафаси» мавзуида ёритилганлиги сабабли, бу ерда унинг қуйидаги қисқа таърифи билан чекланамиз: ҳаракат деб оламдаги ҳар қандай ўзгаришга айтилади. Ривожланиш тушунчаси эса қуйидан юқорига, оддийдан мураккабга томон илгарилаб борувчи ҳаракатни ифодалайди. Лекин бу жараён гоҳ тўғри чизикли, гоҳ аста-секин кенгайиб борадиган спиралсимон шаклдаги ҳаракатдан иборат бўлиши мумкин.

Бунда доимий бир томонга, масалан, вақтнинг ўтмишдан келажакка томон ўтиши ҳам, лекин маконда воқеа ва ҳодисаларнинг такрорланиши, замонда орқага қайтишлар ҳам содир бўлиб туради. Баъзида тараққиётнинг маълум бир босқичида олдинги босиб ўтилган давр такрорлангандек бўлади, аммо бу илгаригидан фарқ қиладиган, бошқачароқ тарздаги такрорланишдир.

Ҳеч қачон бир хил тонг отмайди, деб бежиз айтмайдилар. Ҳолбуки, ҳар куни тонгда ўша Қуёш чиқади, ўша тоғу тошларни, боғу биёбонларни, биз яшаётган заминни ёритади. Одамлар ҳам, иш ва ташвишлар ҳам ҳамон ўша-ўшадек. Кимдир ишга шошади, кимдир ўқишга, кимдир яна илгариги кундек бекорчиликдан

зерикади... Аммо дунё ўзгармадими бу бир куннинг ичидаг унда минглаб болалар туғилмадими, сон-саноксиз жараёнлар рўй бериб, Ер сайёрасининг турли бурчакларидан бошқа жойларга қанчадан-қанча ахборотлар тарқатилмадими? Она замин ўз ўқи ва Қуёш атрофида айланишини давом эттирмадими? Буларнинг барчаси бир куну-тунда рўй берган ботиний ва зоҳирий ўзгаришларнинг намоён бўлишидир.

Қонун тушунчаси. Дунёнинг мавжудлиги ана шундай ботиний ва зоҳирий ўзгаришларнинг абадий такрорланиб туришидан иборатдир. Бу такрорланишлар эса ўз моҳияти ва хусусиятларини сақлаб қолганликларидан қонун ва қонуният тусини олган.

Масалан, биз Ньютон томонидан кашф этилган бутун олам тортишиш қонунини ўрганганимизда ана шундай ҳолни идрок этганмиз. Бу қонуннинг асосий моҳияти бутун оламдаги нарсаларнинг бир-бири билан алоқадорлиги тамойилининг доимий такрорланиши, ҳар сония ва ҳар дақиқада бу ҳолатнинг содир бўлиб туришини исботлайди.

Хўш, қонун ўзи нима? У киши ва умуман, жамият ҳаётида қандай аҳамиятга эга? Қонунни билмасдан, ўрганмасдан туриб яшаш мумкинми? Қонун тушунчаси кундалик ҳаётимизда нисбатан тез-тез ишлатиб туриладиган тушунчадир. Хусусан, физика ёки кимё қонунлари деймиз, табиат қонуни ёки бўлмаса, иқтисодий қонунлар, юридик қонунлар ва ҳ. к. Бозор иқтисодиётига ўтиш тамойилларининг учинчиси ҳам қонун тўғрисида бўлиб, унда барча соҳада қонуннинг устуворлиги таъминланиши таъкидланади. Юқоридагиларни бирлаштириб турадиган, барчаси учун ҳам умумий бўлган хосса, хусусиятлар борми?

Энг аввало, шуни айтиш керакки, оламдаги барча нарса — табиат, жамият ва инсон тараққиёти маълум қонунлар асосида амалга ошади. Фанларнинг (ижтимоий, гуманитар, табиий ва ҳ. к.) асосий вазифаси ҳар бир соҳа бўйича тадқиқот ўтказиб, қонунларни кашф қилиш ёки уларнинг амал қилиш хусусиятларини ўрганиш ва очиқ беришдан иборат.

Қанча кўп қонун кашф қилинса, тараққиёт шунча тез бўлади. Тараққиёт қонунларини билмасдан туриб, ривожланишга эришиш қийин. Яқин ўтмишда иқтисодиётнинг ўзига хос қонунларини писанд қилмай, турли хил съезд, пленум, конференция қарорлари асосида экспериментлар ўтказиб, барча учун фаровон ҳаёт — коммунизм жамиятини барпо қилмоқчи бўлишганини ва бундай сиёсат қандай оқибатларга олиб келгани барчага маълум.

Ҳозир мустақил Ўзбекистон барча ривожланган мамлакатлар сингари ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётига асосланган демократик давлат, фуқаролик жамияти барпо қилиш йўлидан бормоқда. Бунда умумбашарий қонунлар ва мамлакатимизнинг ўзига хос хусусиятлари эътиборга олинган.

Энди шундай савол: Нима учун инсон қонунни билиши керак? Бунда оддий мисолларга мурожаат қиламиз: ёз ойларида барча одамлар иссиқ кийимлар (этик, пальто, қўлқоп ва ҳ. к.) сотиб олишади, ўтин ёки кўмир ғамлаб қўйишади ва ҳ. к. Нима учун? Чунки улар табиатнинг битта қонунини, яъни фаслларнинг ўзгариши, ёздан кейин куз, ундан кейин қиш келишини жуда яхши билишади.

Ёки яна бир, жўнроқ бўлса-да, мисол: сизга биров уйнинг 5-қаватидан ташласанг, фалон пул бераман деса, рози бўлмайсиз. Нима учун? Чунки сиз И. Ньютон кашф қилган «Бутун олам тортишиш қонуни»ни яхши биласиз. Балки билмассиз ҳам, ҳавонинг ўз жисмингиздан зичлиги камлигига эътибор қилмассиз ҳам, дейлик. Аммо сиз бу ҳолда омон қолишингиз қийинлигини, майиб бўлишингизни яққол тасаввур қиласиз.

Инсон қонунларни билиши, уларга амал қилиши доирасида эркиндир. Эркинлик нима? Эркинлик англаб олинган заруриятдир. Ҳар қандай қонунга хос белгилардан бири зарурийлик, яъни объектив тарзда амалга ошиш, ўз-ўзидан намоён бўлишдир. Эркинлик эса ана шу зарурийликни англаб олиш ва унга амал қилишдан иборат фаолиятни англатади.

Юристарда шундай ибора бор: «Қонунни билмаслик жавобгарликдан холос қилмайди». Ана шу туфайли сиз юридик қонунларни қанча яхши билсангиз, ўзингизнинг фаолиятингизни шунга мослаб олиб борасиз. Демак, шунча эркин бўласиз. Бу ҳолда сиз нима қонуний, нима эса қонуний эмаслигини яхши биласиз, қонунга хилоф қадамлар қўймайсиз.

Юқоридаги фикрларни хулоса қилиб, қонунга қўйидагича таъриф бериш мумкин: Қонун оламдаги нарса ва ҳодисаларнинг муҳим, зарурий, умумий ва такрорланиб турувчи боғланишлари, ўзаро алоқалари ва муносабатларининг намоён бўлишидир. Энди қонуннинг белгиларига тўхталамиз:

- қонун турли-туман алоқадорликлар, боғланишлардан фақат муҳимларини, яъни шундай боғланишларни ифодалайдики, булар оламнинг мавжудлиги, ўзгаришлари ва ундаги нарса ҳамда ҳодисаларнинг моҳиятидан келиб чиққан бўлади;

- қонун зарурий боғланишларни ифодалайди, яъни тасодифий боғланишлар, гоҳ пайдо бўлиб, гоҳ йўқолиб кетадиган боғланишларга асосланмайди.

- қонун нарса ва ҳодисаларнинг умумий боғланишларини ифодалайди.

Қонун нисбатан барқарор, такрорланиб турувчи боғланишларни (муносабатларни) ифодалайди, яъни бир сафар юз бериб, иккинчи сафар юз бермайдиган боғланишларни қонун қамраб олмайди. Масалан, 2001 йили қишдан кейин баҳор келиб, 2002 йилда қишдан кейин бирданга ёз келишини тасаввур қилиб бўлмайди. Чунки, бу табиат қонуни — фасллар ўзгариши қонуни доирасига кирмайди.

Табиат қонунларининг яна бир энг муҳим хусусияти — у объектив характерга эга, яъни у инсонга ҳам, инсониятга ҳам боғлиқ эмас. Бирор киши, ҳатто миллатнинг иродаси билан ҳам, табиат қонунига туб ўзгартириш киритиш ёки уни бутунлай йўқ қилиш мумкин эмас. Чунки бу қонунларнинг асосини ташкил қилган боғланишлар, муносабатлар объектив хусусиятга эга.

Оламдаги ҳар бир нарса ва ҳодиса бир-бирини тақозо қиладиган ва шу билан бирга, бир-бирини истисно қиладиган қарама-қарши томонлар бирлигидан иборат. Демак, воқелик ва ўзгариш жараёнида айният ва зиддиятнинг бўлиши ҳам одатий ҳол. Масалан, иссиқ ва совуқ, оқ ва қора, кеча ва кундуз, электрнинг мусбат ва манфий зарядлари, яхшилик ва ёмонлик, адолат ва жаҳолат ва ҳ. к. Қарама-қарши томонлар бир-бирини инкор этади ва шу билан бирга бири иккинчисини тақозо

этади, бири иккинчисисиз мавжуд бўла олмайди. Фараз қилайлик, магнитнинг манфий заряди бўлмаса, у ҳолда ушбу нарса магнит бўлолмайди.

Борлиқ нарса, воқеа-ҳодисаларнинг турли-туманлигидан иборат. Лекин нарсалар қанчалик хилма-хил, турли-туман бўлмасин, улар ўртасида яқинлик, айнанлик мавжуддир. Масалан, стол ва стул сифат жиҳатидан турли нарсалардир. Лекин барибир улар ўртасида ўхшаш томонлар, белгилар бор. Айтайлик, уларнинг ё ранги ёки бир хил материалдан ясалганлиги ёки бўлмаса, вазни ўхшаш бўлиши мумкин ва ҳ.к.

Айният тушунчаси нарса ва ҳодисалар ўртасидаги ўхшаш томонларни ифодалайди. Шу билан бирга нарса-ҳодисалар бир-биридан фарқ қиладиган томонлар, хусусиятлар, белгиларга ҳам эгадир. Айнан бир хил бўлган нарсанинг ўзи йўқ. Ҳатто дарахтнинг бир шохида ёнма-ён турган 2 барг ҳам бир-биридан фарқ қилувчи баъзи жиҳатларга эга. Ҳеч бўлмаганда, улар бир-биридан макондаги ўрни билан фарқ қилади.

Ҳаётдан мисол келтирадиган бўлсак, бир-бирига ташқи томондан тамомила ўхшаш бўлган Ҳасан ва Хусанларда ҳам жуда кўп фарқ қилувчи хусусиятлар бор. Масалан, уларда феъл-атвор, қизиқиш тури, дунёқарашлар ҳар хил бўлиши, яъни уларнинг ички дунёлари фарқ қилиши мумкин. Демак, тафовут нарса — ҳодисаларнинг фарқ қилувчи томонларини ифодаловчи тушунчадир.

Қарама-қаршилик деб эса, нарса, воқеа-ҳодисаларнинг бир-бирини тақозо этувчи ва шу билан бирга бир-бирини инкор этувчи томонлари, кучларининг ўзаро муносабатига айтилади.

Қарама-қаршиликлар ўртасидаги муносабатни зиддият деган тушунча ифодалайди. Кўп ҳолларда айният ва тафовутнинг зидлиги ва уларнинг бир махражга келиши, меъёрий ўзгаришлар туфайли ривожланиш, тараққиёт, янгиланиш жараёнлари амалга ошади. Тараққиёт шу маънода айният, тафовут ва зиддиятларнинг пайдо бўлиши, ривожланиши ва ҳал қилинишидан иборат бўлган абадий ва азалий мураккаб жараёндир.

Собик Иттифоқнинг мафкураси даражасига кўтарилган марксизмда асосан зиддиятга кўпроқ эътибор берилар эди. У мутлақлаштирилар ва жамиятга кўчирилиб, асосан, антогонистик зиддиятлар тўғрисида гапирилар ва уларнинг ечилиши инсониятни бахтли ҳаётга олиб боради, дея хаёл қилинар эди. Ҳолбуки, инсоният пайдо бўлибдики, унинг ҳаётида айният ва тафовут ҳам, зиддият ва қарама-қаршиликлар ҳам мавжуд бўлиб келмоқда. Одамзод зиддиятлар камроқ бўлган, кишиларнинг хилма-хил интилиш ва мақсадлари, бир-биридан фарқ қиладиган ғоялари уйғунлашган, барқарорлик устувор бўлган жамиятни куриш учун бош қотириб келмоқда.

СОЦИОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ ДОЛЗАРЪ МУАММОЛАРИ

Қаюмова А.Т.,

БухДУ

Социология фани асосига оид мезонлардан келиб чиқиб, унинг тузилишини уч турга ажратиш мумкин.

Биринчи тузилма - микросоциология ва макросоциологиядир. *Микросоциология* жамиятдаги барқарорлик, революцион ва эволюцион

ўзгаришларни белгилашга хизмат қиладиган кишиларнинг кундалик ҳаёти, алоқалари, феъл-атвори, уларнинг *мотивлари*, хатти-ҳаракатларини, *нормаларини*, қоидаларини тадқиққилади. Бу тўғрисида маълум бир назариялар мавжуд. Джордж Хоманс кишилар ўртасидаги ўзаро хатти-ҳаракатлар рағбатлантириш ва жазолаш принципи асосида амалга ошади, деб ҳисоблайди. Эрвин Гоффман фикрича эса, кишилар ўзларини театр актёрларидек тутадилар, улар гўё маълум ролларни ўйнайдилар ва маълум таассурот ҳосил қилиш орқали бошқаларга таъсир кўрсатишга интиладилар. Ҳақиқатан ҳам, кўп ҳолларда кишилар ўзларини амалда қандайлигидан кўра яхшироқ қилиб кўрсатишга уринадилар.

Совет Социологиясининг микро даражасида узоқ вақт совет кишилари учун меҳнат—бахт, асосий ҳаётӣ эҳтиёж бўлиб, уларнинг барчаси коллективистлар, байналмилалчилар, ватанпарварлардир деган фикрга асосланиб келинди. Мана шунинг учун ҳам ҳозирги Россия жамиятида кишиларнинг ахлоқий бетайинлиги кузатилади, аҳолининг кўпчилик қисми эса ашаддий индивидуализм, миллатчилик ёки космополитизм ҳолатига тушиб қолган.

Макросоциологик даражада асосий диққат ижтимоий тузумнинг иқтисодий ва сиёсий тизимлари, динлар, партиялар, синфлар, оилаларнинг турлари ва шу кабиларнинг феъл-атвор моделларига қаратилади. МакроСоциология жамиятдаги турли хил қатламларнинг ўзаро алоқалари, уларнинг ўзаро таъсирини ўрганади. МакроСоциология кўпроқ фундаментал фанларга оиддир.

Макросоциологик даражадаги ҳозирги замон социологлари ўртасида асосан икки ёндошув устунлик қилади. Булар Э.Дюркгейм, Т.Парсонс ва бошқаларнинг функционализи, К.Маркс, Р.Дарендорф ва бошқаларнинг конфликт назариясидир. Жамият социологик таҳлил қилинганда иккига: мулкдорлар ва мулксизлар, ҳукмронлар ва тобеларга бўлинади. Лекин маълум бир ёндашувнинг тарафдорлари нима учун жамият бундай табақалашган ҳолда сақланишини тушунтириб бера олмайдилар, бошқалари эса нима учун жамият ўзгариши ҳамда тараққий этишини тушуна олмайдилар. Шундай қилиб, ҳатто макросоциологик даражада жамият тузилишининг айни принципиал саволларига ҳали бир хил жавоб йўқ.

